

Buxoro davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası

**Qadimgi dunyo
tarixi fanidan**

ma'ruza matnlari

II qism 20 ta ma'ruza, 40 soat.

Tuzuvchi:

t.f.n. dots. A. Jumayev

Buxoro – 2005

MA'RUZA № 1.

Mavzu: Yunon-Eron urushlari

Reja:

1. Yunon-Eron urushlarining sabablari.
2. Eronliklarning birinchi va ikkinchi yurishlari. Marafon jangi.
3. Uchinchi yurish. Fermopol va Salamin janglari.
4. Yunonlarning g'alabasi. Delos ittifoqi.

Adabiyotlar

1. Геродот. "История". М-л, 1972.
2. Античная Греция. Под. ред. Е. С. Голубцовой. М, 1983.
3. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузицина. М., 1986.
4. Бойназаров Ф. Антик дунё. Тошкент, 1989.
5. +адимги дунё тарихи. II =исм. Ю. С. Крушкол ташрири остида. Тошкент, 1975.

Tayanch tushunchalar

Mardoniy, Doro I, Sparta, Marafon, Miltiad, Kserks, Leonid, Salamin, Triyerlar, Afina dengiz ittifoqi, Kaliy sulhi.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Eron sharqning eng qudratli davlatiga aylanadi. U qisqa vaqt ichida Qora dengizdan Hind okeanigacha, O'rta yer dengizining sharqiy sohillaridan Hindistongacha bo'lgan yerlarni bosib oladi. Endi eronliklar Yunonistonga xam ko'z olaytira boshlaydilar. Eron qo'shinlari Yunonistonning Qora, Marmar va Egey dengizlari sohillaridagi mustamlakalarini, ular orasidagi yo'llarni va undagi bo'g'ozlarni ham egallaganlar. Bu bilan eronliklar Yunonistonning Qora dengiz sohillaridagi xalqlar bilan aloqasini uzib qo'yanlar. Eron qo'shinlari ilgariroq Misrni ham zabt etgan edi. Natijada Qora dengiz va Misr tomondan Yunonistonga kelib turadigan g'alla va boshqa mahsulotlar kelmay qo'yan. Eron qo'shinlari Egey dengizidagi orollarning ko'pchiligini, shuningdek uning shimolidagi yerlarni ham istilo qilganlar. Yunoniston sharq va shimoli-sharq tomondan dushman bosqini xavfi ostida qolgan.

Bu vaqtda Yunoniston polislari o'rtasida birlik yo'q bo'lib, ko'pgina polislar Eron xukmronligini tan olishga tarafdor edi. Ammo ikki polis - Afina va Sparta Eronga itoat etishni xohlamagan. Yunonistondagi bu vaziyat Eron shohi uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Miloddan avvalgi 492 yilda Eron shohi Doro I o'z kuyovi Mardoniy qo'mondonligi ostida ham quruqlikda, ham dengizda Yunonistonga katta qo'shin yuborgan. Quruqlikdagi qo'shin Gellespont bo'g'ozidan o'tib, yo'l-yo'lakay shahar va qishloqlarni vayron qilib, Egey dengizining Frakiya sohili bo'ylab harakat qilgan. Eronliklarning harbiy dengiz kuchlari sohil bo'ylab suzib, Fasos orolini bosib olganlar.

Frakiyalik jangovar qabilalar o'zlarini mudofaa qilib, Xalkidika yarim oroliga yaqinlashib qolgan dushman qo'shinlarini bir muncha kuchsizlantirgan. Buning ustiga dengizda dahshatli bo'ron ko'tarilib, Eron harbiy kemalarining ko'p qismi yakson bo'lgan. Eron qo'shinlari Yunonistonga yetolmay, dengiz falokatidan omon qolgan kuchlari bilan orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Eron qo'shinlari orqaga chekingach, Doro I Yunoniston polislariga elchi yuborib, ularning Eronga tobe bo'lishlarini talab qilgan. Ko'pchilik yunon shahar-davlatlari Eron shohining talabiga rozi ekanliklarini bildirganlar. Fessaliya va Beotiyadagi ayrim polislardagi xoin aslzodalar o'z hukmronliklarini saqlab qolish uchun Eron yordamiga umid bog'laganlar. Ammo Afina va Sparta Doro I ning taklifini rad etgan. Afinada Eron elchilari qoyadan uloqtirilgan. Spartada esa elchilarni yerni ham, suvni ham shu yerdan olsinlar, deb quduqqa tashlaganlar. Shu tariqa Doro I ning butun Yunonistonni o'ziga tobe etish yo'lidagi birinchi urinishi natijasiz tugagan.

Eron shohi Doro I katta tayyorgarlikdan so'ng miloddan avvalgi 490 yilda Yunonistonga qarshi ikkinchi yurishini boshlagan. Eronning harbiy dengiz floti Kilikiya qirg'oqlaridan suzib, Egey dengizini kesib o'tgan. Eron harbiy dengiz flotiga tajribali qo'mondon Datis va shohning jiyani Artaferlar boshchilik qilgan. Eronliklar Evbiya oroliga qo'shin tushirib, tezda Eretriyani bosib olganlar. Datis o'z qo'shinlarini Attikaning shimoli-sharqidagi Marafon qishlog'i yaqiniga tushirgan. Marafon Afinadan 42 km masofada joylashgan manzil edi. Eron qo'shinlarining Marafonga tushganliklari haqidagi xabar Yunoniston bo'ylab tez tarqaladi. Yunonistonning ko'pgina polislaridagi aslzodalar dushmanga qarshi hech qanday chora ko'rmaydilar. Ammo Afina demosining ko'pchilik qismi vatan uchun hayot-mamot kurashiga otlanganlar. Attikada safarbarlik e'lon qilingan. Og'ir qurollangan jangchi-goplitlar lashkari va yengil qurollangan barcha yordamchi qo'shinlar jangovar holatga keltirilgan.

Xalq yig'ini eronliklarning Afinaga xujum qilishini kutib turmasdan jang boshlashga qaror qilgan. Qo'shni Bestiyadagi kichkina Plateya shahrining mingta jangchidan iborat askarlari ham Afina qo'shinlariga kelib qo'shiladilar. Afina qo'shiniga 10 sarkarda va bir arxontpolemark navbat bilan qo'mondonlik qilgan. Afina yordam so'rab, Spartaga chopar yuborgan. Ammo spartaliklar to'lin oy chiqmasdan turib, yordamga kela olmasliklarini bildirganlar. Afinaning jangovar qo'shiniga Miltiad qo'mondonlik qilgan kun u butun lashkarni jangovar tartibda saflagan va eronliklarga qarshi hujumga o'tgan. Marafon yonida hayot-mamot jangi bo'lgan. Yunon qo'shinlari Eron qo'shinlariga qaraganda kam bo'lishlariga qaramay, bu jangda g'olib chiqqanlar. Yunonlar Eron qo'shinlarini Egey dengizining sayozligida batamom yakson etganlar. Yunon qo'shinlari eronliklarning yetti kemasini qo'lga tushirganlar, boshqa kemalar qochib qolgan.

Marafon yonida g'alabani Afinaga yetkazish uchun bir chopar 42 km masofani chopib o'tgan. Chopar Afina ostonalariga yugurib kelib, "Quvoning, biz yengdik!", deb shu zahoti yuragi yorilib, jon bergan. Rivoyatlarga ko'ra, marafoncha yugurish ana shundan qolgan ekan.

Marafon mag'lubiyatidan keyin eronliklar Afinaga yana hujum qilishga harakat qilgan bo'lsada, Afinaliklarning kuchli mudofaasini ko'rib bunga jur'at qilmaganlar.

Miloddan avvalgi 486 yili Eron shohi Doro 1 vafot etadi. Shundan keyin Eron taxtiga uning o'g'li Kserks o'tiradi. Kserks mamlakatdagi qo'zg'olonlarni bostirib, Yunonistonni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu davrda Yunonistondagi polislar va siyosiy guruhlar orasida parokandalik davom etardi. Lekin Afina urushga tayyorgarlik ko'rib, quruqlikdagi qo'shinni va dengiz flotini jangovar holatga keltirib qo'ygan edi. Eron bilan urush xavfi yaqinlashgach, yunon polisleri o'zaro janjallarni yig'ishtirib, birlashishga ahd qilganlar. Miloddan avvalgi 481 yilda Afina bilan Sparta o'rtasida ittifoq tuzilib, unga boshqa polislar ham qo'shiladilar.

Miloddan avvalgi 480 yilning ko'klamida eronliklarning Yunonistonga qarshi uchinchi yurishi boshlanadi. Qo'shinga Kserksning o'zi boshchilik qiladi. Uning qo'shini eronliklardan tashqari, turonliklar, ossuriyaliklar, bobilliklar, misrliklar, Kichik Osiyo yunonlari va boshqa xalqlardan olingan jangchilardan iborat edi. Finikiyaliklar esa eronliklarga harbiy kemalar yasab berganlar.

Miloddan avvalgi 480 yilda Eron qo'shini va floti ham quruqlikdan, ham dengizdan Yunoniston ustiga bostirib kiradi. Kserks qo'shini jang qilmay Shimoliy Yunonistonni ishg'ol qiladi. Chunki Fessaliya bilan Makedoniya Kserksga jangsiz itoat etadi. Yunonlar bilan Eron qo'shinlari Fermopol yonida bir-birlariga to'qnash keladilar, Fermopol mudofaasiga Sparta podshosi Leonid boshchilik qiladi va eronliklarning O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lini to'sib turadi.

Eron qo'shinlari Shimoliy Yunonistondan o'tib, Shimoliy va O'rta Yunonistonni bog'lab turuvchi Farmopol yo'lagiga yetib keladi. Leonid o'z qo'shinlari bilan ikki kun davomida eronliklarning son jihatdan ortiq bo'lgan qo'shinining hujumlarini qahramonona qaytarib turgan. Lekin katta boylikka sotilgan fessaliyalik bir xoin eronliklarni aylanma tog' so'qmoqlari orqali yunon qo'shinlarining orqa tomoniga boshlab borgan. Leonid dushmanlarning orqa tomondan o'rab olayotganini sezib, 300 spartalikdan boshqa hamma yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. U 300 spartalik va serg'ayrat yunon jangchilari bilan birga eronliklarga qarshi beomon jangga otlangan. Jang ikki kechayu ikki kunduz to'xtovsiz davom etgan. Ayovsiz jangda Leonid va u bilan qolgan askarlar qahramonlarcha halok bo'lganlar. Shundan keyin eronliklar O'rta Yunonistonga bostirib kirganlar va Afinani ishg'ol qilganlar. Shaharga o't qo'yilib, vayron qilingan. Afinaliklar shaharni tashlab ketishga majbur bo'lganlar. Afinaliklardan jang qilishga qurbi yetadigan erkaklar qo'shin va harbiy kemalarga boradilar. Ayollar, qariyalar, bolalar va qullarni afinaliklar flot

himoyasida Peloponnesga va Salamin oroliga o'tkazib qo'yadilar. Afinaliklar Kserks buyrug'i bilan o't qo'yilgan jonajon shaharlari alanga ichida qanday yonayotganligini kemalardan va oroldan kuzatib turadilar.

Yunonlar oldida eronliklarga zarba berishdek ulug' vazifa turardi. Ular Attika bilan Salamin oroli oralig'idagi bo'g'ozga 200 dan ortiq harbiy kemalarini joylashtirganlar. Yunonlar xuddi shu Salamin bo'g'ozida dushmanga zarba berish rejasini tuzganlar. Bu jang miloddan avvalgi 480 yilning ko'klamida boshlanib, jangga har ikki tomondan juda ko'p qo'shin qatnashgan. Bo'g'ozda turgan yunon harbiy kemalarining har bir tomonida uch qatordan eshkaklar bo'lgan, shuning uchun ular *triyeralar* deb atalgan. Ularning har birida 180 tadan eshkakchi va 20-30 tadan jangchi bo'lgan. Eronliklarning ochiq dengizda yurishga moslashgan kattakon, og'ir kemalariga qaraganda, triyeralar bo'g'ozda ancha tez harakat qila olardi.

Yunon dengizchilari tor Salamin bo'g'ozining qayeri sayoz, qayerida qoya toshlar borligini yaxshi bilishardi. O'zining ko'p sonli flotining g'alaba qilishiga ishongan Kserks unga bo'g'ozga kirib, yunonlar bilan jang qilishni buyuradi. Kserks o'z a'yonlari bilan Attikaning baland qirg'og'idan o'z kemalari yunonlar kemalariga yaqinlashib borayotganini kuzatib turadi. Orolidan esa afinalik qariyalar va ayollar jangning borishini kuzatib turadilar.

Afinaliklar va boshqa polislardan kelgan yunonlar yo g'alaba, yoki qahramonlarcha halok bo'lishni shiori ostida jangga kirganlar. Chunki ular uchun chekinadigan joyning o'zi yo'q edi, chekinsalar oilalari qullikka tushardi. Eron floti bo'g'ozga kirishi bilan yunon eshkakchilari eshkaklarini ishga solib, kemalarini shitob bilan dushman ustiga haydab boradilar. Yunonlarning triyerolari dushman kemalarining eshkaklarini sindirib, burni bilan urib kemalarning yonlarini tesha boshlaydilar. Natijada Eron kemalarining saflari buziladi. Ayni paytda Eron kemalari qo'ltiqning sayoz joylarida o'tirib qumlab qoladi. Ba'zilar suv osti toshlariga, ba'zilar bir-birlariga urilib, tilka-pora bo'ladi. Jangda yunon floti g'olib chiqib, eronliklarning 200 dan ortiq kemasi suvga g'arq bo'ladi. Mag'lubiyatdan omon qolgan eronliklar flotining qolgan qismi chekinishga majbur bo'lgan. Eron flotining Salamindagi mag'lubiyati Kserksni o'z qo'shinining bir qismi bilan Yunonistonni shosha-pisha tashlab qochishga majbur qilgan.

Miloddan avvalgi 479 yilda Mardoniy qo'mondonligidagi Eron qo'shinilari Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qilganlar. Sparta, Afina, Megara, Plateya va boshqa polislarning birlashgan kuchlari eronliklarga qarshi kurashga otlangan. Mardoniy qo'shinlari Beotiyaga chekingan. Shu yili Plateya yonida yunonlar g'alaba qozongan. Eron qo'shini qo'mondoni Mardoniy ham jangda halok bo'lgan. Forslar Yunonistonni tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa yunonlar qahramonona kurashib o'z vatanlarini dushmandan tozalaganlar.

Miloddan avvalgi 478 yilda Afina eronliklar ustidan uzil-kesil g'alaba qilish uchun eronliklarga qarshi kurashda ishtirok etgan barcha polislari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizi orollari bilan harbiy ittifoq tuzgan. Bu Delos yoki 1-Afina dengiz ittifoqi deb nom olgan. Bu ittifoqda Afina rahbarlik qilgan. Uning Delos ittifoqi deb atalishining sababi shunda ediki, ittifoq xazinasi yunonlar muqaddas deb bilgan Delos orolida saqlangan. Ittifoqchilar qo'shinni harbiy kemalar, askarlar va pul mablag'i bilan ta'minlab turishlari kerak edi.

1-Afina ittifoqi yunon qo'shinlarini harbiy jihatdan kuchaytirgan. Shundan keyin Eron shohi qo'l ostida qolgan yunonlarni ozod qilish uchun olib borilgan urush yana 43 yil davom etgan. Kichik Osiyoning g'arbiy sohilida joylashgan yunon shahar-davlatlari ham o'zaro ittifoq tuzganlar. Ittifoqchilardan eng kuchlisi Afina edi. Afinaliklar boshchiligida yunonlar eronliklarning flotini bir necha bor mag'lubiyatga uchratib, Kichik Osiyo sohillariga bir qancha hujumlar qilganlar. Kichik Osiyodagi va Egey dengizi sohilidagi aholi eronliklar zulmidan ozod qilingan. Forslar bilan urush miloddan avvalgi 449 yilga qadar davom etgan.

O'sha yili yunonlar bilan sulh tuzganlar. Bu sulh yunonlar tomonining vakili afinalik Kalliy nomi bilan "Kalliy sulhi" deb ataladi. Sulh ahdlariga ko'ra, eronliklar Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi barcha orollar mustaqilligini tan olgan. Eron harbiy flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan.

1-Afina dengiz ittifoqidan foydalanib, Afina yunon dunyosida eng qudratli davlat bo'lib qoladi. Yunoniston-Eron urushlari o'z vatanining mustaqilligini va ozodligini Eron asoratidan saqlab qolgan yunonlarning g'alabasi bilan yakunlangan. Bu urush ular uchun adolatli, ozodlik urushi edi.

Mavzu: Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi

Reja:

1. Yunon-Eron urushlaridan keyingi xo`jalik taraqqiyoti. Qishloq xo`jaligi.
2. Hunarmandchilik va savdo qulchilikning kuchayishi.
3. Qulchilikning kuchayishi.

Adabiyotlar

1. Бойназаров Ф. Антик дунё. Тошкент, 1989.
2. История Древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М. , 1986.
3. Античная цивилизация. Под. ред. В. Д. Блаватского. М, 1973.
4. Глускина Л. Н. Проблемы социально экологической истории Афин IVв. дон. э. л. , 1975.
5. Доватур А. И. Рабство в Аттике IV-V вв. до н. э. Л, ЛГУ, 1980.
6. Словарь Античности. М, 1989.

Tayanch tushunchalar

Afina dengiz ittifoqi. Qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik, ergasteriya, Pirey, savdo, qullarni jazolash.

Yunon Eron urushlarida yetakchilik qilib, butun mamlakat shahar-davlatlarini bosqinchilarga qarshi kurashga otlantirgan, hamda g'alabalarga salmoqli hissa qo'shgan Afina davlati katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Urushdan so'ng butun O'rta yer dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylandi.

Yunon shahar davlatlarining Afina boshchiligidagi ittifoq Kalliy sulhidan keyin ham saqlanib qoladi. Bu ittifoqning a'zolari 200 dan oshgan edi. Ittifoqning umumiy harbiy floti va qo'shini yanada kuchaytiriladi. Uning pul xazinasini ham boyib boradi.

Afina harbiylari ittifoq floti va qo'shiniga qo'mondonlik qiladilar. Afinaliklar ittifoq xazinasini Delosdan shaharlariga ko'chirib, unga xo'jayinlik qila boshlaydilar. Xazinaga to'lanadigan a'zolik badali miqdorini ham afinaliklarning o'zlari belgilaydigan bo'ladilar. Afina butun Egey dengizida hukmronlikni o'z qo'liga oladi. Shuning uchun afinaliklarni "dengiz egalari" deb atashadigan bo'ladilar. Shu davrda Afina o'z qudratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunoniston polislarida dehqonlar uzumchilik bilan shug'ullanib, zaytun, piyoz, sarimsoq, meva, sabzavot ham ekanlar. Yunonistonda bug'doy, arpa va boshqa don ekinlari kam ekilgan. Yunonlar Lakoniya, Messeniya, Beotiya va Fessasliya kabi sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa va suli ekanlar. Bu joylar Yunonistonni g'alla bilan ta'minlay olmas edi. Shuning uchun g'alla Sisiliya va Shimoliy Qora dengiz buyruqlaridan keltirilgan. Dehqonlar g'allakorlikda omoch, toklarga ishlov berishda motiga, tok qaychi va daraxtlarning tagini yumshatishda belkurakdan foydalanganlar. Yunonistonda miloddan avvalgi V asrdan boshlab uzumdan musallas, zaytundan moy olish ancha rivoj topgan edi. Chunki uzum va zaytun g'ishloq xo'jaligidagi asosiy maxsulotlar edi. Uzum musallasi va zaytun moyi Yunonistondan tashqarida ham yuqori baholangan.

Yunonistonda katta yer egalari ham bo'lgan ammo oz yerli dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Chorvachilik qishloq xo'jaligida katta o'rin tutmagan, chunki keng yaylovlarning kamligi chorvachilikning rivojlanishiga imkon bermagan. Go'sht va sut qadimgi yunonlarning asosiy ozuqasi emas edi. Yunonlar jun olish maqsadida qo'y boqqanlar. Jundan har xil kiyim-bosh tayyorlaganlar. Ular yirik shoxli qoramol, eshak va xachir boqqanlar. Ulardan qishloq xo'jaligida va aravalarga qo'shishda foydalanganlar. Yunonistonda ot kam boqilgan. Undan xo'jalikda ham, harbiy maqsadlarda ham kam foydalanilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda butun Yunonistonda hunarmandchilik rivojlanadi. Afina va boshqa shaharlarda to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik, tikuvchilik, qurolsizlik va me'morchilik avj oldi. har xil hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalar ergasteriyalar deb atalgan. Ularda 20-30 kishi ishlagan va asosiy qismini yollanma ishchilar hamda qullar tashkil etgan edi.

Miloddan avvalgi IV asrda yashagan mashhur notiq Demosfenning yozishicha, otasining qurolsizlik ustaxonasida 33 ta qul ishlagan. Hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida Yunoniston shaharlari, xususan Afina juda boyib ketgan.

Yunonistonda hunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashqi savdoning ravnaq topishiga olib kelgan. Qo'ltiqlarga yaqin shaharlar, xususan Afina savdo-sotiqning muhim markaziga aylangan. Afinadan 5-6 km masofada joylashgan Pirey Attikaning asosiy savdo-sotiq porti hisoblangan. Bu portda mol saqlanadigan omborxonalar, kema quradigan va ta'mirlaydigan ustaxonalar bor edi. Portga o'zga mamlakatlarning savdo kemalari tez-tez kelib turgan. Afinaliklarning dengizda hukmronlik qilishlari tufayli ularning savdo-sotiq ishlari ham tez rivojlanib ketgan. Afinaning savdo kemalari harbiy flot himoyasida O'rta yer va Qora dengizlar suzib yurar edi.

Yunoniston savdogarlari O'rta yer dengizi havzasidagi Sisiliya, Italiya, Misr, Kichik Osiyo, Finikiya, Frakiya, Sparta mamlakatlari Qora va Marmar dengizlari sohilidagi shaharlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Yunonistonga asosan g'alla, asal, mum, mo'yna va boshqa mahsulotlar, shuningdek, qullar ham keltirib turilgan. Bu yerdan chetga esa kulolchilik buyumlari, zaytun moyi, xar xil matolar, qurollar, tayyor kiyimlar chiqarilgan. Yunonistonning ichki va tashqi bozorlar bilan bo'lgan savdosi quruqlik va dengiz yo'llari orqali amalga oshirilgan.

Yunoniston-Eron urushi qulchilik munosabatlarining kuchayishini tezlashtiradi. Yunonlar urushda asir tushgan jangchilarnigina emas, balki boshqa mamlakatlarda qo'lga olingan ayollar va bolalarni ham cho'ri va qullarga aylantirganlar. Kichik Osiyo sohillariga qilingan hujumlardan birida afinaliklar 20 mingdan ortiq kishini asir olganlar va ularni qul qilib bozorlarda sotganlar. Frakiya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohillarida yashagan mahalliy qabilalar o'z qo'shnilariga hujum qilib, asirga tushganlarni yunonlarga qul qilib sotar edilar.

Yunonistondagi qullarning ko'pchiligi o'zga yurtlardan bo'lib, ular orasida kam miqdorda yunon qullari bo'lgan. Barcha orollar va shaharlarda qul bozorlari bor edi. Ularning eng kattasi Xios orolida edi. Qul bozorlarida ayollar, erkaklar va yosh bolalar qul qilib sotilgan va sotib olingan. Ularning ko'kraklariga taxtachalar osib qo'yilib, unga qulning qayerlik ekanligi, yoshi va kasb-kori yozib qo'yilgan. Xaridorlar qullarni har tomonlama ko'rib, sinab olganlar.

Yunonistonning tosh va ma'danlarini qazib chiqaradigan shuningdek, hunarmandchilik rivoj topgan viloyatlarida qullar juda ko'p edi. Chunki ma'dan va marmartosh konlarida faqat qullar ishlaganlar. Hatto eng kambag'al erkin yunonlar bunday joylarda ishlamas edilar.

Savdo va harbiy kemalarning eshkakchilari qullar bo'lganlar. Qullar kulolchilik ustaxonalarida suv va o'tin tashir, loy qorar, kulolchilik charxlarini aylantirar edilar. Kulolchilik buyumlarini yasash va ularga naqsh solish, bezash ishlarini erkin kishilar bajarganlar. Garchi kichik yerli dehqonlar yerlarida o'zlari ishlasalarda, katta-katta yerlari bo'lgan dehqonlar qul mehnatidan foydalanganlar. Qullar yorg'uchoqlarda ishlab, arpa-bug'doyni yanchib un qilar, uzum va zaytun mevalarini oyoqlari bilan bosib, suvini chiqarganlar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlari to'ldirilgan katta-kichik savatlarni bozorlarga olib borganlar. Yunonlar qullardan uy xizmatkorlari sifatida ham foydalanganlar. O'zlariga to'q kishilar va boylarning uylarida 3-4 dan 50 tagacha qullar va cho'rilar xizmat qilgan.

Qadimgi Yunonistonda qullarga barcha insoniy huquqlardan mahrum bo'lgan mavjudot deb qaralgan. Qullar o'z mehnatining samaralaridan ko'p manfaatdor emasdilar. Shuning uchun qulni qo'rqitish va jazolash yo'li bilan mehnat qilishga majbur qilish mumkin edi. "Odisseya" dostonida qullar haqida shunday deyilgan: "Qul ishyoqmas bo'ladi: xo'jayin qattiq turib uni ishlashga majbur etmasa, uning o'z hohishi bilan ishga qo'l urgisi kelmaydi...".

Qullarga o'tkazilgan jabr-zulm ularni o'z xo'jayinlariga qarshi kurashga undagan. Quldorlarning jabr-zulmidan norozi bo'lgan qullar ularga zarar keltirishga harakat qilganlar. Chunonchi, ular asbob-uskunalarni sindirganlar, mollarni mayib qilganlar, quldorlarga suiqaqd kilib, hatto ularning uy-joylariga o't qo'yganlar. Ba'zan qullarning quldorlarga qarshi qo'zg'olonlari ham bo'lib turgan.

Miloddan avvalgi V asr o`rtalarida yuz bergan qattiq zilzila natijasida Sparta shahari vayron bo`lgan. Qullik girdobiga tashlangan mahalliy aholi-ilotlar quldorlarga qarshi kurashga otlanganlar. Ular Spartaga yopirilib, hujum boshlaganlar. Spartaliklar bilan ilotlar hujumlarini qaytara olgan bo`lsalar-da, ammo qo`zg`olonni o`z kuchlari bilan bostira olmaganlar. Ular boshqa shahar davlatlarning quldorlaridan yordam so`rashga majbur bo`lganlar. Ba`zi shahar-davlatlar spartaliklarga yordam berganlar. Ammo shunga qaramay ilotlarning hujumini sindirish mumkin bo`lmagan. Bu kurash natijasida ilotlarning bir qismi spartaliklar zulmidan xalos bo`lib, ozodlikka erishganlar va Spartadan chiqib ketganlar.

Shunday qilib, Yunon-Eron urushlaridan keyin Yunoniston qulchilik davlati o`z taraqqiyotining eng yuqori darajasi - klassik qulchilikka yetdi. Arzon va mo`l-ko`l qul mehnati natijasida iqtisodiy hayotda katta yutuqlarga erishildi, ko`plab moddiy ne`matlar yaratilib, erkin fuqarolarning turmushi yaxshilandi. Biroq qullar huquqsiz va eng ayanchli ahvolda qolaverganlar.

MA'RUZA № 3.

Mavzu: Afina quldorlik demokratiyasi

Reja:

1. Afinada quldorlik demokratiyasining rivojlanishi.
2. Perikl faoliyati.
3. Quldorlik demokratiyasining cheklanganligi.

Adabiyotlar

1. Античная Греция. Под. ред. Е.С. Голубцовой. М., 1983.
2. История Древней Греции. Под. ред. В.И. Кузищина. М., 1986.
3. +адимги дунё тарихи. Ю.С. Крушкол ташири остида. II =исм. Тошкент, 1975.
4. Словарь античности. М., 1989.
5. Байназаров Ф. Антик дунё. Тошкент, 1989.

Tayanch tushunchalar

Xalq yig`ini, demos, Perikl, strateg, shahar-davlatlar ittifoqi, Quldorlik demokratiyasi, bule, gelieya, eklessiya, fetlar, areopag, agora.

Yunon-Eron urushlaridan keyin Afinaning dengizchilik qudrati yanada o`sdi. Miloddan avvalgi VI asrda Solon islohotlari natijasida mulkiy mavqega ko`ra siyosiy huquqlarga ega bo`lgan fuqarolar orasida I-Afina dengiz ittifoqining tayanchiga aylangan fetlar - Afinaning kambag`al fuqarolari mavqei yanada oshdi. Urushlar vaqtida ko`pchilik demokratik qatlamlari Afinada yo`qligi paytida aslzodalar hokimiyati va ularning tayanchi areopag kuchaygan bo`lsa, urushlardan so`ng demokratik qatlamlar kuchayib, siyosiy kurashlar avj oldi. Miloddan avvalgi 462 yilda demokratik guruhlar yo`lboshchisi Efialt o`tkazgan islohotlar natijasida areopag-Afina Oliy sudi faoliyatini chekladi. Buning uchun aslzodalar Efialtni o`ldirganlar. Shunga qaramay Afinada demokratik qatlamni siyosiy mavqei mustahkamlanib borgan. Perikl davrida esa aslzodalar guruhi rahbari Fukidid (tarixchi emas) mamlakatdan badarg`a qilingach demokratik jarayonlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari paydo bo`lgan.

Qadim zamonlardan boshlab Afinada, shuningdek Attikaning boshqa joylarida ham xalq yig`inining ta`siri kuchli edi. Xalq yig`ini bir oyda 4 marta chaqirilgan. Oliy hokimiyat xalq yig`ini ixtiyorida edi. Xalq yig`inida qonunlar qabul qilingan, urush, sulh va davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. ayni paytda xalq yig`ini davlatni boshqaradigan strateglarni va har xil mansabdor shaxslarni saylagan va o`rnidan olib tashlagan.

Yig`inda Attikaning barcha shahar va qishloqlaridan kelgan bir necha ming kishi ishtirok etgan. Yig`in qizg`in munozara bilan o`tgan. Minbarga chiqqan notiqning bir guruhi aslzodalar manfaatini himoya qilsa, ikkinchi guruhida esa demos, ya'ni oddiy xalq manfaatini himoya qilgan.

Yig'in nihoyasida ko'rilgan masalalar yuzasidan ko'pchilik ovoz bilan tegishli qarorlar qabul qilingan.

Miloddan avvalgi 443 yilda xalq yig'ini Periklni davlatning oliy lavozimi bo'lgan birinchi strateg qilib saylandi. U aslzoda va badavlat oiladan chiqqan bo'lib, unga qarashli yerlarda va ustaxonalarda o'nlab qullar, yollangan ishchilar ishlagan. Perikl iste'dodli va bilimli kishi bo'lib, ajoyib notiq ham edi. U minbarga chiqqanda o'zini vazmin va ulug'vor tutgan, dona-dona qilib, so'zlagan. Lekin u ba'zan g'azab bilan so'zlaganda yunonlar uni xuddi dushmanlarga yashin va chaqmoq otayotgan Zevsga o'xshab ketadi, deyishgan.

Perikl ko'p hollarda Attika demosini manfaatlarini ko'zlab ish tutgan. Shuning uchun ham demos va xalq yig'ini 15 yil surunkasiga uni birinchi strateg lavozimiga saylangan. Bu lavozimda u umrining oxirigacha ishlagan. U o'z faoliyati davomida butun Yunonistonni Afina qo'l ostida birlashtirishga harakat qilgan. U butun choralar bilan dengiz ittifoqini mustahkamlaydi. Unga yangi-yangi ittifoqchilarni jalb qiladi. Ittifoqda afinaliklarning hukmronlik qilishidan norozi bo'lgan ba'zi shahar-davlatlar ittifoqdan chiqishga uringan. Perikl bunday urinishlarga qarshi kurashib, turli yo'llar bilan ularni ittifoqda qolishga undagan. Ittifoqdan chiqib ketishga astoydil harakat qilganlarni esa qurol kuchi bilan ayovsiz bostirib turgan.

Perikl ittifoqchilarni itoatda tutish maqsadida ularning yerlarida afinaliklarning mustamlakalarini tashkil qilgan. U Afina davlatini mustahkamlash uchun harbiy dengiz kuchlari va quruqlikdagi qo'shinlarni kuchaytirishga ham alohida e'tibor bergan. Perikl qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ham katta ahamiyat bergan. Afinada jamoat binolar qurish borasida xalq yig'iniga qator takliflar kiritgan. U yunon madaniyatining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan davlat arbobi edi.

Yunonlar Afinadagi davlat idora usulini demokratiya deb ataganlar. Buning ma'nosi "demos" - xalq xokimiyati demakdir. Demos davlatidagi o'z hokimiyatidan quldorlik tuzumini hamda Afinaning ittifoqchilari ustidan hukmronlikni mustahkamlash maqsadida foydalangan. Afina demokratiyasining bu idora usulidan faqat quldorlarga emas, balki ma'dan va tosh konlaridagi qullar mehnatidan, shuningdek, ittifoqchilar to'laydigan a'zolik badalidan foyda ko'rib turadigan fetlar ham manfaatdor bo'lganlar.

Afina quldorlik demokratiyasi quldorlarning qullar ustidan hukmronligini ta'minlaydigan idora usuli edi. Yunonistondagi boshqa shahar-davlatlarning aksariyatida Afina demokratiyasi singari demokratiya o'rnatilgan.

Miloddan avvalgi V asrda quldorlik demokratiyasi o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Hamma yerda bu demokratiya erkin kishilarning qullar ustidan bo'lgan hokimiyatini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu xokimiyatdan Attikadagi aholining ozgina qismi foydalangan, xolos. Otasi ham onasi ham tub afinalik bo'lgan erkak kishilarga Afina quldorlik davlatining to'la huquqli fuqarosi hisoblangan. Ular xalq yig'inida faol qatnashib, saylash va saylanish huquqiga ega edilar.

Ammo boshqa viloyatlardan Attikaga ko'chib kelgan kishilar va ularning avlod-ajdodlari Afina fuqarolari ega, bo'lgan huquqlardan mahrum bo'lgan. Ular Attikada yashayotganliklari uchun alohida soliq to'lashlari kerak edi. Odamlarni va ma'muriyatni aldab o'zini Attika fuqarosi qilib ko'rsatgan yoki ko'rsatishga harakat qilgan kishilar qul qilingan. Afinalik ayollar xalq yig'inlarida qatnashtirilmagan, ularning asosiy vazifasi - "uy-ro'zg'orni yaxshi tutish va eriga itoatda bo'lish" dan iborat edi.

Afina fuqarolari qatoriga kirish juda qattiq cheklab qo'yilgan. Ammo qadimgi dunyoning hech bir joyida davlatni idora etish ishlarida va ijtimoiy hayotda kishilar Afinadagidek, faol qatnashmaganlar. Erkin afinaliklar eng og'ir ishlarini qullar zimmasiga yuklab, ko'p vaqtlarini shaharning jamoat joylarida madaniy, ma'rifiy va maishiy ishlar bilan o'tkazganlar.

Afinada odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy - bu agora edi. Ertalab bu yerga savdo-sotiq qilinadigan peshtaxtalar qo'yilgan va kechgacha savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Kechgacha borib savdo-sotiq tugagach, peshtaxtalar yig'ib olingan.

Agoraning bir tomonida Afina davlatining qonunlari o'yib yozilgan tosh taxtalar turgan. Unda xalq yo'g'ini bo'ladigan kun va sudda qanday ishlar ko'rinishi to'g'risidagi bildirishlar osib qo'yilgan. Xalq yig'ini bo'ladigan kuni boylar ham, hunarmandlar ham, bozorda buyumlarni sotib bo'lgan savdogaru dehqonlar ham, xullas hamma agorada to'planishgan.

Afinaliklar agorada turli yangiliklardan xabardor bo'lishgan. Qadimgi yunonlar uchun agorada borish, bizning zamondagi odamlar uchun gazeta, radio va televideniya qanday ahamiyatga

ega bo'lsa, xuddi shunday ahamiyatga ega edi. O'spirinlar, yigitlar va katta yoshdagi erkaklar gimnasiylarda to'planishar edilar. Bu yerda mashhur olimlar ma'ruzalar o'qigan, suhbatlar o'tkazib turilgan. Shu yerning o'zida yunonlar tajribali muallim rahbarligida kurash, har xil o'yin va mashqlar bilan shug'ullanganlar.

Konsertlar quyiladigan katta binoda Yunonistondagi eng yaxshi sozanda va xonandalar musobaqalari o'tkazilgan. Musobaqalarda ko'plab musiqa ishqibozlari ham to'plangan, kim yutib chiqqanligini ham shular belgilagan. Yiliga bir necha marta teatr tomoshalari qo'yilib, turilgan va bu tomoshalarda o'ng minglab tomoshabinlar hozir bo'lishgan.

Shunday qilib, Afinadagi ijtimoiy hayot erkin kishilarning aqliy va jismoniy jihatdan kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan edi. Ayni paytda Afina iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham ravnaq topadi. Afinaning savdo-sotig'i Egey, Marmar, Qora va Ioniya dengizlarida juda avj olib ketgan. Miloddan avvalgi V asrning birinchi yarmida Afina O'rta yer dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylangan edi.

MA'RUZA № 4.

Mavzu: Peloponnes urushi. Polis tizimining inqirozi

Reja:

1. Peloponnes urushining sabablari va boshlanishi.
2. Urushning borishi va oqibatlari.
3. Polis tizimining inqirozi.

Adabiyotlar

1. Фролов Э. Д. Рождение греческого полиса. Л., ЛГУ, 1988.
2. Маринович Л. П. Греческое наёмничество IV в до н.э. и кризис полиса. М., 1975.
3. Глускина Л.Н. Проблемы социально-экономической истории Афин IV в. до н.э. Л., 1975.
4. Доватур А.И. Рабство в Аттике IV-V вв. до н.э. Л., ЛГУ, 1980.
5. История Древней Греции. Под. ред. В.И. Кузищина. М., 1986.

Tayanch tushunchalar

Peloponnes ittifoqi, Potideya voqeasi, Megara, Arxidam urushi, Perikl taktikasi, dengiz urushi, Amfipol jangi, Afina flotining mag'lubiyati, Oligarxiya, dehqonchilik va hunarmandchilik inqirozi, polislar inqirozi.

Yunoniston shahar-davlatlari o'rtasida miloddan avvalgi 431-404 yillarda bo'lib, o'tgan urushlarni Peloponnes urushlari deyilib, uni Fukidid "Tarix"idan, Ksenofontning "Gresiya tarixi", Diodorning "Tarixiy kutubxona asarlari", Plutarx va Aristofan ma'lumotlari orqali bilib olamiz.

Urushlar qadimgi Yunoniston quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlanishi natijasida kelib chiqqan ediki, biz ziddiyatlarga viloyatlarning notekis rivojlanishi asos bo'lgan.

Yunonistonda 1-Afina dengiz ittifoqi bilan bir qatorda Peloponnes ittifoqi bilan bir qatorda ham bor edi. U miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida tuzilgan bo'lib, unga Megara, Korinf, Agros, Tirinf kabi shahar-davlatlar a'zo edilar. Bu ittifoqqa Sparta boshchilik qilgan. O'tmishda 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida sulh shartnomasi ham tuzilgan edi. Sulh shartnomalarida ittifoqchilarning bir-birlariga qo'shin tortmasliklari, tinch-totuv yashashliklari ta'kidlangan.

Ammo keyingi voqealar 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida qator ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarning tagida u yoki bu ittifoqning butun Yunonistonda hukmronlikni qo'lga kiritish masalasi yotardi. Bu masala urushni keltirib chiqaradigan bosh omil edi. Urushning boshlanishini tezlashtirgan birinchi mojaro, bahona qadimgi

yunon dunyosining g'arbiy chekkasidagi Epidami koloniyasi va Kerkira orolida yuz bergan edi. Bu joylar Yunonistondan Janubiy Italiya va Sisiliya oroliga boriladigan dengiz yo'lidagi ikki muhim bekat edi. Shu ikki joydagi mojarolar tufayli Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lgan Korinf bilan Afina o'rtasida ham nizo chiqqan. Urushni tezlashtirishga sabab bo'lgan ikkinchi bahona Xalkidika yarim orolidagi Korinf koloniyasi Potideyada ham yuz bergan. Bu yerda ham 1-Afina ittifoqi bilan Korinf o'rtasida mojaro chiqqan. Megara shahar davlati Korinf tomonini olgan. Megara va Korinf Peloponnes ittifoqining boshlig'i Spartani Afinaga qarshi urushga undagan. Shundan keyin uchinchi mojaro ham yuz bergan. Afina xalq yig'ini 1-Afina ittifoqi a'zolarining Afinaga qarashli barcha buxtalarida Megara savdo-sotiq kemalarining to'xtashlarini taqiqlagan. Shu tariqa Afina bilan Megara o'rtasida keskinlik kuchaygan. Endi urushning boshlanishi muqarrar edi.

Miloddan avvalgi 431 yilda Korinf va Megaraning tezlashi bilan Sparta Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yuborgan. Urushga Sparta podshosi Arxidam II boshchilik qilgan. Shuning uchun bu urush Arxidam urushi ham deyiladi. Bu Peloponnes urushining birinchi bosqichi bo'lib, urush miloddan avvalgi 431 yildan 421 yilgacha davom etgan.

431 yilda Sparta qo'shinlari Attikaga bostirib kirganlar va dehqon xo'jaliklarini vayron qilib, dehqonlarni talaganlar. Natijada ularning o'zlari oziq-ovqat masalasida og'ir ahvolga tushib qolganlar. Afinaliklarni qat'iy jangga torta olmagan spartaliklar Peloponnesga qaytishga majbur bo'lganlar. Miloddan avvalgi 430 yilda spartaliklar Attikaga yana hujum qilganlar. Shu yili Afinada vabo tarqalib, ko'p odam qirilib ketgan. Urushda har ikki tomon ham jiddiy g'alabaga erisha olmagan. Xalq va aksariyat dehqonlar Afina boshiga tushgan kulfatlarning aybdori Perikl deb hisoblangan. Xalq yig'ini miloddan avvalgi 430 yili uni hokimiyatdan chetlashtirgan. Ammo bir yildan keyin uni oqlab, qaytadan birinchi strateg qilib saylaganlar. Qartayib qolgan Perikl ko'p o'tmay yuqumli kasallikdan vafot etgan. Uning vafotidan keyin hokimiyat tepasiga Kleon saylangan. Shu davrda 1-Afina ittifoqi a'zolari orasida Afinaga qarshi guruhlarining harakati kuchaygan. Bu guruhlariga Sparta yordam berib turgan.

Miloddan avvalgi 429 yilni hisobga olmaganda, spartaliklar har yili Attikaga hujum qilib turganlar. Ular bog'-rog'larni, uzumzorlarni va boshqa ekinzorlarni kesib, qirqib, vayron qilib tashlaganlar.

Miloddan avvalgi 428 yilda Lesbos orolidagi Mitilena shahrida Afinaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Afinaliklar Mitilenadagi qo'zg'olonni shavqatsizlik bilan bostirganlar. Ayni paytda 100 triyerdan iborat Afina kemalari Peloponnes sohillariga yuborilgan. Ular Spartadan Lesbosga yordam uchun yuborilishi mumkin bo'lgan harbiy kemalarning yo'lini to'sib turishlari kerak edi. Spartaliklarning Beotiya, Attika va boshqa joylarda olib borgan janglari yaxshi natija bermagan.

Miloddan avvalgi 430-426 yillar orasida Afina Peloponnesning g'arbiy sohillarida g'olibona urushlar olib boradi. Afinaliklarning harbiy-dengiz kuchlari Kefalleniya va Zakinf orollarini qo'lga kiritganlar. Yunonlar Akarnaniyadagi Solliy shahrini ham bosib olganlar. Korinfni dengiz tomondan himoya qilib turadigan Navpakt shahrini ham afinaliklar qo'lga kiritganlar va uni mustahkamlaganlar. Afinaliklar Messeniya sohillarida ham spartaliklarga qattiq zarba berishgan.

Miloddan avvalgi 424 yili afinaliklar Kifera orolini ham bosib olganlar. Shundan keyin Sparta va uning ittifoqchilari og'ir ahvolga tushib qoladi. Demosfen va Kleon boshchiligidagi Afina floti Sfakteriya orolida ham spartaliklarni tor-mor qilganlar. Mag'lubiyatga uchragan spartaliklar sulh so'raganlar. Kleon Sparta qabul qila olmaydigan shartlarni taklif qilgan. Natijada urush yana davom etgan.

Afinaliklar dengiz urushida qo'lga kiritgan g'alabalaridan mag'rurlanib, ittifoqchilarning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaganlar. Afinaliklarning miloddan avvalgi 425 yil Korinfga qarshi uyushtirgan navbatdagi yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bir yildan keyin Delinda bo'lgan jang ham afinaliklarning butun Peloponnes urushi davridagi eng katta mag'lubiyati edi.

Miloddan avvalgi 427-424 yillarda afinaliklar Sisiliyaga ham bir necha bor muvaffaqiyatli yurish qilganlar. Ammo sisiliyaliklar afinaliklarga bu yerdan ketishni taklif qilganlar. Afina qo'mondonligi o'z imkoniyatlarini hisobga olib, Afina qo'shinlarini Sisiliyadan olib ketishga majbur bo'lgan.

Spartaliklarning tajribali sarkardasi Brasid rahbarligidagi qo'shini Egey dengizining shimolida joylashgan Xalkidika orolidagi bir qancha shaharlarni, shuningdek, Amfiopol shahrini ham ishg'ol qilgan. Bu shahar ilgari afinaliklar qo'lida edi. Amfiopolning qamal qilinishi afinaliklarni ancha tashvishga solib, qo'ygan va yerga Kleon boshliq Afina qo'shinlari yetib kelgan. Ammo Brasid qo'shinlari afinaliklarga qo'qqisdan hujum qilib, ularni tor-mor qilganlar.

Amfiopol yaqinidagi jangda Kleon ham, Brasid ham halok bo'lgan. Miloddan avvalgi 422 yilda Amfiopol afinaliklarning qo'lidan butunlay ketgan.

Amfiopol yonidagi mag'lubiyatdan keyin Afinada sulh tuzish tarafdorlarining ta'siri kuchaygan. Har ikki tomon urushdan charchagan. Afinada sulh tuzish tarafdorlariga Nikiy boshchilik qilgan. Nikiy Afina davlatining rahbari bo'lib qolgach, Afina bilan Peloponnes ittifoqlari o'rtasidagi sulh muzokaralari boshlangan.

Miloddan avvalgi 421-yilda Afina bilan Sparta o'rtasida 50 yilga mo'ljallangan sulh tuzilgan. Bu sulhning tashabbuskori Nikiy bo'lganligi uchun u Nikiy sulhi nomini olgan. Sulh shartlariga ko'ra, tomonlarning qo'shinlari ishg'ol qilgan yerlarini bir vaqtda bo'shatib chiqishlari lozim edi. Agar Spartalik ilotlar qo'zg'olon ko'tarsalar, afinaliklar spartaliklarga yordamga borishlari kerak edi. Ammo sulh shartlari to'la bajarilmagan. Afinaliklar Meseniya pilosida, spartaliklar esa, Frakiyadagi Amfiopolda qolganlar. Spartaning ittifoqchilari Korinf, Megara va Fiva Nikiy sulhini tan olmagan. Nikiy sulhi bilan Peloponnes urushining birinchi bosqichi tugagan.

Miloddan avvalgi 415-404 yillar Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Urushning bu bosqichi afinaliklarning Sisiliyada muvaffaqiyat qozonsalar, bu Spartani mag'lubiyatga olib kelishi va Afinani ulug' Yunonistonning yetakchisi qilib qo'yishi mumkin edi.

Miloddan avvalgi 415 yilda afinaliklar 260 ga yaqin harbiy va yuk kemasini, 32 ming kishidan iborat qo'shinlarini Sisiliyaga jo'natishga tayyorlab qo'yganlar. Afina floti Alkiviad, Nikiy va Lamaxlar rahbarligida Sisiliyaga jo'nab ketgan.

Afina qo'shinining qo'mondonlaridan biri Alkiviad xoinlik qilib, spartaliklar tomoniga qochib o'tgan. U spartaliklarga afinaliklarning barcha sirlarini aytib, Attikaga muntazam qo'shin yuborib, uni vayron qilish kerak degan taklif kiritgan. Alkiviad qochganidan keyin afina flotiga Nikiy, Demosfen va Lamaxlar boshchilik qilganlar. Nikiy urushining to'xtashiga umid boqlab, urush harakatlarini paysalga solgan. Bu bilan sisiliyaliklarga mudofaaga tayyorgarlik ko'rishlari uchun katta imkoniyat yaratib bergan. Ayni paytda Sisiliyadagi yunonlar ham afinaliklarga dushmanlik munosabatda bo'lganlar.

Afinaliklarning Sirakuzani qamal qilishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqqan. Miloddan avvalgi 413 yili Demosfen boshliq Afina floti Sparta va uning ittifoqchilari tomonidan tor-mor etilgan. Nikiy va Demosfenlar qatl etilgan. Ko'p o'tmay Lamax ham halok bo'lgan. Asir qilib olingan afinaliklar qul qilib sotilgan. Sisiliyadagi mag'lubiyat Afinaning obro'sini tushirib yuborgan.

Sisiliya fojeasidan keyin omad Sparta qo'shinlari Afinadan 22 km narida joylashgan Dekeleya qishlog'ini bosib oladi. Ular shu yerdan turib afinaga xavf solib turganlar. Spartaliklar Afina qullariga murojaat qilib, Dekeleyaga qochishga da'vat etganlar va ularga ozodlik berishni va'da qilganlar. Ko'p o'tmay 20 mingdan ortiq qul Dekeleyaga qochib o'tgan. Afinaliklar shaharni himoya qilish uchun barcha choralari ko'rganlar.

Afina dengizida kuchli bo'lib, uni Sparta Afina flotiga qarshi kurashish uchun Eronga murojaat qilgan. Eron shohi Doro II bu taklifni qabul qilgan. Jangda spartaliklar g'alaba qilgan taqdirlarida Yunonistonning Kichik Osiyodagi yerlarining hammasini Eronga berishga va'da qilingan. Ammo bu davrda Afina butun kuchini flotni qayta tiklashga va o'z ittifoqchilari bilan aloqani mustahkamlashga sarf qilgan.

Sparta bilan Afina floti Egey dengizining turli joylarida to'qnashib, goh unisi, goh bunisi yengib turgan. Bu davrda Alkiviad yana Afina tomonga o'tib, Spartaga qarshi kurashda qatnashgan. Ammo spartaliklar forslar yordamida yangi flot tashkil qilganlar. Bu flot 405 yili qobiliyatli sarkarda Lisandr rahbarligida Gelespondni egallab, u yerdagi afina flotini tor-mor etgan. Bu bilan Afinaga Qora dengiz sohillaridan keladigan g'alla yo'li bilan to'silgan. Afinani quruqlikdan Dekeleyadan kelgan qo'shinlar, dengizdan esa Lisandr qo'shinlari qurshab olgan. Afinada ocharchilik boshlangan. Afina oligarxlarining rahbari Feramenning Sparta bilan olib borgan sulh muzokaralari natija bermagan. Feramen boshliq oligarxlar Spartaga taslim bo'lish tarafdorlari edilar.

Miloddan avvalgi 404 yili ochlikdan madori qurigan afinaliklar spartaliklarga taslim bo'lganlar. Afinani Sparta qo'shinlari egallaganlar, uni Pirey bilan bog'lagan devorlar qulatilgan. Afina arxesi tarqatilgan, u Spartaga qaram davlatga aylantirilgan. Oligarxlar Kritiy va Feramen boshchiligida o'ttizlar tiraniyasini tuzib, hokimiyatdan o'z qo'llariga olganlar. Kritiy va boshqalar o'zlariga yoqmagan kishilarni jazolab, quvg'in ostiga olganlar, aholini talaganlar. Feramen unga norozilik bildirganida uni qatl etganlar.

Sobiq demokrat Frasiybul Beotiyaga qochib bekingan. U afinalik qochoqlardan otryad tuzib, chegaradagi Filani egallagan. Frasiybul Pireyga yaqinlashar ekan, uning tarafdorlari ko'payib boradi. Bir necha janglardan so'ng oligarxlar va spartaliklar mag'lubiyatga uchraganlar. Kritiy ham o'ldirilgan.

Miloddan avvalgi 403 yili Afinada demokratiya qayta tiklangan. Ammo Afina Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lib qolgan. Shunday qilib, to'xtab-to'xtab 27 yil davom etgan Peloponnes urushi Spartaning g'alabasi bilan tugagan. Bu urush butun nomi olamiga, xususan Afinaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga va harbiy qudratiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu hol Yunonistonning butunlay zaiflashishiga olib kelgan.

Peloponnes urushi miloddan avvalgi V asrdayoq yuzaga kela boshlagan jarayonni tezlashtirib, xo'jalik tarmoqlarida ishlatilayotgan qullar sonini ko'payishiga olib keldi. Ularning mehnatidan foydalanish hunarmandlar, yuk tashuvchilar va batraklarning ahvoliga halokatli ta'sir ko'rsatib, ularni lyupen-proletariatga aylantirib qo'ydi, o'zining doimiy ishidan mahrum qildi. Ishlab chiqarish ishiga qullarning ishi deb qarash ana shu davrdan keng rasm bo'ldi, buning natijasida esa halol mehnat qilib pul topishga bo'lgan rag'bat susaydi.

Ko'p dehqonlar va hunarmandlar urush harakatlarida uzoq vaqt ishtirok qilishi oqibatida, yer-maydonlar qarovsiz, tashlandiq bo'lib qoldi. Buni quldorlar arzon-garovga sotib olganlar. Boy quldor-plutokratlar ("o'z boyligi bilan kuchlilar") ayni vaqtda ham sudxo'r, ham savdogar, ham yer egasi bo'lganlar.

Miloddan avvalgi IV asrlarda polislarda eski xalq lashkari ham o'z ahamiyatini yo'qotgan. Buning sababi fuqarolar o'rta tabaqasining barham topganligida edi. Chunki ular xalq lashkarlarini asosini tashkil qilar edi. Yollanma askarlar harbiy kuchlarning asosiy turi bo'lib qoldi.

Demak, miloddan avvalgi IV asr davomida polislarining ham iqtisodiy, ham sosial ham harbiy sohalaridagi inqiroz chuqurlashib borgan ekan.

MA'RUZA № 5.

Mavzu: Shimoliy Qora dengiz bo'ylaridagi Yunon shahar-davlatlari

Reja:

1. Shimoliy Qora dengiz bo'ylaridagi mahalliy xalqlar. Yunon mustamlakachiligi.
2. Bospor podsholigi.
3. Skif podsholigi. Olviya, Xersones va Tanais.

Adabiyotlar

1. Яйленко В. П. Греческая колонизация VII-VI вв. до н.э., М., 1982.
2. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 1983.
3. Античная Греция. Под. ред. Е. С. Голубцовой. М., 1983.
4. Бойназаров Ф. "Антик дунё". Тошкент, 1989.
5. Словарь античности. М., 1989.

Tayanch tushunchalar

Skiflar, tavlrlar, meotlar, sindlar, kolxlar. Yunon mustamlakachiligi, Pantikapey, Bospor, Pont, Mitridat IV, Savmak, Skif podsholigi, Olviya, Xersones, Tanais.

Shimoliy Qora dengizi bo'ylari unumdor yer va savdo-sotiq uchun qulay bo'lib, Qadim zamonlarda turli qabila va xalqlar yashaganlar. Uning g'arbida va qisman Qrimda skiflar, Qrimda tavlrlar, Don va Kubanda meotlar, Shimoliy Kavkazda sindlar, Qavkazortida kolxlar, abazglar yashaganlar.

Bu xalqlar dastlab urug'doshlik tuzumida yashaganlar, so'ngra bu tuzum buzilib sinfiy munosabatlar shakllangan. Skiflar, sindlar va kolxlar yunon mustamlakachiligi davrida o'z davlatlarini tuzganlar, meotlar va tavlrlar esa davlatlarini tuza olmaganlar.

Shimoliy Qora dengiz bo'ylari tarixiga oid manbalar - qadimgi mualliflarning asarlari va turli xildagi boshqa yozuvlarda mavjud. Shuningdek miflar (afsonalar)da ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Miletlik Gekatiydan boshlab yunon mualliflari Shimoliy Qora dengiz bo'ylari va Kavkaz haqida yozganlar. Ayniqsa, Gerodot, Strabon va Ptolemey asarlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Shimoliy Qora dengizi bo'ylarida miloddan avvalgi VII asrdan boshlab savdo manzillari tarzida yunon mustamlakalari paydo bo'la boshlagan. Dastlabki manzil Berezan orolida yuzaga kelgan. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab esa yunon mustamlakachiligi uzluksiz tarzda olib borilib, yangi shaharlar qurila boshlagan. Jumladan, Pantikapey, Fanagoriya, Olviya, Dioskuriada shaharlari quriladi. Yunon koloniyalari mahalliy xalqlar madaniyatining ilgarigi manzillarida bunyod qilinganligi arxeologik qazishlar davomida isbotlangan.

Bu o'lkalardagi eng yirik davlat tuzumi Bospor podsholigi edi. Podsholik Kimmeriya Bosporida (Kerch bo'g'ozida) joylashgan shaharlarning birlashuvi natijasida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 480 yilda Pantikapey, Fanagoriya, Mirmekiy, Tiritaka va Taman yarim orolidagi boshqa shaharlar Pantikapey boshchiligidagi birlashib, unga bo'sunib Bospor davlatini yuzaga keltirganlar. Yunoniston va uning mustamlakalari uchun xavfli, Eron bilan urushlar borayotgan bir zamonda mustamlakalar o'zlarining ichki mustaqilliklarini saqlaganlari holda birlashganlar.

Dastlab Bosporni tiranlar idora qilgan, keyinroq ular podsho bo'lganlar. Miloddan avvalgi V asrda Pantikapey garchi Afinani g'alla bilan ta'minlab turgan bo'lsa-da, lekin hali katta iqtisodiy ravnaqqa erishmagan edi. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab, kumush tangalar zarb qilgan Pantikapey iqtisodiy mustaqil bo'lganligini bildirar edi.

Miloddan avvalgi VI asrdan e'tiboran bosporliklarning harbiy yurish va istilochiliklari boshlanib, Nimfey va Feodosiyani bosib oladilar. Sindikani zabt etish boshlanadi.

Davlatni miloddan avvalgi V asrda Arxeanaktiylarning yunon sulolasi, miloddan avvalgi V asr oxiridan boshlab Spartakiylar sulolasi podsholari idora qilgan. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda qishloq xo'jaligi rivojlangan. Qrimning tekislik qismida hamda Shimoliy Kavkazdagi Sindika yerlarida don ekinlari, asosan bug'doy yetishtirilib, o'z ehtiyojini qondirib, hatto Afinaga ham g'alla yetkazib bergan. Bu haqda Demosfen xabar beradi. Don ekinlaridan tashqari mo'l-ko'l meva daraxtlari va tokzorlar bulganligi haqida esa Strabon ma'lumot qoldirgan. Arxeologik mansablarning guvohlik berishicha esa, miloddan avvalgi III asrda Tiritakada vino tayyorlash korxonasi bo'lgan.

Chorvachilik, hunarmandchilik, kulolchilik rivojlangan. Kulolchilik charxi bo'lgan. Metallurgiya yuksak darajada rivojlangan. Mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, qilich va xanjarlar yasalgan. Toshtaroshlik hunari san'at darajasiga ko'tarilgan.

Torevtika (bronza va oltindan taqinchoqlar yasash) va tangalar zarb qilish hunarmandchilikning alohida turi bo'lgan.

Miloddan avvalgi IV-III asrlar Bosporning siyosiy jihatdan ravnaq topgan davrida Kichik Osiyo Yunonistonning orol va materik shaharlari bilan keng savdo-sotiq olib borilgan. Bosporga Pont va Sinopdan zaytun yog'i keltirilgan. Yunoniston vinosi mahalliy aslzodalar o'rtasida mashhur bo'lgan.

Bu zamondagi Bospor podsholigiga Feodosiya, Taman yarim oroli, Qrim yarim orolining butun sharqiy qismi hududlari kirgan. Miloddan avvalgi II asrda Bospor tushkunlikka tusha boshlagan. G'alla savdosi deyarli to'xtagan. Chetdan hatto O'rta dengizning atrofidagi barcha mamlakatlar ham bu zamonda Misrdan g'alla keltira boshlagan (Polibiy).

Bosporning siyosiy va iqtisodiy tushkunligining sababi mahalliy qabilalarning faollashib, Bosporidan ajralib chiqib, hatto unga hujum ham qilishlarida edi. Bu xavfni oldini olish uchun podsho Perisad Pont podshosi Mitridat VI Yevpatordan yordam so'raganligi uchun Savmak boshchiligidagi skif qullar qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar miloddan avvalgi 107 yilda Perisadni o'ldirib, Savmakni podsho deb e'lon qiladilar. Uning bir yilcha podsholidan so'ng Mitridat qo'zg'olonni bostirib, Bosporni ham o'ziga qo'shib olgan.

Qrimda Bospor podsholigi bilan bir qatorda kuchli skif podsholigi ham mavjud edi. Davlatning bosh shahri Skif Neapoli edi. Bu davlat miloddan avvalgi II asrda ravnaq topgan.

Podsho Skilur va uning o'g'li Palak atoqli hukmdorlar edilar. Shu zamonda Skif podsholigi Xersonesga hujum qilib, Bospor davlati uchun xavfli raqibga aylangan.

Shimoliy Qora dengizi bo'ylarida yana Olviya, Xersones yava Tanais singari yirik shahar-davlatlar ham bor edi.

Olviyani miloddan avvalgi VI asrning birinchi yarmida Milet shahridan kelganlar barpo qilgan. Dastlab sof yunon polisi bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yirik markazi bo'lgan. Miloddan avvalgi V-VI asrlarda ravnaq topgan. Shahar markazida Agora qurib bitkazilgan. Davlat demokratik tartibda boshqarilgan. Xalq yig'ini, bule singari boshqaruv muassasalarining mavqei katta bo'lgan.

Miloddan avvalgi I asrda getlarning bosqini bo'lib, ular Olviyani yer bilan yakson qildilar. Lekin shahar asta-sekin qayta qad ko'tardi, ammo oldingi hajmidan kichikroq bo'lib qoldi.

Xersones Qrim va va Kavkazdagi boshqa shaharlardan keyinroq barpo etildi. Uni miloddan avvalgi V asrda Pontiy Gerakleyasi aholisi qurgan. Dastlab savdo va qishloq xo'jalik markazi bo'lgan. Qishloq xo'jaligida asosan uzumchilik bilan shug'ullanishgan. Xersones ham Olviya singari aval sof yunoncha qiyofada bo'lgan. uning atroflarida tavr qabilalari yashab, ular asta-sekin shaharga kirib yashay boshlaganlar, iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayotga ta'sir ko'rsatganlar. Din va ma'budlarga sig'inish sohasida tavlarning ta'siri katta bo'lgan. Xersonesning asosiy ma'budasi Deva aslida mahalliy tavrular ma'budi edi.

Davlat miloddan avvalgi IV asrda ravnaq topgan. Miloddan avvalgi II asrda esa unga Skif podsholigi hujum qilgan. Shu zamonda u Bospor davlati tarkibida edi. Miloddan avvalgi I asrda Yuliy Sezar Xersonesga Elevteriya - to'la mustaqillik in'om etgan.

Tanais yunonlarning eng shimoliy koloniyasi bo'lib, Don daryosi quyiladigan yerda joylashgan edi. Uni miloddan avvalgi III asrda bosporliklar barpo etgan edi. Keyinchalik Tanais mustaqillikka erishdi. Shahar atroflarida mahalliy xalqlar meotlar yashardi. Shu tufayli Tanais aholisi dastlabki paytlardan mahalliy tus olgan edi. Miloddan avvalgi I asrda uni Bospor qo'shinlari vayron qildi. Lekin tez orada qayta tiklangan. Miloddan avvalgi II-I asrlar Tanaisning ravnaq topgan davri bo'lib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo rivojlangan.

Shunday qilib, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab, Shimoliy Qora dengizi bo'ylarida yashayotgan qator xalqlar hayotida ham sinfiy munosabatlar, shaharlar sivilizatsiyasi va madaniyati kirib keldi. Bu jarayonlarda yunonlar katta rol o'ynaydilar. Ularning madaniyati bilan mahalliy xalqlar madaniyati uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat yuzaga keldi.

MA'RUZA № 6.

Mavzu: Klassik davrdagi Yunon madaniyati

Reja:

1. Qadimgi yunon falsafasi
2. Adabiyot va teatr
3. San'at.

Adabiyotlar

1. Геродот "История". М.-Л. , 1972
2. Соболевский С. И. Аристофан и его время. , М. , 1957.
3. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 1986.
4. Античная Греция. Т.1-2. М, 1983.
5. Кун Н. А. Легенды и мифы Древней Греции. М. , 1975.
6. Нейгебауэр О. Точные науки в древности. М. , 1968.
7. Словарь античности. М. , 1989.

Tayanch tushunchalar

Falsafa, Ioniya, Fales, Anaxsimen, Anaxsimandr, Demokrit, Gerodot, Gippokrat, Tragediya, komediya, drama, Gomer, Gesiod, Aristofan, Esxil, Safokl, "Shoh Edip", Akropol.

Qadimgi va klassik zamonlarda tabiat va insonlar faoliyati ustidan olib borilgan kuzatishlarning natijalarini umumlashtirish natijasida falsafiy qarashlar ravnaq topib borgan.

Qadimgi Yunonistonda fanning turli sohalari bo'yicha mashhur olimlar yetishib chiqqanlar. Yunon olimlari Qadimgi Misr, Bobil va Kichik Osiyo xalqlarining bilimlaridan ko'p bahramand bo'lganlar. Qadimgi Sharq fani yunon dunyosida ilm-fanning yanada rivojlanishiga barakali ta'sir etgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlardan boshlab Yunonistonda madaniyat va fan yanada rivojlanib ketadi. O'sha davrda Yunonistonda Gerodot, Demokrit, Protogor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun, Aristotel kabi ulug' olimlar yashab ijod qilganlar.

Miloddan avvalgi VI asrda Kichik Osiyoning g'arbiy sohilidagi Ioniya viloyati va undagi Milet shahri ilm-fan taraqqiyotining markaziga aylangan. Ioniya olimlari Misr va Bobil olimlarining ilmiy bilimlaridan yaxshi xabardor bo'lib, o'sha bilimlarni yanada rivojlantirganlar. Ular tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatib bu hodisalarning sabablarini tushuntirishga harakat qilganlar.

Periklning do'sti Anaksagor materiyaning tuzilishi bilan qiziqqan va uning kelib chiqishiga asos "Olamiy aql" deb hisoblagan. Miloddan avvalgi 460-370 yillarda yashagan Abderalik Demokrit esa butun koinot, narsalar ham eng mayda zarralar - atomlardan iborat degan mashhur ta'minotni yaratdi. ("atom"-yunonchada "bo'linmas" demakdir). Uning fikricha harakat - materiyaning azaliy xususiyatidir.

Mashhur yunon olimlaridan yana biri tabib Gippokratdir. U Kichik Osiyoning janubi-g'arbiy sohiliga yaqin kelgan. Olim Misr, Kichik Osiyo, Liviya va qadimgi skiflar mamlakatiga safar qilgan. Gippokrat o'sha yerdagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlarini bilan tanishgan. Gippokrat tibbiyot bilimi asoslarini otasi Geraklitdan o'rgangan. U mashhur tabib bo'lib, tibbiyotning barcha masalalari bilan shug'ullangan. Gippokrat mashhur tabib bo'lishi bilan birga zamonasining ulug' faylasufi - donishmand ham bo'lgan. U odamlarga mehribon, kamtar odam edi. U o'z shogirdlari bilan birga "Gippokrat to'plami" nomli tibbiy asar yozib qoldirgan. U 72 ta kitob va maqolalardan iboratdir. Gippokrat miloddan avvalgi 375 yili 85 yoshida vafot etgan.

Atoqli yunon faylasuf donishmandlaridan biri Suqrot bo'lib, u miloddan avvalgi 441 yili Afinada tug'ilgan. U o'z umri davomida birorta ham kitob yozmagan. Suqrot maktablarda dars bermagan, ma'ruzalar o'qimagan, balki odam gavjum bo'lgan joylarda o'z shogirdlarini haqiqatni bilishga undagan. Suqrot haqiqatni bilish mumkin emas deb o'ylovchilarga qarama-qarshi, uni bahs-munozara orqali bilinadi deb hisoblardi. O'z qarashlarida odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqib, ularni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratadi. Uning bu fikrlari Afina quldorlik demokratiya tuzumining dushmani sifatida ayblanib, miloddan avvalgi 399 yilda sudga berilgan. Sud uni o'lim jazosiga hukm qilgan. Sud hukmiga muvofiq, u giyohdan tayyorlangan bir piyola zaharni ichib o'lgan.

Yunonistonning ulug' olimlaridan biri Aristotel edi. U Makedoniya podsholari saroyida yashagan tabibning o'g'li bo'lib, miloddan avvalgi 384 yilda tug'ilib, 322 yilda vafot etgan. Sharq dunyosida uni "birinchi muallim" deb baholaganlar, chunki u g'oyat keng bilimga ega bo'lgan ilmiy bilimlarni alohida sohalarga bo'lib chiqqan va mustaqil fanlarga birlashtirgan. U fanlarni turkumlarga bo'lib, ularning har birini botanika, fizika, siyosat va tarix kabi nomlar bilan atagan.

Aristotel o'z zamonasidagi olimlar bilan birga Yer shar shaklida bo'lib, u butun koinotning markazidir, Quyosh va yulduzlar Yer atrofida aylanadi deb hisoblagan. U Makedoniya podshosi Iskandarning ustози ham edi. Aristotel o'z davri va keyingi davrlarning ham eng mashhur olimlaridan biri bo'lib qolgan.

Qadimgi yunon adabiyotining paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yunonlar ajoyib afsona, rivoyat, she'r, doston, tragediya va komediyalar yaratganlar. Yunon baxshilari esa qadimgi afsona va rivoyatlarni og'zaki tarzda avloddan-avlodga yetkazganlar. "Prometey", "Gerakl", "Didal va Ikar", "Argonavtlar", "Odissey" va "Iliada" kabi afsona va dostonlar yunon adabiyotining nodir namunalaridir.

Yunon adabiyotining mashhur asarlari qatoriga "Iliada" va "Odissey" dostonlarini kiritish mumkin. Rivoyatlarga ko'ra bu asarlarning muallifi miloddan avvalgi VIII asrda yashagan ko'r

baxshi Gomer ekan. Dostonlarda yunonlarning Kichik Osiyodagi Troya shahriga qilgan yurishlari, qahramonlarning kurashlari va boshlaridan o'tkazgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

Olimlar uzoq vaqtgacha Gomer dostonlaridagi voqealar o'ylab chiqarilgan afsonalar deb faraz qilganlar. Ular Troya shahari ham bo'lmagan deb o'ylab kelardilar. Ammo arxeolog olimlar Kichik Osiyoning shimoli-g'arbidagi yerlarda qazish ishlarini olib borar ekanlar, u yerdan yog'indan kuyib kul bo'lgan shahar xarobalarini topganlar. Bu yunonlar o'n yildan urush olib borgan Troya shaharining qoldig'i ekan. Olimlar Troya xarobalaridan uy-joylar, mudofaa devorlari, sopol buyumlarining parchalari, yashirinib qo'yilgan narsalar va odam suyaklarining qoldiqlarini topganlar. Bu "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida tasvirlangan Troya shahri edi.

Yunoniston tarixini o'rganishda yunon afsonalari, xususan Gomer dostonlari juda katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda miloddan avvalgi XI-IX asrlar Gomer davri deb bekorga aytilmagan.

Dostonlar she'riy usulda yozilgan bo'lib, tilining boyligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, Gomer dostonlari buyuk adabiy asargina bo'lib, qolmay, ajoyib tarixiy kitob hamdir.

Yunonistonda adabiyot teatr bilan bog'liq suratda rivojlangan. Mualliflar tomonidan yaratilgan har bir adabiy asar teatr sahnasi orqali o'z o'quvchilariga yetib borgan.

Teatr aslida yunoncha so'z bo'lib, "tomoshalar joyi" degan ma'noni bildiradi. Qadimgi yunon teatri ham san'atining bir turi bo'lib, miloddan avvalgi VI asrlarda paydo bo'lgan. Teatr yunon madaniyatining eng ajoyib hodisalardan biridir. Yunon teatri qishloq xo'jaligi homiysi bo'lgan xudo Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida vujudga kelgan.

Dionis bayramlari, toklar barg chiqargan bahorgi ko'klamgi Dionisi va uzum pishgan kuzda - kuzgi Dionisi bayramlari o'tkazilgan. Ko'klamchi Dionisi bizning navro'z, kuzgi Dionisi esa Mehrjon bayramlarimizga to'g'ri keladi. Bayram vaqtida odamlar Dionis haqidagi afsonalarni ashula qilib aytib, afsonalardan olingan manbalarni u yoki bu qiyofaga kirib ijro etganlar. Namoyish ishtirokchilari qiziq-qiziq gaplar aytib, odamlarni kuldirar, ayrim odamlarni masxara qilib ko'rsatishar edilar.

Tomoshani ko'proq odamlar ko'ra olishlari uchun tepalik pastida ko'rsatilgan. Afina va Yunonistonning boshqa shaharlaridagi akropol-qal'a tepaligi pastida tomoshalar ko'rsatilgan. Tomoshabinlar tepalik yon bag'rida o'tirganlar. Aktyorlar pastdagi chodir ichida kiyinib, uning yonida tomoshalar ko'rsatganlar. Bu joy sahna bo'lgan. Keyinchalik chodir o'rniga kichikroq bino qurilib, tomosha ko'rsatish paytida unga dekorasiya - har xil bezaklar osib qo'yilgan. Uning oldida tomosha ko'rsatiladigan joy ham qurilgan. Bu o'rindiqlar avval yog'ochdan, keyin esa toshdan yasalgan. Shu tariqa yunon teatrlari vujudga kelgan. Keyinchalik qurilgan yunon teatrlariga 17-25 ming tomoshabin joylashib, tomosha ko'rgan.

Qadimgi yunon rivoyatlari va afsonalari teatr uchun juda boy ma'lumot bergan. Ana shu afsona va rivoyatlar asosida qadimgi yunon adiblari ajoyib tragediyalar yaratganlar. Hozir tragediya deyilganda oxiri fojea bilan tugaydigan pyesa tushuniladi. Ammo yunonchada bu so'z "echkilar qo'shig'i" degan ma'noni beradi. Tragediyada qatnashuvchilar afsonalardagi qahramonlar bo'lib, asarda ular o'rtasidagi kurash, ularning ko'rsatgan qahramonliklari, azob-uqubatlari va fojeali o'limlari tasvirlanadi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Yunonistonda Esxil, Sofokl, Yevripid kabi juda mashhur shoirlar yashab ijod etganlar. Ularning har biri o'lmas tragediyalar yozib qoldirganlar. Ulardan eng mashhuri Esxil bo'lib, u miloddan avvalgi 525-456 yillar orasida yashagan. U 90 dan ortiq tragediya yozgan. Uning eng mashhur tragediyalari "Zanjirband Prometey" va "Forslar" dir. Esxilni "tragediya otasi" deb ataganlar. Uning "Zanjirband Prometey" tragediyasi boshqa asarlaridan ajralib turadi.

Yana bir ulug' tragediya shoirlaridan biri afinalik Sofokl bo'lib, u miloddan avvalgi 496-406 yillarda yashab ijod etgan. Sofokl ham Esxil kabi 120 dan ko'proq tragediya yozgan. Ammo ulardan yettitasigina bizgacha yetib kelgan. Ular orasida eng mashhuri "Shoh Edip" va "Antigona" tragediyalaridir. "Shoh Edip" tragediyasida shoh Edipning o'z otasini o'ldirib, o'z onasiga uylanishdek og'ir jinoyati tasvirlangan.

Sofoklning "Antigona" tragediyasi ham Yunonistonda shuhrat qozongan. Bu asar ilk bor Afina teatrida namoyish etilgan.

Qadimgi yunon teatrlarida hazil, kulgi, mutoiba ruhida yozilgan pyesalar ham qo'yilgan. Komediya so'zining ma'nosi "xushchaqchaq dehqonlarning qo'shiqlari" demakdir. Qadimgi yunon komediyasining yirik namoyondasi Aristofan bo'lib, u miloddan avvalgi 450-388 yillarda yashab

ijod etgan. U "Tinchlik", "Ayollar xalq yig'ida" va "Suvoriylar" degan mashhur komediyalar yozib, o'z davridagi juda ko'p voqealarni tasvirlaydi. Aristofan o'z komediyalarida Peloponnes urushidan azob chekkan qishloq aholisining mashaqqatli turmushini ham aks ettirgan. Uning komediyalarda xudolar va o'sha zamon odamlari orasidagi ko'p illatlar fosh etilgan. Aristofan komediyalari o'zining o'tkir hajv etishi va zaharxandaliklari bilan ajralib turadi.

Qadimgi yunonlarda me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomchilikning kelib chiqishi Krit-Miken davriga borib taqaladi. San'atning bu turlari asta-sekin rivojlana borib, miloddan avvalgi V asrda o'zining yuqori pog'onasiga ko'tariladi.

Me'morchilik yunon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan. Yunonlar ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolariga alohida e'tibor berganlar. Dastlab bu binolar yog'ochdan oddiy doriy uslubida qurilgan. Imoratning ustunlari tagkursiga emas, balki yerga o'rnatilgan. Keyinchalik binolarga toshdan, xususan marmar toshlardan qilingan ustunlar ishlatilgan. Bunday ustunlar kuchli erkak kishining yo'g'on gavdasiga qiyoslangan. Ba'zi binolarning ustunlari nozik, xushbichim bo'lib, yuqori qismi qo'chqorning gajak, qayrilma shoxlariga o'xshagan. Ularga nafis naqshlar berilgan. Bunday ustunlar ioniya uslubidagi ustunlar deyilgan. Ularni xushbichim ayol gavdasiga qiyoslaganlar.

Yunonlar ibodatxona, agora, gimnaziya, teatr va boshqa jamoat binolariga ham alohida e'tibor berganlar. Ibodatxonalarda davlat boyligi-xazinasi saqlanib, shahar aholisining bayram tantanalari shu yerda o'tkazilgan.

Afrikadagi Parfenon, Zevs ibodatxonalari, Afina akropoli va boshqa binolar jahon me'morchiligining eng noyob yodgorliklaridan hisoblanadi.

San'at turklaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik ham miloddan avvalgi V-IV asrlarda ravnaq topdi. Haykallar dastlab yog'ochdan, keyin esa jez va marmar toshdan yasalgan.

Yunon ustalari Zevs, And, Afina, Appalon, Dionis, Artemida, Germes, Gefest kabi xudo va ma'budalarning haykallarini, Gomer, Gerodot, Solon, Femistokl, Perikl va Demokrit kabi tarixiy shaxslarning byustlarini ham jozibali qilib ishlaganlar.

Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi V asrlarda Miron, Poliklet va Fidiy kabi mashhur haykaltaroshlar yashab ijod etganlar. Mironning "Disk otayotgan yigit", "Afina bilan Marsiy" degan haykallari jonli harakatli holatda ishlangan.

Argoslik Polikletning "Nayzabardor" va "Diodumen" kabi haykallari ham mashhurdir. Me'mor va haykaltarosh Fidiy o'z zamonasining mashhur ustasi edi. ning Parfenondagi oltin, yog'och va fil suyaklaridan ishlangan 12,5 metrlik ma'buda – Afinaning tik turgan holatdagi haykali juda mashhurdir. Fidiy yunon xudosi Zevsning Olimpiyada taxtida o'tirgan vaziyatdagi haykalini ishlagan. Ayni paytda Fidiy asarlari bilan Parfenon ibodatxonasi bezatilgan.

Haykaltarosh Praksitel esa ma'budlar va ma'budlarni yigit va yosh qiz-juvonlar qiyofasida tasvir etgan. Uning Dionis bilan o'ynab turgan Germes asari diqqatga sazovordir.

Rassomchilik san'ati ham Yunonistonda juda erta vujudga kelgan. Bunga Krit-Miken davriga mansub bo'lgan odam, hayvon va turli bezaklarning rasmlari misol bo'la oladi. Qadimgi yunonlar ham narsa va hodisalardan zavqlanadigan kishilar edi. Ular xilma-xil kulolchilik buyumlari, ko'rkam, nafis va bejirim ko'zachalar va vazalar yasashda tengi yo'q ustalar edilar.

Miloddan avvalgi VII-VI asarlarda yunonlar qizg'ish rang sopol ustiga qora lak bilan turli bezaklar chizilgan idishlar ishlab chiqarganlar. Bular qora gulli ko'za va vazalar bo'lib, ular Yunoniston va undan tashqarida ham mashhur bo'lgan.

Ammo miloddan avvalgi V asrga kelib ko'za va vazalar qora rangga bo'yalgan. Bezak va shakllar uchun sopolning tabiiy qizil rangi saqlanib qolingan. Bunday vaza va ko'zalar qizil gulli ko'zalar deb nom olgan.

Din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, e'tiqod, ishonch degan ma'nolarni bildiradi. Uning kelib chiqishi kishilikning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Dastlab yunonlarda ibtidoiy din shakllari - totemizm, animizm va fetishizm kuchli bo'lgan. Ibtidoiy jamoadan tabaqaviy jamiyatga o'tish davrida yunonlarning diniy tasavvurlari o'zgara borgan. Yunon dunyosida har bir narsa, hodisa va kasb-korning o'z xudolari-homiylari, ya'ni ma'bud va ma'budalari bor deb o'ylaganlar. Bu ko'p xudolikning ko'rinishlaridan biri edi.

Afsonalarda juda ko'p yunon xudolarining nomlari tilga olingan. Yunonlarning eng mashhur xudolari Zevs, Poseydan, Aid, Appolon, Artemida, Afina, Germes, Gefest, Dionis, Afrodita va boshqalardir. Yunonlar har bir narsaning o'z xudosi va homiylari bor, deb hisoblaganlar. Ular

tabiatning hamma yerida yashab, uni boshqarib turar ekanlar. Yunonlar o'z xudolarini o'lmaydigan, kuchli kelishgan va juda chiroyli odamlar qiyofasida tasavvur etganlar.

MA'RUZA № 7.

Mavzu: Makedoniyalik Aleksandr davlatining vujudga kelishi va parchalanishi.

Reja:

1. Makedoniyaning Yunoniston ustidan hukmronligini o'rnatilishi.
2. Iskandarning sharqqa yurishi.
3. Turon va Hindistonga yurish. Iskandar davlatining parchalanishi.

Adabiyotlar

1. Арриан. "Поход Александра". М., 1963.
2. Бойназаров Ф. "Антик дунё". Тошкент, 1989.
3. Шофиан А. С. "Распад империи Александра Македонского". М., 1984.
4. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 1986.
5. Словарь античности. М., 1989.

Tayanch tushunchalar

Makedoniya davlati, Makedon armiyasi, Filipp II, Korinf kongressi, Ellinizm tushunchasi, Fivaga yurish, Iss jangi, Misrga yurish, Mesopotamiyaga yurish, Gavgamel, Turon va Hindistonga yurish, Spitamen.

Makedoniya Bolqon yarim orolining shimolida joylashgan qadimiy o'lkalardan biridir. U juda qulay geografik o'ringa ega bo'lib, tog'lik va tekislik qismlarga bo'linadi.

Miloddan avvalgi VI asr oxiri - V asr boshlarida Makedoniyada dastlabki tabaqalanishi va ilk davlat qaror topgan. Yunoniston-Eron urushlari davrida Makedoniya podsholari Eron ta'siriga o'tib qolgan edi. Eronliklar Yunonistondan quvilgach, Makedoniya 1-Afina ittifoqi safiga kiradi. Makedoniya Aleksandr va uning vorisi Arxelay davrida birmuncha mustahkamlanadi. U dengiz bo'yidagi yangi poytaxt - Pellaga asos solgan. Arxelay Xalkidika yarim oroli va Fessaliyaning ba'zi joylarini Makedoniyaga qo'shib olgan. Arxelay o'ldirilgach, vorislari uning ishini davom ettirgan. Bu sohada Filipp II ning xizmatlari kattadir. U Makedoniyani kuchli davlatga aylantirishga harakat qilgan.

Miloddan avvalgi 359 yilda Makedoniya taxtiga Filipp II o'tiradi. U qator islohotlar o'tkazib, Makedoniya davlati va qo'shinlarini ancha kuchaytiradi. Piyoda va otliq askarlardan iborat muntazam qo'shin tuzadi. Filipp II dehqonlardan piyoda qo'shinga jangchilar oladi. Joylardagi hokim aslzodalardan otliq qo'shin tuzadi. Filipp II qo'shinda qattiq intizom o'rnatib, ularni harbiy ta'limdan o'tkazadi. U urush oldidan piyoda askarlarni falanga-falanga qilib saflagan, otliq askarlar esa qo'shinning orqa va har ikki yon tomoniga joylashtirilgan.

Makedon askarlar xanjar, 2-6 metr dan iborat nayza, qalqon dubulg'a va zirxli kalta harbiy kiyim bilan qurollantirilgan. Filipp II kumush tangalar bilan bir qatorda oltin tanga zarb etib, uni "filippik" deb ataydi.

Filippning harbiy va pul islohotlari Makedoniya davlatini ham iqtisodiy, ham harbiy tomondan mustahkamlaydi. Makedoniya podshosi o'z saltanatini kuchaytirib olgach, urushlar natijasida zaiflashib qolgan yunon shahar-davlatlarini birin-ketin bosib ola boshlaydi. Yunonistondagi quldorlarning bir qismi Filipp II ning hokimiyatini bajonu-dil tan oladilar. Chunki ular o'z boyliklar va mulklarini vatan mustaqilligi va ozodligidan afzal ko'rar edilar.

Filipp II ning Yunonistonni butunlay o'ziga qaratib, olish niyatida edi. Shuning uchun u dastlab Fessaliyani ishg'ol qiladi. U shu yerdan turib, O'rta Yunonistonni bosib olishni ko'zda tutadi. Fiva va Afina xavf ostida qoladi. Makedoniyaga qarshi Afinada, Fiva, Korinf Megara va

boshqa shahar-davlatlardan iborat harbiy ittifoq tuziladi. Uning g'oyaviy rahbari ajoyib notiq Demosfen edi. U o'zining otashin nutqlarida Filipp II ning bosqinchilik siyosatini fosh qilib yunonlarni o'z ozodligini qattiq turib himoya qilishga chaqiradi. Miloddan avvalgi 338 yili Makedoniya qo'shinlari Beotiyaga bostirib kiradi. Shu yili Filipp II qo'shinlari yunon shaharlarining birlashgan qo'shini bilan Xeroniya shahri yonida uchrashadilar. Bu jangda Demosfen afinaliklar qatorida oddiy jangchi bo'lib jangga kiradi. Bu jang shiddatli bo'lib, ancha vaqt davom etadi. Avval boshda ittifoqchilar Makedoniya qo'shinlarini siqib borishga muvaffaq bo'ladilar, hatto chekintiradilar. Jangda Filipp II ning 18 yoshli o'g'li Iskandar rahbarligidagi otliq qo'shinning kirishi urush oqibatini makedoniyaliklar foydasiga hal qiladi. Jang Makedoniya qo'shinlarining porloq g'alabasi bilan yakunlanadi. Xeroniya yonidagi jangdan keyin butun Yunoniston Makedoniyaga itoat etishga majbur bo'ladi. Zamondoshlardan birining iborasi bilan aytganda: "Xeroniya yonida xalok bo'lganlarning jasadlari bilan birga yunonlarning ozodligi ham ko'miladi".

Filipp II Xeroniya jangidan keyin yunon shahar-davlatlarini xonavayron qilmay, ularni erkin deb e'lon qiladi. U miloddan avvalgi 337 yili Korinfda yunon shaharlarining kongressini chaqiradi. Bu kongressda Spartadan boshqa barcha shahar davlatlar ishtirok etadilar. Ular kongressda tinch-totuv yashash, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik va o'zaro urush olib bormaslik to'g'risida bir qarorga kelganlar. Ayni paytda barcha yunon shaharlari Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rishlari lozim edi. Korinfda Filipp II Makedoniya va shahar, davlatlar qo'shinlarining bosh sarkardasi qilib tayinlangan. Shu tariqa u Eronga qarshi harbiy yurish qilishga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Urushga qizg'in tayyorgarlik ketayotgan bir vaqtda Filipp II o'z qizining to'yida fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Bu voqea miloddan avvalgi 336 yilda sodir bo'lgan. Fitna kim tomonidan uyushtirilgani ma'lum emas. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Filipp II eronliklar qutqusi bilan o'ldirilgan deyiladi.

Filipp II vafotidan so'ng taxtga uning 20 yoshli o'g'li Iskandar o'tiradi. Keyinchalik u butun sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Zamondoshlarning aytishicha, u serg'ayrat, jasur, bilimdon ayni paytda shavqatsiz va jahldor odam bo'lgan.

Filipp II vafotidan keyin ko'pgina yunon shaharlari Fiva, tog'li Frakiya, Illiriya qabilalari Makedoniyadan ajralib keta boshlaydi. Ba'zi joylarda qo'zg'olonlar boshlanadi. Iskandar mana shu parokandalikning oldini olishga kirishadi. Miloddan avvalgi 335 yilda ajralib ketgan tog'li Frakiya va Illiriya qabilalari ustiga yurib ularni yana itoat etishga majbur qiladi. Shimol yurishidan qaytgach, u qo'zg'olon ko'targan Fiva ustiga qo'shin tortadi va shaharni vayron qiladi, aholisini qul qilib sotib yuboradi.

Fivadagi dahshatli urush boshqa yunon shahar davlatlarini cho'chitib yuboradi. Ular Makedoniyaga itoat etishlarini izhor qiladilar. Iskandar Afina ustiga yurish qilmaydi. Chunki uning ustozlari Aristotel afinalik bo'lib, u o'z shogirdi diliga yunon madaniyatiga va uning markazi Afinaga hurmat bilan qarash hissini joylagan edi. Iskandar Afinaga borganda hamma uni to'la itoat bilan kutib oladi. Iskandarning bu yurishlari Yunonistonda uning mavqeini ko'taradi.

Iskandar Yunonistonni o'ziga qaytadan itoat ettirgandan so'ng sharq yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. U miloddan avvalgi 334 yilda 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar va harbiy dengiz kuchlaridan iborat katta qo'shin bilan Gelleopond bo'g'ozidan kechib o'tadi. Tog'li Granik daryosi bo'yida Iskandar qo'shinlarini eronliklarning otliq va piyoda askarlari kutib turardi.

Kech kirishiga qaramay, boshlangan qattiq jangda Iskandar qo'shinlari g'alaba qilib, ularni Kichik Osiyoning ichkarisiga yurish uchun yo'l ochiladi.

Bu g'alaba Iskandarga Kichik Osiyoning ichkarisini bosib olish uchun imkoniyat yaratadi. Uning qo'shinlari Kichik Osiyo sohili bo'ylab janub tomon yuradilar. Eron shohi Doro III yunonlardan bo'lgan Memnonni qo'shiniga bosh qo'mondon qilib tayinlaydi. U Miletni mustahkamlashga kirishadi. Lekin u to'satdan vafot etadi. Milet sabot-matonat bilan mudofaa qilinadi. Biroq ham quruqlikdan, ham dengizdan qamal qilinib, ishg'ol qilinadi.

Miloddan avvalgi 333 yilda Iskandar Kichik Osiyo markazidagi Kappadokiyaning ishg'ol qilib, qishni o'sha yerda o'tkazadi. Shu vaqtda Eron qo'shinlari Iskandar tomon yo'l oladilar. Iskandar o'z qo'shinlarini Kilikiyaga olib o'tib, Tars shahrini ishg'ol qiladi va Suriyaga qo'shin tortadi.

Iss Kilikiyaga shaharlaridan biri bo'lib, dengiz bo'yida joylashgan edi. Miloddan avvalgi 333 yilda Eron va Makedoniya qo'shinlari shu shahar yonida uchrashadilar. Eron sarkardalari Doro III ga Iskandar qo'shinlari tor daradan chiqib olgandan keyin hujum boshlaylik, deb maslahat

beradilar. Shoh esa buning aksini qilib, Eron otliqlari va jang aravalari uchun qulay bo'lgan tog' darasida jang qilishni buyuradi. Har ikki o'rtada qattiq jang boshlanadi. Jang Iskandar qo'shinlarining g'alabasi bilan tugaydi. Eronliklar chekinishga majbur bo'ladilar.

Issdagi g'alabadan keyin Iskandar Suriya va Finikiya ustiga qo'shin tortib, sohil bo'yidagi ko'r shaharlarni istilo qiladi. Ammo dengiz bo'yidagi Tir shahri dushmanga yarim yil qarshilik ko'rsatadi. Makedoniya qo'shinlari shaharni quruqlikdan ham dengizdan ham qamal qiladilar. Og'ir janglardan keyin yunonlar taran va palaxmonlar bilan Tir shahri devorlarini buzib, shaharga bostirib kiradilar. Shaharda jang davom etadi, ko'p qon to'kiladi. Juda katta qiyinchiliklar bilan shahar qo'lga kiritiladi. Yunonlar unga o't qo'yadilar, boyliklarini talaydilar. 30 mingdan ortiq shahar aholisi qul qilib sotiladi. Shundan so'ng Iskandar Finikiya va Falastindagi ko'pgina shaharlarni birin-ketin bosib oladi.

Iskandar Falastin va Finikiyani istilo qilgach, miloddan avvalgi 332 yilda Misrga qo'shin tortadi. Uning maqsadi Eron tasarrufida bo'lgan Misrni ham istilo qilish edi. Misrliklar va u yerdagi Eron satrapi Iskandar va uning qo'shinlarini tantanali ravishda kutib oladilar va uni fir'avn deb e'lon qiladilar.

U Misrdan qaytish oldidan O'rta yer dengizi qirg'og'i Nil deltasida Iskandariya shahrini barpo qiladi. Shahar qat'iy reja asosida qurilgan bo'lib, unda bir-birini kesib o'tuvchi katta ko'chalar barpo qilingan edi. Bu shahar o'sha davr va keyinchalik Sharq, Yunoniston va Rim dunyosi uchun juda katta siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyat kasb etgan.

Misr olingandan so'ng Doru III yunon-makedonlar bilan Shimoliy Mesopotamiyadagi Gavgamel degan joyda jang qilish uchun tayyorgarlik ko'rdi. Bu jang miloddan avvalgi 331 yil bahorida bo'lib o'tdi.

Doru III Iskandar qo'shinlarini qurshab olish maqsadida o'z otliq askarlarini keng tekislikka joylashtiradi. U dastlab jangovar aravalarni ham ishga soladi. Makedoniya jangchilari ikki tomonga surilib, shiddat bilan kelayotgan jang aravalarini o'z saflari orasidan o'tkazib yuboradilar va ularga kamondan o'q yog'dirib ko'pchiligini qirib tashlaydilar. Doru III ning jangovar fillari ham forslarga g'alaba keltirmaydi. Gavgamel yonidagi jang goh makedoniyaliklar, goh eronliklarning ustunligi bilan kechgacha davom etgan. Jangning oxirlarida Iskandar o'zi boshliq otliq qo'shin bilan Eron qo'shinlarining o'rtasiga yorib kirgan. Shoh Doru III ning o'zi ham shu yerda turar edi. Iskandar qo'shinlarining shiddatli hujumi natijasida Doru III ning qo'shinlari chekinishga majbur bo'ladi. Doru III jang maydonini tashlab qochadi.

Gavgamel g'alabasidan so'ng Iskandar qo'shinlari birin-ketin Suzani, Bobilni va Eronning poytaxti Persepolni ham egallaydilar va juda ko'p boyliklarni qo'lga kiritadilar. Makedoniyaliklar Persepolida qishlab, miloddan avvalgi 330 yilda butun Eronni egallashga muvaffaq bo'ladi. Doru III Turon tomonga qarab chekinadi. U chekinib borayotgan vaqtda Bess uni ushlab olib o'ldiradi va jasadini yo'lga tashlab ketadi. U o'zini Artakserks IV nomi bilan Eron shohi deb e'lon qiladi.

Iskandar Bessni ta'qib qilib, So'g'diyonadagi Navtaka degan joyda uni qo'lga tushiradi va qatl ettiradi. Shu bilan ulkan Eron davlati tugatiladi. Iskandar Turonga bostirib kirib, uni egallashga kirishadi. Turonliklar dushmanga qarshi ayovsiz jang qiladilar. Iskandar qattiq janglardan so'ng Navtaka, Marokand va Kiropol kabi shaharlarni bosib oladi.

Iskandar uzoq vaqt mobaynida erksevar so'g'dliklar, baqtriyaliklar va shaklarga qarshi kurash olib boradi. So'g'd xalqining erksevar farzandi spitamen makedoniyaliklarga qarshi ayovsiz va tinimsiz kurash olib boradi. Ammo vatan xoinlari Spitamenga xiyonat qilib, uni o'ldiradilar. Iskandar So'g'ddagi yuzlab qishloq, o'nlab shaharlarni vayron qiladi va o't qo'yadi. Necha yuz ming tinch aholi qirib tashlanadi. Uch yillik jangu-jadaldan so'ng bir guruh sotqinlarning xiyonati tufayli Baqtriya va So'g'diyona Iskandarga bo'sundiriladi.

Iskandar Baqtriya bilan So'g'diyonani itoat ettirgach, miloddan avvalgi 227 yilda Hindikush tog'laridan oshib Hindistonga bostirib kiradi. Bu davrda Sind vohasi va Panjob viloyatida bir necha mayda davlatlar bor edi. Iskandar Panjobdagi mayda podsholarning bir qismini o'ziga ag'darib oladi. Ammo podsho Por Iskandar bilan qattiq kurash olib boradi. Sind vohasi ko'p qonli janglar bo'ladi. Nihoyat Gidasp yonidagi jangda Iskandar qo'shinlari hindlar ustidan g'olib chiqadi. Sind vohasi va Panjob yunonlarga bo'sundiriladi.

Miloddan avvalgi 325 yildan boshlab yunon-makedonlar Hindistonni tark etib orqaga qayta boshlaydilar. Markazi Bobil bo'lgan Iskandar saltanati miloddan avvalgi 323 yilda Jahongirning o'limidan so'ng uning harbiy sarkardalari o'rtasidagi toj-taxt talashlari natijasida bo'linib ketadi.

MA'RUZA № 8.
Mavzu: Ellin davlatlari

Reja:

1. Salavkiylar davlati.
2. Yunon-Baqtriya podsholigi.
3. Ellin davri madaniyati.

Adabiyotlar

1. Шофман А.С. «Распад империи Александра Македонского». М., 1984.
2. Ранович Б.А. «Эллинизм и его историческая роль». М., 1950.
3. Арриан «Поход Александра». М., 1963.
4. История Древней Греции. Под ред. В.И. Кузищина. М., 1986.
5. Словарь античности. М., 1989.
6. Сагдуллаев А. «Оловли ылар». Тошкент, 1993.

Tayanch tushunchalar

Ellin davri, I. Drayzen, Salavka I, satrapliklar, xo'jalik taraqqiyoti, Yunon-Baqtriya, Deodod I, Zariasp, Arshak, Yevtidem I, Antiox III, Demetriy, Yevkradit, Geleokl, Koyne, Kosmopolitizm, Individualizm, Arximed parragi, gelepol, museyon, stoiklar va Epikurchilar.

Iskandar boshliq yunon-makedoniyaliklar istilosidan keyingi 300 yillik davr Ellin davlatlari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ellin davlatlari tarkibiga Yunoniston, Makedoniya, Misr, Eron, Turonning janubiy viloyatlari va O'rta yer dengizining sharqidagi mamlakatlar kirgan. Bu davlatlar Iskandar vafotidan boshlab miloddan avvalgi 30-yillarga qadar umr ko'rgan.

«Ellinizm» atamasini bundan 130 yilcha oldin nemis tarixchisi I. Drayzen ishlatgan edi. Bu davr qadimgi yunon va qadimgi sharq iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning qo'shilib isitishi va bir-biriga ta'sir ko'rsatishi davridir.

Turon o'lkasidagi janubiy viloyatlarga ham ellin madaniyati kuchli ta'sir etgan. Ayni paytda o'lkamizning qadimgi madaniyati ham ellin madaniyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Iskandar vafotidan keyin u istilo etgan o'lkalarda Ptolemeylar, Salavkiylar, yunon-Baqtriya, Pergam podsholiklari, Makedoniya va Yunoniston kabi davlatlar qaror topadi.

Iskandar vafotidan so'ng Misrda Ptolemey va ptolemeylar boshqargan kuchli ellin davlati qaror topadi. Ptolemey Iskandarning mashhur lashkarboshlaridan biri edi. Shuning uchun davlatning nomi ham Ptolemeylar podsholigi deyilgan. Bu podsholikka Afrika shimolidagi Kirenaika, Kipr oroli, Janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy va g'arbiy sohilidagi joylar, yunon shaharlari va Egey dengizidagi ayrim orollar ham kirgan. Bu o'lkalar o'z mahalliy boshqarmasini saqlab qolgan bo'lsalar ham ptolemey tayin etgan noiblarning nazorati ostida ish olib borganlar. Ptolemeylar quruqlikda hamda dengizda kuchli qo'shinga ega bo'lib, quruqlik va dengizdagi yo'llarni nazorat qilib turganlar.

Ptolemeylar podsholigi salavkiylar bilan olib borilgan tinimsiz urushlar natijasida kuchsizlanib qolgan. Miloddan avvalgi 30 yilda ptolemeylar mulki hisoblangan Misr Rimga qo'shib olingach, podsholik o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Salavkiylar davlati Yaqin va O'rta Sharqdagi eng yirik ellin davlati edi. Unga Iskandar tuzgan davlat inqirozga uchragach, Bobur satrapligining hukmdori Salavka I Nikator (350-280) tomonidan asos solingan. U ham Iskandarning do'sti va sarkardalaridan biri edi. Salavka va Salavkiylar davlati kuchaygan vaqtda Persida, Midiya, Suriya va Kichik Osiyoning katta qismi podsholik tarkibiga kirgan. Saltanat boshida podsho turib, joylardagi satrapliklarni strateglar boshqarganlar. Salavkiylar podsholigi o'sha davrdagi eng kuchli quldorlik davlati edi.

So'nggi salavkiylar davrida bu davlat kuchsizlanib, miloddan avvalgi 190 yilda rimliklar bilan bo'lgan urushda yengilib, ko'p viloyatlaridan ajraladi. Rim imperiyasi kuchaygach, miloddan avvalgi 64 yilda Salavkiylar podsholigining g'arbiy qismini o'z viloyatiga aylantiradi.

Salavkiylar podsholigi kuchaygan vaqtda uning xo`jaligi ancha rivojlanadi. Daryo va soy bo`ylaridagi yerlarda dehqonchilik, bog`dorchilik, dasht va tog` yaylovlarida esa chorvachilik ancha taraqqiy etgan. Salavkiylar podsholigining kuchaygan davrida sharqdan g`arbga va shimoldan janubga o`tdigan savdo-tijorat yo`llari podsholikka qarar edi. Shuning uchun bu yerda savdo rivoj topib, shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ravnaq topadi.

Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida Salavkiylar podsholigining sharqiy viloyatlari podsholikka itoat etishni istamay, unga qarshi qo`zg`olon ko`taradilar. Bundan foydalangan ayrim yunon noiblari mahalliy oqsuyak zodagonlarga tayanib, o`zlarini mustaqil podsho deb e`lon qiladilar. Xususan, salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Deodod I miloddan avvalgi 250 yilda o`zini Baqtriya podshosi deb e`lon qiladi. Davlat ishlariga mahalliy kishilar ham jalb qilinadi. Shuning uchun bu davlat bu davlat Yunon-Baqtriya nomi bilan atalgan. Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga Baqtriya, So`g`diyona, Marg`iyona, Choch, Davon, Sharqiy Eron ham kirgan edi. Podsholikning bosh shahri va poytaxti Zariaspi edi.

Yunon-Baqtriya podshosi Deodod I Parfiyani o`z podsholigiga qo`shib olish maqsadida Salavka podshosi bilan ittifoq ham tuzgan. Ammo bu ittifoq kutilgan natijani bermagan. Keyinchalik Parfiyaning kuch-qudrati oshib ketgach, Deodod I ning o`g`li Deodod II Parfiya shohi Arshak II bilan ittifoq tuzib salavkiylarga qarshi kurash olib borgan.

Deodod I va Deodod II lar davrida Yunon-Baqtriya davlati ancha kuchayadi. Ilgari Baqtriyaga tobe bo`lgan So`g`diyona noibi Yevtidem I ham Yunon-Baqtriya podsholigini qo`lga kiritish niyatida edi. Miloddan avvalgi 230 yilda Yevtidem I Deodod II ni Yunon-Baqtriya taxtidan ag`darib, taxtni o`zi egallaydi.

Miloddan avvalgi 208-206 yillarda Salavka podshosi Antiox III Turon va Sharqiy Erondagi satrapliklarni qaytarib olish uchun shiddatli kurash olib boradi. Miloddan avvalgi 208 yili Antiox III qo`shinlari Tajan (Oh) daryosining quyi oqimidagi joyda Yevtidem I ning o`n ming kishidan ortiq qo`shinini mag`lubiyatga uchratadi. Yevtidem I chekinib Zariaspi qal`asiga yashirinadi va uni qattiq himoya qiladi. Antiox III qo`shinlari qal`ani 2 yil qamal qiladilar. Miloddan avvalgi 206 yilda Antiox III bilan Yevtidem I o`rtasida sulh shartnomasi tuziladi. Antiox III Yevtidem I ning shohligini tan olishga majbur bo`ladi.

Yevtidem I va uning o`g`li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya podsholigi kuchayadi. Yunon-Baqtriya podsholari o`z tasvirlari tushirilgan oltin va kumush tangalar zarb etganlar. Miloddan avvalgi 190-180 yillarda Seyistondan Sind daryosigacha bo`lgan joylar Yunon-Baqtriya podsholigiga qo`shib olinadi.

Miloddan avvalgi 175 yilda Demetriy Hindistonda jang olib borayotgan vaqtda uning sarkardasi Yevkradit qo`zg`olon ko`tarib, Yunon-Baqtriya taxtni egallaydi. Demetriy hokimiyatini qaytarib olish uchun bo`lgan janglarning birida halok bo`ladi. Shundan keyin bir butun Yunon-Baqtriya podsholigi ikkiga bo`linib ketadi. Birinchisi g`arbiy viloyatlarni o`z ichiga olgan Yunon-Baqtriya davlati bo`lib, uni Yevkraditning vorislari boshqaradilar. Ikkinchisi poytaxti Sakala bo`lgan Yunon-Hind davlati bo`lib, u Panjob viloyatini o`z ichiga olgan. Uni Demetriy va uning vorislari boshqarganlar. Miloddan avvalgi 162 yilda Yevkradit qo`shinlari Panjobni bosib oladilar. Ammo ko`p o`tmay Yunon-Hind shohi Menandr Yevkradit qo`shinlarining hujumini qaytaradi.

Shu davrda Parfiya podshosi Mitridat I Yunon-Baqtriyaning g`arbiy viloyatlarini bosib oladi.

Miloddan avvalgi 160 yilda Yevkradit bilan o`g`li Geleokl o`rtasida nizo chiqib, Yevkradit o`z o`g`li tomonidan o`ldiriladi. Geleokl davrida Yunon-Baqtriya podsholigi kuchsizlanib, uning ixtiyorida faqat Baqtriyagina qoladi. Miloddan avvalgi 140-130 yillarda Sharqiy Turkiston va Turondan bostirib kirgan sak qabilalari va yuz-chjilarning shiddatli hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag`darib tashlanadi. Keyinchalik bu yerda Kushon podsholigi tashkil topadi.

Shu tariqa 200 yilcha davom etgan Yunon-Makedoniya hukmronligiga barham beriladi. Yunon-Baqtriya davlati Turon va Eron xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga egadir. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida quldorlik rivoj topib, shahar va qishloqlar ancha yuksaladi.

Bu yerda qishloq xo`jaligi va chorvachilik ham ancha ravnaq topadi. Hunarmandchilik, zargarlik, haykaltaroshlik, tasviriy san`at, me'morchilik, to`qimachilik ham juda yaxshi rivojlanadi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, Yunon-Baqtriya podsholigi Turon, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlar bilan qizg`in savdo-sotiq ishlarini olib boradi. Bu davrda mahalliy xalqlar

bilan yunonlar madaniyatining o'zaro ta'siri natijasida o'lkada ellin madaniyati qaror topib rivojlanadi.

Ellinizm davri madaniyati murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ayrim mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaydi, ko'plab harbiy yurishlar natijasida Sharq bilan tanishish yunonlar va makedonlarning bilim doirasini kengaytirdi.

Ellin madaniyati uchun harakterli narsa uni yunoncha tus olganligida edi. Hukmron sinf va aslzodalar orasida umumyunon tili koyne («umumiy» demakdir) keng tarqaldi. Koyne bilan birga mahalliy tillardan ham foydalanish davom etgan.

Miloddan avvalgi IV asrda yunonlar orasida «Kosmopolitizm» («dunyo fuqaroligi») dunyo qarashi shakllandi. O'zi tug'ilib o'sgan yurtidan o'zga joylarda yurgan kishilar uchun boshqa kishilar madadiga ishonmay faqat o'zigagina ishonish kayfiyati asosida individualizm, istiqbolga umidsizlik bilan qarash psixologiyasi asosida esa fatalizm dunyo qarashlari shakllandi.

Bu zamonda texnika ancha rivojlandi. Sharq va yunon tajribasining o'zaro ta'siri natijasida texnika sohasidagi yutuqlar yanada boyidi. Arximed Misr charxpalagini takomillashtirib, «Arximed parragi» ni yaratdi. Harbiy sohada ham tosh otar to'plar yaratilgan. Qal'alarni qamal qilish uchun esa maxsus g'ildiraklar ustida o'rnatilgan harakatlanuvchi minoralar gelepolarlar – «shahar olarlar» ixtiro qilingan. Dengizchilikda musson shamollaridan foydalanib, uzoq safarlarga chiqish boshlangan.

Miloddan avvalgi II asrda Yunon Gippal Hindistonga borish uchun kema safariga chiqib, musson shamollaridan foydalandi. Portlarda mayoqlar, omborlar va boshqa binolar qurildi.

Arxitekturada ham muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Klassik davrda yunon arxitekturasida asosiy bino **Peripter** –ibodatxona bo'lsa, endilikda asosiy bino **Peristel** – xususiy uy bo'lgan. Shaharlar odatda reja asosida quriladigan bo'lgan.

Quldorlik jamiyati sharoitida arzon mushak kuchlarining mavjudligi ishlab chiqarishda mexanik vositalarni, mexanik dvigatellarni ishlatish yo'llarini qidirishni susaytirib qo'yar edi.

Miloddan avvalgi I asrda Pont podsholigida ixtiro qilingan suv tegirmoni butun ellinizm davrining eng katta texnik yutug'i edi. Fan sohasida ham bu zamonda ajoyib yutuqlar qo'lga kiritildi. Poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Iskandariya, Pergam, Antioxiya, Afina eng yirik ilmiy markazlar edi. Iskandariya kutubxonasida 700 ming popirus o'ramidan iborat boy kitoblar fondi bor edi. Saroy qoshida kutubxonadan tashqari Museyon – ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun yotoqxona ham bor edi.

Falsafada stoiklar va epikurchilar oqimlari yuzaga keldi. Stoiklarning asoschisi Zenon (miloddan avvalgi IV-III a.) Afina agorasida naqshin peshayvon stoya ostida va'z aytib ta'lim berganligi uchun shunday nomlangan. Ularning fikricha hamma narsa – fikr, so'z, olov ... hammasi jismdir. Butun olam uzluksiz yonib, turadigan olovdir, deydi ular.

Epikur (miloddan avvalgi IV-III a.) ta'limoti asosida uning izdoshlari epikurchilar deyilgan. Ular Zenoncha qarama-qarshi o'laroq olamning tuzilishini Demokritning atom nazariyasiga asosan izohlaydilar.

MA'RUZA № 9.

Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga muqaddima. Tarixiy manbalar

Reja

1. Qadimgi Rim tarixiga kirish. Rim tarixini davrlashtirish.
2. Qadimgi Italiyaning geografik o'rni va aholisi.
3. Qadimgi Rim tarixining asosiy manbalari.

Adabiyotlar

1. История Древнего мира. Расцвет древних обществ. Под.ред. И.М. Дьяконова и др., М., 1989.
2. Маяк И.Л. Рим первых царей: Генезис Римского полиса. М., МГУ., 1983.
3. Шифман И. III. Цезарь Август. М. 1996.
4. Тит Ливий. История Рима от основания города . М. 1989.

5. Гай Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати цезарей. М. 1998.
6. Плутарх. Избранные жизнеописания. Т. I. М., 1987; Т. II. М., 1987
7. Кадимги дунё тарихи. Ю.С. Крушккол тахрири остида. II-к. Тошкент, 1976 йил.

Tayanch tushunchalar

Antik davr, klassik qulchilik, Italiya atamasi. Etrusk, ligur, lotin, venet, osk, samnit. Yilnomachilar, Fastlar. Publiy, Piktir, Katon, Polibiy, Siseron, Salyustiy, Sezar, Tit Liviy, Diodor asarlari, Tasit, Svetoniy, Trankvill, Strabon. Qadimgi yozuvlar, numizmatik ashyolar.

Quldorlik davlatlari orasida Italiyada tarkib topib miloddan avvalgi II asr o`rtalaridan boshlab butun O`rta dengiz atroflarida hukmronlikni qo`lga kiritgan davlat Rim davlati nomi bilan ataladi. Bu davlat birta shahar - Rim polisi asosida paydo bo`lib, keyin butun Italiyani O`rta yer dengizi afrofidagi o`lkalarni, Yaqin va O`rta Sharq, Shimoliy Afrika Yevropaning katta qismini o`ziga bo`ysundirdi. Miloddan avvalgi I va miloddan avvalgi II asrlar davomida uning chegaralari g`arbda Piriney yarim orolidan Sharqda Kaspiy bo`ylarigacha, Shimolda Britan orollaridan Janubda Fors qo`ltig`igacha bo`lgan joylarni o`z ichiga olar edi. Bu davlat ulkan quldorlik saltanatiga aylanib, qariyb 500 yil umr ko`rgan.

Rim davlatida qulchilik munosabatlari beqiyos darajada taraqqiy qilib, o`zining klassik darajasigacha yetgan. Dunyoning biror mamlakatida qullarni qattiq ezish va ularga shavqatsizlarcha munosabat Rimdagidek bo`lmagan.

Zamon o`tishi bilan quldorlik xo`jaligi va qulchilik tizimiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham o`z umrini yashab bo`lgan, natijada qudratli saltanat quladi.

Boshqa quldorlik davlatlaridan farqli tarzda Rim quldorlik davlati tarixini o`rganish natijasida bu munosabatlarning paydo bo`lishi, rivojlanishi va xalokatga uchrash jarayonlarini bir davlat qiyofasida kuzatish mumkin.

Yana Rim tarixini o`rganish natijasida qullar mehnati va erkin kishilar mehnati samaralaridan bahramand bo`lib o`ziga xos madaniyat yaratilganligi, bu madaniyatdan keyingi zamonlarda butun dunyo xalqlari ham bahramand bo`lganliklarini bilib olamiz.

Qadimgi Rim tarixini quyidagi davrlarga bo`lib o`rganiladi.

1. Podsholik davri. Miloddan avvalgi 509-yilgacha bo`lgan zamon.
2. Respublika davri. Bu zamon miloddan avvalgi 509-miloddan avvalgi 30-yilgacha davom etgan.
3. Imperiya davri. Miloddan avvalgi 30 yildan melodiy 476-yilgacha davom etgan.

Imperiya davrini o`zini 284 yildan boshlab alohida Dominat bosqichiga ham ajratiladi.

Qadimgi Italiya Apennin yarim oroli, Sisiliya, Korsika, Sardiniya va boshqa mayda orollarni o`z ichiga olgan mamlakatdir. Uni shimol tomondan Alp tog`lari o`rab turadi. Yarim orolni sharqdan Adriatika, Janubdan Ioniya, g`arbdan Tirren dengizlari yuvib turadi. Dengiz qirg`oqlarida kemalar to`xtashi uchun qulay buxtalar bor. Italiya hududida inson xo`jalik faoliyati uchun qulay bo`lgan tekislik va unumdo yerlar ko`p.

Qadimgi yunonlar yarim orolning janubiga kelganlarida bu yerda ozuqabop o`t, o`simlik va chorva mollarining ko`pligini ko`rib hayratga tushganlar. Shuning uchun ular yarim orolning janubiy qismini «Italiya» –«buzoqlar mamlakati», deb atagan ekanlar. Yarim orol qadimda qalin o`rmonzorlar bilan qoplanib, u yerda dub, qayrag`och, qora qayin, kashtan va boshqa daraxtlar o`sib, yotgan. Qadimgi Rimda azaldan boshlab olma, anor va boshqa mevali daraxtlar ham yaxshi meva bergan.

Qadimgi Rimning hayvonot dunyosi o`rta Yevropanikiga o`xshash bo`lib, u yerda bug`u, tog` eskisi, yovvoyi cho`chqa, yovvoyi mushuk, ayiq, bo`ri, tulki, mayda yirtqichlar, sudralib yuruvchilar, parrandalar ko`p bo`lgan. Yarim orol va dengizlarda baliqlar va har turli dengiz hayvonlari serob bo`lgan.

Apennin yarim orolida yer osti qazilma boyliklari ham ko`p bo`lgan. U yerdan va orolardan oltin, kumush, temir va mis, turli rangdagi marmartoshlar qazib chiqarilgan. Yarim orolning janubidagi Sisiliya orolining iqlimi issiq bo`lib, o`simliklar olamiga boydir.

Apennin yarim orolining qulay geografik muhiti juda qadim zamonlardayoq ibtidoiy odamlarning diqqat e`tiborini o`ziga tortgan. Arxeolog olimlar Apennin yarim orolidan qadimgi

tosh asriga mansub odamlarning makonlari, mehnat qurollari, g`or devorlaridan esa qadimgi rasmlarni topganlar. Ayni paytda yarim oroldan 80-100 ming yillar muqaddam yashagan qadimgi odamlarning bosh suyagi va mehnat qurollari ham topilgan. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan shug`ullanganlar. Neolit davriga kelib Italiya va orollarda aholi ko`paya boshlagan. Bu davrga kelib odamlar g`orlarni tark etib, chaylalarda yashaganlar, dastlabki chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullana boshlaganlar.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Italiya aholisi misdan, II ming yillikda jezdan va II ming yillikning oxirida – I ming yillikning boshidan boshlab temir qurollardan foydalana boshlagan. Temir qurollardan foydalanish qishloq xo`jaligining rivojiga katta ta`sir ko`rsatgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikda Italiya etrusk, ligur, lotin, venet, osk, va samniy (samnit) kabi turli qabilalar yashar edilar.

Ligurlar va etrusklar mamlakatning qadimgi qabilalaridan bo`lib, ular Italiyaning shimoli-g`arbiy tomonlarida yashaganlar. Mamlakatning shimoli-sharqiy chekkasida venetlar, uning janubi bilan Sisiliya orolida italiyalik qabilalar yashaganlar. Ayni paytda yarim orolda lotin qabilalari ham yashaganlar. Ular yashagan joy Lasiya deb atalgan. Lasiyaga yondosh Kampaniya tekisligida okslar yashaganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab yunon dengizchilari Apenin yarim oroli va Sisiliya oroli sohillariga kelib o`rnasha boshlaganlar. Qadimgi rivoyatlarga ko`ra, Krit podshosi Minos Sisiliyada halok bo`lgan ekan. Sisiliyada sikanlar, elimlar, Korsikada va sardiniyada sardlar yashaganlar.

Qadimgi Rim tarixini o`rganish uchun asosiy manbalar Rim tarixchilarining tarixiy asarlarini, arxeologik tadqiqotlar ma`lumotlari, epigrafika va numizmatika ma`lumotlaridir.

Rim davlati miloddan avvalgi II asrdan boshlab, o`rta yer dengizi bo`ylaridagi qudratli davlatga aylangan zamondan boshlab Rimda yunonlar ta`siri kuchaygan. Yunon tili, fani va madaniyati Rimga ta`sir qila boshlagan.

Rimning ilk tarixchilari yilnomachilar bo`lib, voqea va hodisalar kalendar tarzida yozib borilgan. Bu ish bilan miloddan avvalgi VI-V asrlardan boshlab fastlar-ibodatxonalarining bosh kohinlari shug`ullanib borganlar. Dastlabki yilnomalar miloddan avvalgi 390-yilda Rimga gallar hujumi va istilosi vaqtida yo`q qilib yuborilgan.

Keyingi zamonlarda yaratilgan yilnomalarni miloddan avvalgi 130 yilda Publiy tomonidan to`planib, nashr qilinib, «Buyuk yilnomalar» deb ataldi.

Miloddan avvalgi III-II asrlardagi yilnomachilarni tarixida katta yilnomachilar deb atash rasm bo`lib, Siseronning aytishicha: “ular qisqa qilib yozishni bayonotning birdan-bir fazilati deb bilib, faqat kunlar, kishilar, voqea va u yuz bergan joyni ko`rsatib yozganlar, xolos”.

Katta yilnomachilarning eng mashhuri Kvint Fabiy Piktordir. U miloddan avvalgi III asr oxirida yashab, asari “Yilnomalar”ni yunon tilida yozgan. Asarda Italiyada Eneyning paydo bo`lishidan boshlab, ikkinchi Puni urushigacha bo`lgan Rim tarixi bayon qilingan.

Lotin tilidagi birinchi tarixiy asarni esa Mark Porsiy Katon (miloddan avvalgi 234-149 yillar) nomlanib, unda “Italiya va Ispaniyadagi ajoyib ko`ringan voqealarni” yozgan. Katon haqida Siseron: “Yunoniston va Rim tarixida u bilmagan biron bir voqeani topish qiyin” deb yozgan edi.

Miloddan avvalgi II asrning 30 yillaridan boshlab Rim respublikasida «yangi» yoki «kichik» yilnomachilar deb atalgan mualliflar – Lusiy Seliy, Antipatr, Semproniy Azellionlarning asarlari paydo bo`ldi.

Rim respublikasi davrining eng yirik tarixchilaridan biri, miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Umumiy tarix” asarining muallifi Polibiydir. Asarda miloddan avvalgi 264-146 yilda manbalarni sinchiklab tekshirgan, mamlakatlarning geografik holati va iqlimini o`rgangan. Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo`lini belgilashga imkon beradi, ya`ni tarix “nasihat berishi”, “o`rgatishi” mumkin, amaliy jihatdan foydali bo`lishi mumkin deb faraz qiladi.

Miloddan avvalgi I asr Respublikaning qulashi va imperiyaning qaror topishi davridir. Davlat shaklining o`zgarishi keskin kurashlar sharoitida yuz bergan. Bu davr manbalari shu zamonda yashagan Mark Tulliy Siseron, Gay Yuliy Sezar, Gay Salyustiylarning asarlaridir. Katon va Varronlarning asarlari esa Italiya qishloq xo`jaligini o`rganishda yordam beradi.

Rim imperiyasi davri va Dominat davri tarixini o`rganishda, Valeriy Paterkul, Korneliy Tasit, Svetoniy Trankvill, Dion Kassiy, Ammian Marsellin, Strabon, Katta Pliniylar yaratgan asarlar asosiy manbalar bo`lib xizmat qiladi.

Qadimgi Italiya va O`rta dengiz bo`ylarida o`tkazilgan arxeologik tekshirishlar natijasida ochilgan obidalar, shaharlar (Pompey, Timgad shaharlari) ham muhim tarixiy–ashyoviy manbalardir.

Qadimgi yozuvlardan Etrusk yozuvlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda mansubdir. Bunday yozuvlar to`qqiz mingdan ortiq bo`lib, uzoq vaqtdan beri o`qilmay kelinmoqda. 1988 yilda Rossiyadagi Chelyabinsk Unisersiteti olimi, filolog Tubert etrusk yozuvlarini o`qib chiqishda katta muvaffaqiyatga erishdi.

Miloddan avvalgi VI asrga mansub ilk lotin yozuvi namunalari Prenestin tuqasi va Romul qabri joylashgan yerdan topilgan «Qora tosh» dagi yozuvlardir.

Tangalarni o`rganish natijasida esa afsonaviy manzaralar, e'tiqodlar, san'at, arxitektura tarixini o`rganishga yordam beradi.

MA'RUZA № 10.

Mavzu: Miloddan avvalgi VIII-III asrlarda Rim va Italiya

Reja:

1. Etrusklar jamiyati.
2. Rim shahrining vujudga kelishi.
3. Patrisiylar va Plebeylar kurashi.
4. Rim Respublikasining o`rnatilishi.

Adabiyotlar

1. История древнего мира. Расцвет древних обществ. М., 1989.
2. Маяк И.Л. Взаимоотношения Рима и итальянцев III- II вв. до н.э. М-, 1971.
3. Немировский А.И. Этруски. От мифа к истории. Воронеж, 1983.
4. Штаерман Е.М. Расцвет рабовладельческих отношений в Римской республике. М.1964.
5. +адимги дунё тарихи. Ю.С. Крушкол таърири остида. II =исм. Тошкент, 1976.

Tayanch tushunchalar

Tusklar, rasenlar, etrusklar, Lukomon, Lautnalar, Etrusk shaharlari. Etrusklar ittifoqi, me'morchilik, madaniyat ravnaqi. Romul va Rem, yetti tepalik, patrisiylar, plebeylar.

Apennin yarim orolining tabiiy iqlimi qulay, dengiz kasb-korligi ham rivojlangan joylarida miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan boshlab sinfiy jamiyat alomatlar yuzaga kelib borgan.

Italiyaning g`arbiy qismida yashagan qadimgi Etrusklar xo`jalik sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib, dastlabki davlat tuzgan xalqlardan biri edi.

Qadimgi rimliklar ularni «tusklar» yunonlar «tirrenlar»: o`zlari esa o`zlarini «rasen» lar deb nomlaganlar. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda etrusklar Padus (Po) daryosining quyi oqimi bilan Tibr daryosi oralig`idagi yerlarda yashaganlar. Etrusklar uchraygan vaqtlarda Ilva, Korsika orolining sharqiy sohillarini va Kampaniyaning bir qismini ham bosib olganlar.

Etrusklarning kelib chiqishi qadim zamonlardayoq olimlar diqqatini o`ziga tortgan. O`sha davrning ko`p olimlari etrusklarning ota-bobolari Apennin yarim oroliga Kichik Osiyoning g`arbiy qismidan ko`chib kelib joylashganlar, keyinchalik mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar, deb hisoblaydilar. Olimlarning boshqa bir guruhi esa ularni Italiyaning azaliy tub aholisi, deb aytganlar. Arxeolog va tilshunos olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, ular Italiyaga miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillikning boshlarida ko`chib kelganlar.

Miloddan avvalgi VIII asrda etrusklar shimoliy va o`rta Italiyaning katta qismida tarqalib yashar edilar. Etrusklar mirishkor dehqonlar bo`lib, ular Italiyada birinchi bo`lib sun'iy sug`orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug`ullanganlar. Ular bug`doy, arpa, loviya, uzum ekib, ulardan yuqori hosil olganlar, chunki Italiyada daryolar ko`p, tuprog`i unumdor edi. U yerda kanop

o`simligini yetishtirish juda rivojlangan edi. Etrusklar kanopdan mato to`qiganlar. Bu matolardan kemalarga yelkan pardasi, yomg`ir va quyosh nuridan kishini muhofaza qiladigan soyabonlar yasaganlar. Kanopdan to`qilgan matodan yozuv vositasi sifatida ham foydalanilgan. Kitob varaqalari ham kanop matosidan bo`lgan.

Etrusklar chorvachilik bilan qizg`in shug`ullanganlar. Ular asosan qoramol, qo`y va cho`chqa boqqanlar. Etrusklar yilqichilik bilan ham mashg`ul bo`lganlar. Ular otni muqaddas hayvon deb bilganlar. Sharqda bo`lgani kabi otdan faqat harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Xo`jalikning rivojlanishi, mulkiy tengsizlik va tabaqalar ilk shahar-davlatlarning qaror topishiga olib kelgan.

Etrusklarda mis, jez va temir bilan bog`liq hunarmandchilik juda rivojlangan edi. Ustalar ma`dandan turli mehnat, uy-ro`zg`or buyumlarini yasaganlar. Ustalar askarlar uchun turli qurol-yarog`, dubulg`a, zirx, ot anjomlari va boshqa narsalar ham ishlab berganlar.

Etrusklar me'morchilik, zargarlik va kulolchilikda ham katta muvafaqiyatlarga erishganlar. Me'morlar toshdan ajoyib binolar, gumbazlar va arklar ishlaganlar. Ular sopol idishlarning mohir ustalari edilar. Ustalar sopol idishlarni bo`yamay bo`rtma naqshlar bilan bezaganlar.

Etrusklar jamiyati quldorlik jamiyati bo`lgan, Ularda hukmdorlar *luxomon*, qaram kishilar *latunlar* deb atalgan. Etrusk aslzodalari qul va qaram kishilar mehnatidan keng foydalanganlar. Dehkonchilik, chorvachilik, hunarmadchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qishloqlar obodonlashib, shaharlarga aylana borgan.

Etrusklar ko`p shaharlarini dengiz bo`ylarida bunyod qilganlar. Shuning uchun ular kemasozlikda katta yutuqlariga erishganlar. Dengiz sohilidagi barcha shaharlar o`zlarining jangovar kemalariga ega edilar. Etrusklar mohir va dovyurak dengizchilar bo`lib, Tirren dengizida huqmronliq qilganlar. Ularning dastlabki davlati o`n ikki shahar-davlatlarning ittifoqidan iborat bo`lgan. Rim va Kapuya ularning eng yirik shaharlaridan edi. Bu shahar-davlatlar miloddan avvalgi VIII asrda tashkil topgan. Miloddan avvalgi VII asr va VI asrning birinchi yarmida etrusklar jamiyati kuchayadi. Shu davrda ular Lasiyni va uning bosh shahri Rimni bosib oladilar. Etrusklar Kampaniyani ishgol qilib, Kapuya shahrini bino qilganlar.

Miloddan avvalgi VI asr oxirlaridan boshlab shimoldan gall qabilalari, janubdan esa yunonlar etrusklar yerlariga bostirib kirganlar. Miloddan avvalgi V asrning oxiri va IV asrning boshlarida gall qabilalari Apennin yarim orolining markaziy viloyatlarigacha kirib kelib, ko`p shaharlarni vayron qilganlar.

Miloddan avvalgi 524 yilda Qum shahri tirani Aristodem qo`shinlari etrusklarni tor-mor qiladi. Bir qancha vaqtdan keyin Aristodem qo`shinlari Lasiyadagi Arisiya yonidagi jangda etrusklarni yana mag`lubiyatga uchratadi.

Miloddan avvalgi 474 yilda yunonlar Qum shahri yaqindagi dengiz jangida etrusklarning flotini tor-mor etadi. Shimolidan gallar, janubdan yunonlarning ketma-ket bergan zarbalari natijasida etrusklar ko`p mulklaridan ajraladilar. Shu davrda Apennin yarim orolidagi bir qancha shaharlar etrusklarning shahar-davlatlari ittifoqiga qarshi qo`zg`olon ko`targanlar.

Shunday qilib, shimoldan gall, janubdan yunonlarning hujumlari va Italiya shaharlaridagi qo`zg`olonlar natijasida etrusk jamiyati kuchdan ketib qulaydi. Ular siyosiy mustaqillikdan mahrum bo`lgach, asta-sekin Italiya aholisi bilan qo`shilib, ularga singib ketganlar.

Ular Apennin aholisining madaniy taraqqiyotida muhim o`rin tutadilar. Miloddan avvalgi I ming yillik o`rtalarida etrusklar Finikiya alfaviti asosidagi o`z yozuvchilarini yaratganlar. Olimlar juda ko`p etrusk yozuvchi namunalarini topganlar. Lekin bu yozuv hali ham o`qib chiqilgan emas. Hozir olimlar etrusk yozuvlarini o`qish ustida ish olib bormoqdalar.

Etrusklarda me'morchilik ancha yaxshi rivojlangan edi.

Etrusk ustalari toshdan katta-katta imoratlar solib, ularni gumbazlar va arklar bezaganlar. Ularda haykaltaroshlik ham taraqqiy etgan. Haykaltaroshlar loy, tosh va jezdan ajoyib haykallar yasaganlar. Ular ajoyib kulolchilik buyumlari ishlaganlar. Etrusklar madaniyati Rim va Italiya madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko`rsatgan.

Etrusklarning diniy e'tiqodi yunonlarnikiga ancha o`xshab ketadi. Ular tabiat hodisalariga, narsalarga va har xil xudolarga e'tiqod qilganlar. Ularda ibtidoiy din shakllari ancha ustunlikka ega edi.

Rim Italiyaning eng qadimgi shaharlaridan biridir. Italiyaning markaziy qismidan Tibr daryosi oqib o`tib, u Tirren dengiziga quyilgan. Tibr daryosining quyi qismi tekislik bo`lib, uning har-har yerida tepaliklar qad ko`tarib turgan. Bu tekislikda lotinlar qabilasi yashar edi. Tibr

dengizga quyiladigan joydan 25 km ichkaridagi tepaliklarda miloddan avvalgi XI–V asrlardayoq qator qishloqlar bor edi. Miloddan avvalgi 8 asrga kelib esa shu qishloqlar oʻrnida Rim shaharchasi bunyod etilgan. Daryoning baland qirgʻogʻidagi Kapitoliy tepaligida qurilgan qoʻrgʻon shaharning markazi boʻlgan.

Qadimgi Rim afsonalarida Rim shahriga asos solinishi Troya urushlari bilan bogʻlanadi. Afsonaga koʻra, Troyani yunonlar xarob qilinganlaridan soʻng omon qolgan troyaliklar Eney boshchiligida Italiya sohillariga kelib qoladilar. Lasiya shohi Lotin Eneyini doʻstona kutib oladi. Eney uning qiziga uylanadi. Lotin vafotidan soʻng uning oʻrniga Eney podsho boʻladi. Troyaliklar mahalliy aholi bilan qoʻshilib, lotin xalqini tashkil etadilar. Eneyning oʻgʻli Askaniy–Yul ulgʻaygach, Alba-Longu degan shaharni barpo qilib, unga podsho boʻlib oladi. Ancha vaqt oʻtgach, Eneya shohi ajdodlaridan biri Numitor oʻz ukasi Amuliy tomonidan taxtdan agʻdarib tashlanadi. Numitorning qizi Silviya bilan xudo Marsdan ikki oʻgʻil – Romul va Remlar tugʻiladi. Amuliy oʻz jiyani Silviyaning yangi tugʻilgan oʻgʻillarini savatga solib, Tibr daryosiga tashlashni buyuradi. Podsho Amuliy, bolalar katta boʻlsa, meni taxtdan mahrum qilib, oʻch olishlari mukin, deb oʻylagan edi. Ichiga bolalar joylangan savat bir daraxtning shoxiga ilinib qoldi. Ularni bir ona boʻri sut berib boqadi. Keyin ularni bir choʻpon topib olib tarbiyalaydi. Aka-ukalar ulgʻayib mohir jangchilar boʻlib yetishadilar. Ular podshoga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarib, uni oʻldiradilar. Aka-uka shahar buned qilishga ahd qilishadi. Ammo shaharni qayerda kurish kerak va uning hokimi kim boʻladi,- degan masalada ular oʻrtasida janjal koʻtariladi. Janjal vaqtida Romul oʻz ukasi Remni oʻldirib qoʻyadi. Romul oʻz nomi bilan atalgan Roma shahrini oʻzlarini choʻpon topib olgan joy yaqinida barpo etib, shaharga podsholik qiladi. Rimliklar yil hisobini oʻz shaharlarga asos solingan afsonaviy yildan, yaʼni miloddan avvalgi 753 yildan boshlaganlar. Keyinchalik Rimdagi Kapitoliy tepaligida bolalarni sut berib boqqan ona boʻri sharifga haykal oʻrnatilgan.

Rim va uning atrofida lotin, sabiyon va etrusk qabilalari yashaganlar. Ular birlashib Rim davlatiga asos solganlar. Bular Rimning qadimgi aholisi edi. Rimning eng qadimgi tub aholisi **patrisiylar** deb atalgan.

Patrisiylar (lotincha «pater» oʻzbekchada ota degan soʻzni bildiradi) ota-bobolari shaharga asos solganliklari bilan faxrlanib yuradilar. Ular Rimning erkin aholisi boʻlib, ekiladigan yer yaylovlarga ega boʻlgan jamoani tashkil etganlar. Patrisiylarning har bir oilasi jamoa ekin maydonidan yer olib ekin ekar, jamoa yaylovlarida chorva mollarini boqar edilar. Rim patrisiylari dalada ham, uyda ham oʻzlari ishlaganlar. Ular uy va dala ishlarida qullar mehnatidan ham foydalanganlar.

Italiyaning boshqa joylardan Rimga koʻchib kelgan odamlar va ularning avlodlarini **plebeylar** deb atashganlar. Plebeylar orasida boy-badavlat kishilar ham boʻlgan, lekin ularning orasida kambagʻallar koʻpchilikni tashkil etgan.

Patrisiylar Rim davlatini idora etishda faol qatnashib, unga plebeylarni yoʻlatmas edi. Lekin ular oʻz idora usullarini umumxalq ishi deb bilganlar. Rimda respublika oʻrnatilgan boʻlishiga qaramay plebeylar davlat ishlariga aralashtirilmagan, ular siyosiy jihatdan huquqsiz boʻlib qolaverganlar. Plebeylar patrisiylar bilan teng boʻlish va oʻz ahvollarini yaxshilash uchun tinimsiz kurash olib borganlar.

Rimdagi patrisiylar bilan plebeylar oʻrtasidagi kurash podsholik davridayoq boshlangan edi. Ilk respublika davriga kelib, bu kurash yanada keskinlashdi. Plebeylar davlatni boshqarish, yer-mulklardan foydalanish va boshqa koʻp masalalarda patrisiylar bilan teng huquqli boʻlishga intilganlar.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda plebeylar katta gʻalabaga erishganlar. Ular har yili oʻzlarining himoyachilari – halq tribunallarini saylash xuquqini qoʻlga kiritganlar. Tribunlar veto huquqiga ega boʻlib, u konsullar va senatning plebeylarga zid farmoyiishlarini taqiqlab qoʻyish huquqiga ega edilar. Tribunning eshigi plebeylar uchun har doim ochiq boʻlib, ular barcha masalalarda tribunga murojaat qilardilar va ulardan himoya topardilar. Tribunalar tez orada plebeylarning yoʻlboshchilariga aylanib, ularning manfaatini koʻzlab hormay–tolmay kurash olib borganlar. Plebeylar oʻz yoʻlboshlari tribunalar rahbarligida amaldagi xuquqlarni yozib qoʻyilishiga muvaffaq boʻlganlar.

Miloddan avvalgi 451 yilda 10 patrisiydan iborat hayʼat tuzilib, ular qonunlar majmuasini tuzishlari kerak boʻlgan. Ammo hayʼat bir yilda bu ishni oxiriga yetkaza olmagan. Miloddan avvalgi 445 yilda esa 5 ta plebey va 5 ta patrisiydan iborat yangi hayʼat saylangan. Ular Rimdagi huquqlar majmuasini toʻplab tartibga solganlar.

Miloddan avvalgi 449 yili 12 ta mis lavhaga o'yib yezilgan qonunlar forumga qo'yilgan va qabul qilingan. 12 mis lavhadagi qonunlarining qabul qilinishi plebeylarning katta g'alabasi edi. Qonunga ko'ra, yer va mol-mulk xususiy hisoblanib, uni merosxo'rga vasiyat qilib qoldirish mumkin bo'lgan. Miloddan avvalgi 326 yilda plebeylar yangi qonun qabul qilganlar. Qonunga ko'ra «qarz uchun qarzorning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo'lishi kerak»,- deyilgan.

Qarz uchun Rim fuqarosini qul qilib sotish qonunda man qilingan. Ayni paytda plebeylar konsullik lavozimlarni va boshqa mansablarni egallash hamda jamoa ekin maydonida yer olish huquqiga ham erishganlar.

Shunday qilib, plebeylarning patrisiylarga qarshi uzluksiz kurashlari natijasida plebeylar katta g'alabalarga erishganlar. Miloddan avvalgi III asr boshlarida plebeylar Rimning to'la huquqli fuqarolari bo'lib olganlar.

Qadimgi yilnomachilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, miloddan avvalgi VI asr oxirlarida Rimni podsho boshqargan ekan. Ammo podsho rimliklariga ortiqcha jabr-zulm o'tkazib, ularning nafratiga duchor bulgan.

Miloddan avvalgi 510-509 yillarda Rimning mahalliy aholisi qo'zg'olon qo'tarib, o'z podsholarini taxtdan ag'darib, uni quvib yuborganlar. Rimda podsho boshqaradigan hokimiyat yo'q qilingan. Uning o'rniga respublika –ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan kishilar idora qiladigan davlat barpo bo'lgan.

Davlatda faqat patrisiylardan saylangan barcha magistratlar (mansab egalari) senatga tobe bo'lgan. Senat oqsoqollar kengashidan asta-sekin doimiy davlat muassasasiga aylangan.

Rim ilk respublika davrida polis bo'lgan, ya'ni erkin quldorlaridan iborat fuqarolar jamoasi bo'lgan. Oila (familia) Rim jamoasi hayotida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Rim aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Don yetishtirilgan, tok, zaytun o'stirilib, polizchilik qilingan. Hunarmandchilik podsholik zamonidan boshlab dehqonchilikdan ajralgan. Sopolsozlik, binokorlik rivojlangan. Temir buyumlar ham yasalgan. Savdo-sotiq taraqqiy qilib, miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan kumush tangalar zarb qilingan.

MA'RUZA № 11.

Mavzu: Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Rimning davlat tuzumi

Reja:

1. Rimning davlat tuzumi.
2. Rim tomonidan Italiyani istilo qilinishi.
3. Janubiy Italiyani bosib olinishi.

Adabiyotlar

1. История Европы. Т. I. М., 1988.
2. История Древнего Рима. Под.ред. В.И. Кузищина.М., 1988.
3. Санчурский Н.В. Римские древности. М., МГУ, 1995.
4. Кадимги дунё тарихи. Тошкент, 1976.
5. Словарь античности. М., 1989.

Tayanch tushunchalar

Komisiyalar, magistraturalar, senat, Veto, diktator, triumvir, pretor, sensor, xalq tribunlari, edillar, kvestorlar. Rim legionlari. Etrusklar bilan urush, gallarga qarshi kurash, Samnit urushi. Tarent. Pirr bilan urushlar.

Miloddan avvalgi V-III asrlarda Rimda respublika tuzumining shakllanish jarayoni davom etgan. Davlat hokimiyati muassasalari komisiyalar (xalq majlisi), magistraturalar va senat edi. Oliy hokimiyat egasi tub joy aholidan bo'lgan Rim fuqarolari (populis Romanus) bo'lganlar. Rasmiy jihatdan Rim fuqarolari xalq majlisida ishtirok etishga, davlat lavozimlariga saylanishga, mulkga egalik qilishga va Rim qo'shinida xizmat qilishga xaqli edilar.

Rimda uch xil komisiya bor edi.

1. Qur'ali majlis komisiyasi ba'zi rasmiy vazifalar va oila masalalari bilan shug'ullangan.

2. Senturiya komisiyasi dastlab shahar lashkarlari yig'inidan iborat bo'lgan. Keyinchalik patrisiy va plebeylarning mulkiy darajalariga qarab chaqirilgan. Bu oliy mansabdorlar majlisi bo'lib, shahar tashqarisidagi Mars maydonida o'tkazilgan. Unda oliy mansab egalari bo'lgan konsullar, pretor, senzorlar saylangan.

3. Triba komisiyasi (tribalar– urug'-aymog'iga qarab aholini uch guruhi ma'nosini beradi. miloddan avvalgi V asrdan boshlab hududiy birlik bo'lgan) majlisi. Miloddan avvalgi III asrdan boshlab qonun chiqaruvchilik huquqiga ega bo'lgan.

Ijro qiluvchi hokimiyat bir yil muddatda xalq saylab qo'yadigan magistratlar qo'lida bo'lgan. Ular maoshsiz ishlaganlar. Bunday holat mansablarga faqat mulkdor kishilar saylanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Magistratlar ko'pchilik bo'lib ish ko'rganlar, qarorlar bir ovozdan qabul qilingan. Norozi bo'lganlar Veto-ta'qiqlash huquqidan foydalanganlar. Ular yana daxlsiz shaxs bo'lib, vakolat muddati tugamaguncha, javobgarlikka tortilmagan. Magistratlik ikki xilga, favqulotda va odatiyga bo'lingan. Favqulotda holatlar bo'lganda magistratlarning odatdan tashqari, diktator, triumvir va desemvirlar saylangan yoki tayinlangan. Diktator tayinlash to'g'risida faqat senat qaror chiqarishi mumkin bo'lgan. Diktator qarorlarni yakka qabul qilishi mumkin bo'lgan mansabdor edi. Uni o'z oliy nishoni bo'lib, 24 ta faxriy soqchi (liktor) kuzatib yurgan.

Oliy mansabdorlardan konsullar har yili senturiya komisiyalarida saylanganlar. Harbiy va fuqarolik hokimiyati ularning qo'lida bo'lgan. Konsullik kollegial hokimiyat edi.

Pretorlar sud ishlari bilan shug'ullangan, viloyatlarni boshqarish, konsullar bo'lmagan paytda ularni o'rnini bosgan senat topshirig'iga ko'ra legionlarga qo'mondonlik qilgan.

Ikki senzor odatda sobiq konsullardan byosh yilda bir marta 18 oy muddatga senturiya komisiyalari tomonidan saylangan. Ular har byosh yilda bir marta senz belgilaganlar.

Xalq tribuni esa har yili triba yig'ilishida saylangan. Edillar tartib saqlash bilan, kvestorlar xazinachilik vazifalaridan bajarganlar.

Senat Rim respublikasining Oliy davlat muassasasi hisoblanib, miloddan avvalgi I asr boshlarigacha 300 kishidan iborat edi.

Senat katta huquqqa ega edi. Konsullar barcha masalalarda senat bilan maslahatlashishi lozim edi. Urush va sulh masalalarida ham senat a'zolarining maslahatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Davlatning xazinasi senat ixtiyorida edi. Senat hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni, oldindan tayyorlab qo'yilgan qarorlarni xalq yig'iniga havola etgan, yig'in esa bu qarorlarni hamisha qabul qilgan.

Miloddan avvalgi V-III asrlarda Rim butun Apennin yarim orolini qo'lga kiritish uchun bosqinchilik urushlari olib borgan. Miloddan avvalgi IV asrda etrusklar Rim yerlariga bostirib kirgan bo'lsalar, V asrdan boshlab rimliklar etrusklarga qarshi kurash boshlaganlar. Rimliklar lotinlar bilan ittifoq tuzib, Tibr daryosining o'ng sohilidagi etrusklarning Veyya shahri ustiga qo'shin tortganlar. Bu urush miloddan avvalgi 406 yildan 396 yilgacha davom etgan. Urushda goh u tomon, goh bu tomon g'alaba qilgan. Nihoyat, rimliklar etrusk qo'shinlarini yengib, Veyya shahrini bosib olganlar. Veyya aholisi qul qilib sotilgan, ularning yerlari jamoat dalasiga aylantirilgan. Ayni paytda Rim qo'shinlari Lasiyga bostirib kirib, tog'larda yashovchi ekv va volsk qabilalarini ham tor-mor etganlar.

Miloddan avvalgi 390 yilda gallar Rimga bostirib kirganlar. Rim yaqinidagi Alliya daryosi buyidagi ayovsiz jangda gallar rimliklarni tor-mor qilganlar. Shundan keyin gallar markaziy Italiyani vayron qilganlar, o't qo'yib Rimni yondirib yuborganlar. Faqat Kapitoliy tepaligidagi tosh qo'rg'on omon qolgan.

Keyinchalik gallar Rimga yana bir hujum qilganlar. Ammo ularning bu hujumi natijasiz bo'lib, miloddan avvalgi 334 yili rimliklar bilan sulh shartnomasini tuzganlar.

O'rta Italiyaning markaziy va g'arbiy qismida samnit qabilalari yashaganlar. Ular chorvachilik, ayniqsa, yilqichilik va ovchilik bilan shug'ullanib, tirikchilik qilganlar. temirga ishlov

berishni ham yaxshi bilganlar. samnit jangchilari o'zlarining jangovarliklari bilan atrofdagi qabilalar orasida nom chiqarganlar.

Samnit jangchilari talonchilik maqsadida boy Kampaniya shaharlariga tez-tez hujumlar qilib turganlar. Miloddan avvalgi 343 yili samnitlar Kampaniyaga hujum qilib, uning bosh shahri Kapuyaga tajovvuz qiladilar. Og'ir ahvolda qolgan Kampaniya Rimga yordam so'rab murojaat qiladi. Rim qo'shinlari Kampaniyaga kirib kelib, samnitlarga qarshi kurash boshlaydi. Bu urush miloddan avvalgi 343-341 yillarda bo'lib, u birinchi samnit urushi nomini oladi. Urushda rimliklar g'alaba qozonib, Kampaniyani o'zlariga bo'ysundirganlar. Bunga qarshi miloddan avvalgi 340-338 yillarda lotin ittifoqiga kirgan shaharlar Rimga qarshi kurash boshlaydilar. Bu kurashda rimliklarning qo'li baland keladi. Samnitlar bir qancha italiy qabilalari bilan Rimga qarshi ittifoq tuzganlar. Miloddan avvalgi 327-304 yillar orasida ikkinchi samnit urushi bo'lib o'tadi. Rim qo'shinlari samnitlar yerlariga bostirib kirganlar. Miloddan avvalgi 321 yili samnitlar Kavdiy shahri yaqinidagi tog'-o'rmon darasida Rim qo'shinlarini o'rab olib, ularni tor-mor etganlar. Rim qo'shinlari samnitlar yurtini tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Ammo samnitlar bilan rimliklar o'rtasidagi urush miloddan avvalgi 304 yilgacha davom etgan. Shu yili tuzilgan sulhga ko'ra Kampaniya Rimga o'tgan.

Rimliklar bilan samnitlar urushi bu bilan tugamagan. Miloddan avvalgi 298-290 yillar orasida uchinchi samnit urushi bo'lib o'tgan. Samnitlar gall va ko'pgina italiy qabilalari bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi hayot-mamot urushini e'lon qilganlar. O'n yillik urush juda og'ir o'tgan. Urushda samnitlar alohida matonat ko'rsatganlar.

Miloddan avvalgi 288 yilda rimliklar samnitlar yurtini qonga belab, ulardan shafqatsizlik bilan o'ch olib vayron qilganlar. Nihoyat, bu yurti o'zlariga bo'ysundirganlar.

Miloddan avvalgi 341-288 yillarda Rim qo'shinlari Shimoliy Italiyani ham o'zlariga itoat ettirganlar. Urushlar natijasida Po daryosidan tortib Lukaniya chegarasigacha bo'lgan yerlar Rim respublikasi hukmronligiga o'tgan.

Shimoliy va Markaziy Italiyani o'ziga itoat ettirgan Rim Apennin yarim oroli janubidagi yerlarga ham ko'z olaytira boshlagan. Miloddan avvalgi III asrning 80-yillarida Janubiy Italiyada yashovchi lukanlar qabilasi Furey shahriga hujum qilgan. Furey yunonlarning Italiyadagi koloniya shaharlaridan bo'lib, boshqa yunon shaharlari bilan raqobatda edi. Fureyliklar Rimga yordam so'rab murojaat qilganlar. Janubiy Italiyani bosib olishni ko'zda tutgan Rim qo'shinlari lukanlarni tor-mor etib, Furey shahriga kirganlar. Rimliklarning bu tajovvuzi yunon shaharlarini, shuningdek, Tarent aholisining g'azabini keltirgan. Tarent qo'shinlari shahar qo'ltig'ida turgan Rim kemalariga zarba berib, Fureyga yo'l ochganlar va u yerdan rimliklarni haydab yuborganlar.

Miloddan avvalgi 281 yilda Rim Tarentga qarshi urush e'lon qilgan. Tarentliklar esa Epir podshosi Pirrga yordam so'rab murojaat qilganlar. Pirr tarentliklarning taklifini qabul qilib, o'zining saralangan otliq askarlari va jangovar fillardan iborat qo'shini bilan miloddan avvalgi 280 yili Italiyaga kirib kelgan. Gerakliya yaqinidagi jangda Pirr qo'shinlari rimliklar ustidan g'alaba qozonganlar. Shundan keyin Pirr samnitlar yurti va Kampaniya orqali Rim ostonachalariga yetib borgan. Pirr Rimga hujum qilishga botina olmay sulh taklif etgan. Sulhga ko'ra yunon shaharlari mustaqil bo'lib qolishi kerak edi. Rim senati Pirr taklifini rad etgan.

Miloddan avvalgi 279 yilda Pirr qo'shinlari Adriatika dengizi sohilidagi Auskul shahri yonida bo'lgan jangda Rim qo'shinlarini tor-mor etgan. Ammo bu jangda Pirr o'zining juda ko'p jangchilaridan ayrilgan. Shunda u: «Agar biz rimliklar ustidan yana bir marta shunday g'alaba qilsak, tamomila halok bo'lamiz», - degan. Shundan keyin Pirr Sisiliyaga jo'nab, u yerda karfagenliklarga qarshi kurash olib borgan.

Miloddan avvalgi 275 yili Pirr Italiyaga qaytib kelgan. O'rta Italiyada Rim va Pirr qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi jang bo'lgan. Pirr o'zining jangovar fil mingan suvoriylarini ham jangga solgan. Rim askarlari fillarining oyoqlari ostiga o'tkir mix qoqilgan taxtachalar tashlab, olovli kamon o'qlari va nayzalar bilan fillarga orqaga qochib, Pirr qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Yunonistonga jo'nab ketgan.

Miloddan avvalgi 272 yili Pirr Makedoniya taxti uchun olib borilgan janglar vaqtida halok bo'lgan. Rimliklarning miloddan avvalgi 270-260 yillardagi janglari natijasida Janubiy Italiya ham bosib olingan. Shunday qilib, butun Italiya itoat etgan.

MA'RUZA № 12.
Mavzu: Puni urushlari

Reja:

1. Urushning sabablari.
2. Birinchi Puni urushi.
3. Ikkinchi Puni urushi.
4. Rimning Sharqiy O`rta yer dengizidagi istilolari.

Adabiyotlar

1. История Европы. Т. I. М., 1988.
2. Кораблев И.Ш. Ганнибал. М., 1981.
3. Кузищин В.И. Генезис рабовладельческих латифундий в Италии (II-I вв. до н.э.) М., 1976.
4. Ревяко К.А. Пунические войны. Минск, 1986.
5. Штаерман Е.М. Расцвет рабовладельческих отношений в Римской республике. М., 1964.
6. +адимги дунё тарихи. II =исм. Тошкент, 1975.

Tayanch tushunchalar

Punilar, Karfagen, Sirakuza, Giyeron, Messana, Mila burni, Egata oroli, Barka va barkidlar siyosati, Gannibal, Sagnut shahri, Kanna jangi, Zama jangi, Makedoniyani istilo qilish, Yunoniston, Suriyani olinishi, Mark Katon, uchinchi Puni urushi, Iberiya.

Apennin yarim orolida tashkil topgan Rim davlati miloddan avvalgi III asr o`rtalarigacha butun Italiyani istilo qilib, O`rta yer dengizi bo`ylarini ham o`ziga qaratib olish uchun yangi harakatlar boshladi.

Biroq bu zamonda O`rta yer dengizining g`arbiy qismida boshqa bir quldorlik davlati – Karfagen hukmronlik qilar edi.

Karfagen Afrikaning shimoliy sohillari, Malta, Sardiniya, Korsika, Balear orollari, Sisiliyaning g`arbiy qismini o`z ichiga olgan qadimiy quldorlik davlati edi. Karfagen bu quldorlik davlatining markaziy shahri bo`lgan. Bu shahar katta va o`ziga xos bo`lib, Shimoliy Afrika sohilidagi kichik yarim orolda joylashgan. U Finikiyaning koloniyasi bo`lib, finikiyaliklar uni Kar. Xadashiy –«Yangi shahar» der edilar. Shahar geografik jihatdan g`oyat qulay yerda joylashgan.

Miloddan avvalgi IX asrda Finikiyaning Tir shahri bu yerda o`z koloniyasini tashkil etgan bo`lib, V asr o`rtalarida Karfagen katta bir davlatning markaziga aylangan. Karfagen O`rta yer dengizi havzasidagi ko`p mamlakatlar bilan qizg`in savdo ishlarini olib borgan. Uning chuqur va qulay qo`ltiqlarida ko`pdan-ko`p kemalar turgan, ularga ko`plab yuk orilgan va tushirilgan. Sohil bo`yida xilma-xil mollar saqlanadigan katta-katta omborxonalar bo`lib, ular yuklar bilan to`lib turgan. Kemalardagi yuklarni qullar tushirganlar, ular kemalarda eshkakchilik ham qilganlar. Karfagenliklar hayotida qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik, ayniqsa, savdo-sotiq katta o`rin tutgan. Karfagenning kuchli harbiy dengiz floti va yollanma askarlardan iborat katta qo`shini ham bo`lgan.

Shahar mustahkam tosh devorlar va minoralar bilan o`rab olingan. Karfagen miloddan avvalgi III asr o`rtalariga kelib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir oz zaiflashib qolgan. Karfagen aslzodalari va katta yer egalari bosqinchilik siyosati yurgizilishini, Sisiliya va boshqa joylarda o`z mavqelarini mustahkamlashni talab qilganlar. Bu hol Karfagen va Rim respublikasi o`rtasida O`rta yer dengizida hukmronlikni qo`lga kiritish uchun kurash boshlanishiga olib kelgan.

Rimliklar Karfagenni Puni deb atar edilar. Shuning uchun bu urushlar Puni urushlari deb nom olgan. Birinchi Puni urushi Rim bilan Karfagenning Sisiliya oroli uchun olib borgan kurashidan boshlangan. Sisiliya orolining kichik sharqiy qismi Sirakuza podsholigiga qarar, katta g`arbiy qismi esa Karfagen ixtiyorida edi.

Sirakuza shohi vafot etgach, uning xizmatida bo`lgan kampaniyalik yollanma askarlarning Sisiliyaning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan Messanani bosib olishlari urushning

boshlanishiga bahona bo'lgan. Sirakuzaning yangi hukmdori Giyeron II Messanani qamal qilib, kompaniyalik yollanma qo'shinlarga qarshi chiqqan. Yollanma qo'shinlarning bir qismi Karfagenga bir qismi Rimga yordam so'rab murojaat qilganlar.

Rimliklar yollanma qo'shinga yordamga kelib, Karfagenga urush e'lon qiladilar. Rim-Karfagen urushi miloddan avvalgi 264-241 yillarda bo'lib o'tadi. Har ikki tomon ham dengizda, ham quruqlikda urush olib boradi. Rim qo'shinlari Sisiliyaga tushib tez orada Messanani ishg'ol qiladilar. Ular quruqlikdagi janglarda birmuncha g'olib keladilar. Ammo Karfagen floti dengizda rimliklarni mag'lubiyatga uchratadi. Chunki bu vaqtda rimliklarning kuchli harbiy dengiz floti yo'q edi. Rimliklar tez vaqt ichida qarg'a tumshuqli 120 ta harsbiy kemani jihozlab, jangga hozirlaydilar.

Miloddan avvalgi 260 yilda Mila burni va shahri yaqinidagi dengiz jangida rimliklar Karfagen floti ustidan g'alaba qozonadilar. Bu g'alaba Karfagen qo'shinlarini Sisiliyadan surib chiqarib, urush harakatlarini Karfagenga ko'chirishga majbur etadi.

Miloddan avvalgi 256 yilda rimliklarning 360 ta harbiy kemasi Karfagenga yo'l oladi. Eknom burni yonidagi jangda Rim floti Karfagen floti ustidan yana g'alaba qozonadi. Rimliklar qirg'oqqa chiqib, karfagenliklarga ketma-ket zarba beradilar. Rim qo'shinlarining bir qismi behisob o'lja va asirlarni olib Rimga qaytadi. Ammo ular qaytishda dengiz dovuliga uchrab butunlay halok bo'ladilar.

255 yilda Karfagenning yollanma qo'shinlari Karfagenda qolgan rimlik qo'shanlarni tor-mor etadilar. Rim sarkardasi asir tushib, asirlikda vafot etadi. Urush harakatlari yana Sisiliyaga ko'chadi. Karfagen qo'shiniga Gamilkar Barka lashkarboshi bo'lgach, Karfagen qo'shinlari Sisiliyaning ko'p joylarini qaytadan ishg'ol qiladi. Rimliklar yangidan flot tuzib, Egata oroli yonidagi jangda Karfagen flotini qattiq mag'lubiyatga uchratadi.

Miloddan avvalgi 241 yilda Birinchi Puni urushi sulh shartnomasi bilan yakunlanadi. Sulhga ko'ra Karfagen Rimga katta tovon to'lab, Sisiliyadagi o'z mulklarini ham Rim hokimiyatiga topshiradi.

Birinchi Puni urushidan keyin Karfagenda ahvol og'irlashgan. Iqtisodiy qiyinchilik yollanma qo'shin, Liviya qishloq ahli va qullarning borlashib qo'zg'olon ko'tarishlariga olib keladi. Gamilkar Barka boshliq qo'shin qo'zg'olonni bostirib, qo'zg'olonchilarni qirib tashlaydi.

Rimliklar Karfagenning zaifligidan foydalanib, miloddan avvalgi 238 yilda Sardiniya va Korsika orollarini bosib olganlar. Karfagenliklar Rimga qarshi yangidan kurashga tayyorlanish uchun Iberiyani tanlaganlar. Miloddan avvalgi 237 yilda Gamilkar Barka qo'l ostidagi Karfagen qo'shinlari Iberiyaga kelib joylashadilar. U yerdagi ko'p qabilalarni yengib, katta yutuqlarga erishganlar. Ular Iberiyaning janubi-sharqiy burchagidagi Yangi Karfagen shahrini barpo qilganlar.

Miloddan avvalgi 229 yilda iberlar bilan bo'lgan janglarning birida Gamilkar Barka halok bo'ladi. Qo'shin qo'mondoni qilib, uning kuyovi Gasdrubal tayinlanadi. Miloddan avvalgi 221 yilda Gasdrubal keltlar bilan bo'lgan urushlarning birida o'ldiriladi. Uning vafotidan keyin qo'shinga Gamilkarning 25 yoshli o'g'li Gannibal qo'mondon etib tayinlanadi. U mohir lashkarboshi va qo'rqmas jangchi edi. Uning lashkarboshilik qobiliyati va misli ko'rilmagan mardligiga dushmanlari ham tan berganlar. Qadimgi Rim tarixchilaridan biri: «Gannibal xavf-xatarga tashlaganda qanchalik jasur bo'lsa, shu xavf-xatar ostida qolganda shunchalik ehtiyotkorlik bilan ish ko'rar edi. U mehnat qilganda a'zoyi badani sira charchash bilmas va aslo ruhi tushmas edi. U jazirama issiqqa ham, sovuqqa ham bardosh berardi. U yumshoq o'rinda yotmasdi, harbiy chakmonga o'ralib olib, qorovullikda turgan jangchilar orasida uxlardi. U birinchi bo'lib jangga otilar va jangdan maydonidan eng keyin chiqar edi. Jangchilar Gannibal boshchiligida o'z kuchlarga shunchalik qattiq ishonganlarki va shunchalik mard bo'lganlarki, boshqa hech bir kishi boshchiligida bunday bo'lmas edi», - deb yozgandi.

Rim bilan Karfagen o'rtasidagi Ikkinchi Puni urushi miloddan avvalgi 218–201 yillarda bo'lib o'tadi. Karfagen qo'shinlarining yangi sarkardasi Gannibal miloddan avvalgi 219 yili Rim bilan ittifoqda bo'lgan Iberiyaning Sagnut shahrini qilib, uni tor-mor keltirgan, shahar aholisini qo'l qilib sotib yuborgan. Bundan norozi bo'lgan Rim Yangi Karfagenga elchilar yuborib, Gannibalni Rim qo'lga topshirishni talab qiladi.

Miloddan avvalgi 218 yilning bahorida Gannibal o'z qo'shinlari va jangovar fillari bilan Yangi Karfagendan yo'lga chiqadi. U Pireney tog'laridan o'tib, gallarning ba'zi qabilalari bilan jang qilib. Alp tog'lari etaklariga yetib boradi. Gannibal juda og'ir mashaqqatlar bilan 33 kun deganda Alpning qorli tog'larida oshib o'tib, Shimoliy Italiya tomon harakat qiladi. Qorli dovondan o'tish og'ir bo'lib, askarlar tog'ning tikka va tog' so'qmoqlaridan o'rmalab borganlar. Muzlagan

sirg'anchiq yo'llaridan borayotgan jangchilar, otlar va fillarning ko'pchiligi tubsiz jarga qulab halok bo'lgan. Tog' so'qmoqlaridan charchab, holdan toygan qo'shin Shimoliy Italiyaga yetib kelganda Gannibalning 20 ming piyoda va 6 ming otliq askari, oz sonli fillari qolgan edi. Lekin kelt qabilalari Gannibalga kelib qo'shilib, unga bir oz madad beradilar. Gannibal Shimoliy Italiyada turgan Rim qo'shinlarini navbatma-navbat tor-mor qilib, janub tomon qo'shin tortadi.

Miloddan avvalgi 217 yilda Rimliklar Etruriyadagi Arrisiy shahri yonida Gannibalning yo'lini to'sganlar. Lekin Gannibal qo'shinlari rimliklar kutmagan botqoqlikdan kun davomida kechib o'tib, ularning orqa tomonida paydo bo'lganlar. Kechib o'tish vaqtida Gannibal ko'zidan ajralagan, u minib yurgan yagona fil ham halok bo'lgan. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlariga orqa tomonidan hujum qilib, Traziman ko'li yonida Rim qo'shinlarining ko'p qismini qirib tashlaganlar.

Miloddan avvalgi 216 yilda Gannibal rimliklarning ayrim hujumlarini qaytarib, Rimni chetlab o'tib, Janubiy Italiyaga yo'l olgan. Chunki Gannibal u yerda janubiy Italiya aholisidan va Karfagenda madad olishi mumkin edi. U o'tish davrida rimliklarning ko'plab qishloqlarini vayron qilgan. Gannibal Rimga dushman, tobe qabilalarni o'ziga og'dirib olishni ko'zda tutib, ularni o'ldirmaslik haqida buyruq beradi.

Miloddan avvalgi 216 yili Gannibal qo'shinlari Italiya janubidagi Kanna qishlog'iga kirib kelganida uning 40 ming piyoda jangchisi va 10 mingga yaqin otliq askarlari bor edi. Rim Qo'shinida esa 80 ming piyoda va 6 ming otliq jangchi bo'lgan. Gannibal qo'shinlari 70 ming Rim piyoda askarlarni qurshab olib, ularning ko'p qismini qirib tashlaganlar, bir qismini esa asir olganlar. Jangda Rim sarkardalaridan Emiliy Pavel halok bo'lgan, ularning ikkinchi sarkardasi Varron qolgan-qutgan qo'shin bilan Rimga qarab qochgan.

Kanna yonidagi mag'lubiyat Rimni og'ir ahvolga solib qo'ygan. Jangda butun Rim qo'shinlarining uchdan bir qismi halok bo'lgan. Karfagenliklarining bu g'alabasi Italiya markazi va janubida yashab, Rim tobe bo'lgan samnit, lukan va apul qabilalarining Gannibal tomoniga o'tishi uchun imkon beradi. Shu vaqtda kapuyaliklar ham karfagenliklarga kelib qo'shiladilar. Ammo Gannibalning Rimni olish uchun qilgan harakati zoye ketadi.

Kanna mag'lubiyatidan so'ng Rim senati shoshilinch chora ko'rib, 17 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan barcha erkaklarni qo'shinga safarbar qilgan. Tez orada rimliklar 250 ming askar to'plab, ularni qurollantirganlar. Rim sarkardalari qo'shini mayda bo'laklarga bo'lib, katta janglarga chap berib, kichik janglar bilan karfagenliklar tomonga o'tgan shaharlarini qamal qila boshlaydilar. Bunday urush Gannibal uchun halokatli edi. Garchi Karfagendan jangchilar kelib qo'shilgan bo'lsa ham Gannibal qo'shinida ahvol og'ir bo'lib qolavergan. Qo'shin kundan-kun kamayib bormoqda edi. Yangi Karfagendan qo'shin tortib kelayotgan Gannibalning ukasi tortib kelayotgan Gannibalning ukasi Gasdrubal Metavra daryosi bo'yidagi jangda rimliklar tomonidan tor-mor etilib, uning o'zi o'ldirilgan.

Miloddan avvalgi 204 yilda urush harakatlari Karfagenga ko'chiriladi. Rimliklar Ssipion qo'mondonligidagi katta qo'shini Karfagenga jo'natadilar. Gannibal Karfagenni himoya qilish uchun Italiyadan chaqirtirib olinadi. Miloddan avvalgi 202 yilda Karfagendagi Zama shahri yaqinida Gannibal boshliq karfagenliklar bilan Ssipion boshliq Rim va Numidiya podshosining otliq askarlaridan iborat qo'shin o'rtasida ayovsiz jang bo'ladi. Bu jangda rimliklarning otliq askarlari ko'p edi. Rim bilan Karfagen piyoda askarlari qizg'in jang olib borayotgan vaqtlarida rim va numidiyaliklarning otliq askarlari karfagenliklarning orqa tomonlariga o'tib olib, zarba beradilar. Birinchi Puni urushlari vaqtida yengilish nimaligini bilmagan Gannibal armiyasi o'z vatanini mudofaa qilayotib, tor-mor etiladi. Shu bilan Ikkinchi Puni urushi ham tugaydi. Karfagen Rimga taslim bo'ladi.

Ikkinchi Puni urushi natijasida Rim o'zining eng kuchli raqibi Karfagenni mag'lubiyatga uchratgan edi. Italiyaning bosib olinishi, Karfagen ustidan erishilgan g'alaba Rimni O'rta yer dengizi xavzasidagi eng qudratli quldorlik davlatiga aylantirgan. Rimdan sharq tomonida Makedoniya, Yunoniston, Epir, Salavkiylar podsholigi va Misr kabi juda boy mamlakatlar joylashgan edi. Bu mamlakatning boyliklari Rim quldorlari va harbiylarini doimo o'ziga jalb qilib kelardi.

Rim sharqqa yurishni Makedoniyadan boshlaydi, Makedoniya ellin davlatlaridan biri bo'lib, Rimning ashaddiy dushmani edi. Rimliklar Makedoniyaga qarshi kurashmoq uchun ustalik bilan ish yuritib, yunonlarga o'zlarini xaloskor qilib ko'rsatadilar. Ular Fessaliyaga o'z qo'shinlarini keltirib joylashtiradilar. Shu yerdan ular Makedoniyani istilo qilishni mo'ljallab qo'yadilar. Ular ayrim

polislari bilan ittifoq tuzib, miloddan avvalgi 197 yilda Fessaliyaga qo`shin tushirib Kinoskefali qishlog`idan Makedoniyaga hujum boshlaydilar. Bu yerda qattiq jang bo`lib, Rim legionlari g`alabiga erishadilar. Mag`lubiyatga uchragan Makedoniya barcha mulklaridan ajralib, Rimga tobe bo`lib qoladi.

Makedoniya erishilgan g`alabadan keyin Rim senati yunon shaharlarining erkinligini tan olgan. Bu xabarni yunonlar xursandchilik bilan kutib olganlar. Lekin ularning xursandchiliklari uzoqqa bormagan. Rimliklar yunonlarining ko`p ishlariga aralashib, ularning erkinligini yo`qqa chiqara borganlar. Bu hol Yunonistonda Rimga qarshi kuchli norozilik uyg`otgan.

Miloddan avvalgi 146 Axeya ittifoqi rimliklarga qarshi qo`zg`olon ko`targan. Qo`zg`olonchilar qarzlarning bekor qilinishini va boylarga ham soliq solishni talab qilganlar. Qo`zg`olonni bostirish uchun Rim qo`shinlari yuborilgan. Ular qo`zg`olon markazi Korinf shahrini ishg`ol qilganlar. Qattiq jang boshlanib ketgan. Ko`p odamlar halok bo`lgan. Shahar vayron qilinib, unga o`t qo`yilgan. Aholining ko`p qismi qul qilib sotib yuborilgan. Yunon shaharlarning ittifoqi tarqatib yuborilgan, ko`pgina shaharlar Rimga itoat ettirilgan.

Miloddan avvalgi 190 yilda Rim qo`shinlari Kichik Osiyoga bostirib kiradilar. Suriya qo`shinlari dushmani Magneziya shaharchasi yonida qarshi oladilar. Har ikki tomon ayevsiz jangga kirishadi. Bu jangda suriyaliklarning qo`shini ko`p edi. Lekin shunga qaramay Rim legionlari jangda g`alaba qozonadilar.

Miloddan avvalgi 188 yilda rimliklar bilan suriyaliklar o`rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Sulh bitimga ko`ra Antiox III Yevropa va Osiyodagi Tavr tog`larining shimolidagi mulklaridan voz kechadi. U barcha jang fillarini va flotini Rimga berishi, shuningdek tovon to`lashi lozim bo`lgan. Ayni paytda rimliklar o`zlarining eski raqibi, Suriyada yashayotgan Gannibalni rimliklarga tutib berishni talab qilganlar. Shunday qilib, rimliklarning zarbalari natijasida Suriyaning qudrati puturdan ketgan. Rim esa O`rta yer dengizdagi eng qudratli davlatga aylangan.

Ikkinchi Puni urushi davrida vayron qilingan Karfagen tez orada o`zini tiklab, mustahkamlanib olgan. Karfagenliklar dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar. Rimliklar esa Karfagenning qayta kuchayishini istamas edilar. Uni doimo asoratda tutmoqchi bo`lganlar.

Miloddan avvalgi 153 yilda Karfagenga kelgan Rim senatori va yozuvchisi Mark Katon shaharning iqtisodiy faravonligini ko`rib, hayratga tushgan edi. U karfagenliklarning ashaddiy dushmani bo`lib, senatda o`z nutqini «Karfagenni vayron qilish kerak», degan so`zlar bilan tugatardi. Rimliklar Karfagen bilan yangidan urush chiqarishga bahonalar izlar edilar. Karfagen bilan Numidiya o`rtasidagi janjallar urush boshlanishiga sabab bo`ladi.

Miloddan avvalgi 149-146 yillarda bo`lib o`tgan urushlar natijasida Karfagen yana vayron qilinib, aholi qul qilib sotib yuborilgan. Uning o`rnida Rimning Afrika viloyati tuzilgan.

Sharqiy O`rta yer dengizi bo`ylari itoat ettirilib, Rimga qo`shib olingandan so`ng endi navbat Ispaniyani bosib olishga yetgan. Bunday harakatlar miloddan avvalgi 206 yildayoq boshlangan edi, biroq Rimliklar mahalliy iberlarning qarshiligiga duch kelgan edi. Miloddan avvalgi 154 yilda Iberiya, miloddan avvalgi 150 yilda Luzitaniya aholisi Rimga qarshi qo`zg`olon ko`tardi. Natijasida qo`zg`olon boshlig`i Virnat Luzitaniya podshosi deb tan olindi. Miloddan avvalgi 139 yilda Virnat sotqin ayol tomonidan o`ldirilgan bo`lsa ham tog`lik numansiya aholisi kurashni davom ettirgan.

Miloddan avvalgi 133 yilda Rim qo`shinlari Numansiya shahrini qamal qilib, uni ishg`ol qilganlar. Natijada Ispaniya va Luzitaniya ham bo`ysundirilib, Rim hududlari Iberiyadan Kichik Osiyogacha, Makedoniyadan Misrgacha cho`zilgan.

MA'RUZA № 13.

Mavzu: Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi

Reja:

1. Qulchilik manbalari.
2. Xo`jalik hayotida qullar mehnatidan foydalanish. Rim jamiyatining ijtimoiy tuzumi.

Adabiyotlar

1. Санчурский Н.В. "Римские древности". М., 1995.

2. Винничук Л. "Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. М. , 1988.
3. История Европы. Т. I. М., . 1988.
4. Кузищин В. И. Античное классическое рабство как экономическая система. М., 1990.
5. Маяк И.Л. Взаимоотношения Рима и итальянцев III-II вв. до н. э. М., 1971.

Tayanch tushunchalar

Klassik qulchilik, qul bozorlari, dengiz qaroqchiligi, Delos qul bozori, Qullar mehnati, Qullarni jazolash, Rim quldorlik tuzumi.

Miloddan avvalgi II asrda Rim olib borgan urushlar natijasida O`rta yer dengizi havzasidagi mamlakatlarning ko`pchiligi vayron etilib, boyliklari shafqatsizlik bilan talangan. Rimliklar qarshilik ko`rsatgan qishloq, shahar va mamlakatlarning aholisini beomon qirib, qolgan qismini esa harbiy asir sifatida haydab ketib qullarga aylantirganlar. Bosib olingan viloyatlarda harbiylar ketidan qul savdosi bilan shug`ullanuvchi savdogarlar-qul (jalloblari) ham borganlar. Ular harbiylardan arzon garovga asirlarni sotib olib, Italiya yoki boshqa o`lkalardagi qul bozorlariga olib borib, katta foydasiga sotganlar. Bu hol Rim va Italiyada qulchilikning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratgan.

Dengiz qaroqchilari ham Italiyaning qul bozorlarini qullar bilan ta'minlab turgan. O`sha vaqtlarda Italiya va joylardagi bozorlarda kunida 10-12 ming qul sotiladigan bozorlar bo`lgan. Masalan, Egey dengizining Delos orolidagi qul bozorlarida har kuni 10 mingdan oshiq qul sotilganligini qadimgi yunon geografi Strabon hikoyalardan bilish mumkin. Rim, Italiya va Yunonistondagi bozorlarda qullarni "jonli buyum" deb ataganlar.

O`rta yer dengizi havzasidagi mamlakatlar orasida Italiya qulchilik yuksak darajada rivojlangan davlat edi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimda qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo`lib, qullar bu sohalarning hammasida mehnat qilganlar. Ammo juda ko`p qullar qishloq xo`jaligida ishlatilgan. Ular davlatga qarashli yerlarda og`ir mehnat qilganlar. Rim aslzodalari katta-katta erkin maydonlariga ega edilar. Qullar aslzodalarning yerlarida omoch bilan yer haydar, mola bilan tekislar, jo`yak ochar, ekin ekar edilar. Hosil pishganda esa ularning hosilini yig`ishtirib olish, uzumlarni ezib sharbatini olish ishlari bilan ham mashg`ul bo`lganlar. Rim va undan tashqaridagi oltin, kumush va ma'dan konlarida 100 minglab qullar mehnat qilganlar.

Rim o`z davrining eng yirik dengiz davlati edi. Karfagen bilan boshlangan urush Rimga kemasozlik bilan jiddiy shug`ullanish kerakligini ko`rsatadi. Rimning dengiz bo`yi shaharlaridagi kemasozlik ustaxonalarida bir necha o`n va yuzlab qullar ishlaganlar. Yirik kemalarni 150-200 tadan iborat eshkakchi qullar harakatga keltirganlar. Italiya va Rim shaharlarini, qishloqlarni bog`laydigan yo`llarni, suv inshootlarini ham qullar qurganlar. Demak, qul - urushda asir tushgan harbiylar, yengilgan mamlakatlarning haydab kelingan aholisi, qaroqchilar o`g`irlab ketgan kishilar va qarz tufayli erksiz bo`lib qolgan kishilardir.

Quldor va aslzodalar ko`plab qul saqlaganlar va ishlatganlar. Ularning aksariyati qullarga nisbatan shafqatsiz bo`lib, ularni ayab o`tirmay og`ir ishlarni qildirishgan. Ayniqsa, tog`-kon ishlari qullarni ezib majruh qilib tashlagan. Hosilni ekish va yig`ib-terish vaqtida qullar 17-18 soatlab mehnat qilganlar. Buning evaziga asosan oziq-ovqat va kiyim-kechak olishgan. Hosilning katta foydasini quldor va aslzodalar ko`rganlar. Ba'zi zamindor quldorlar qullarning oyoqlariga kishan solib, ba'zilar zanjirband qilib ishlatganlar. Chunki ular qullarni qochib ketadi, deb hadiksiraganlar.

Yosh, baquvvat kishi bir necha yil qul bo`lib ishlagach, nogiron bo`lib qolgan, unga hech kim g`amxo`rlik qilmagan. Ishga yaramay yoki qarib qolgan qullarni xo`jayin sotib yuborgan, Tibr daryosining kimsasiz, giyoh o`smas yerlariga olib borib tashlagan. Ular o`sha yerda ochlikdan o`lib ketganlar. Qul o`lib qolsa, quldorlar darhol yangi qul sotib olgan, chunki Italiya qul bozorlarida qullar ko`p bo`lgan.

Quldorlar ko`pincha bir-birining tiliga tushunmaydigan qullar sotib olganlar. Egalari qullarni qo`rqitish maqsadida, ularni qamchilab turgan, badanlariga olov bosgan, oyoq, qo`l, tishlarini sindirganlar. Gunohi uchun o`limga mahkum qilingan qullar tepasiga ko`ndalang taxta

qoqilgan tik ustunlarga tiriklayin mixlab tashlangan. Ular qor, yomg'ir, issiq oftob ostida qolib, azob-uqubat tortib o'lib ketganlar. Ammo qullar o'z zolimlariga nafrat bilan qarab ularga qarshi kurash olib borganlar. Qadimgi dunyoning hech bir mamlakatida Rimdagidek, ko'p qul bo'lmagan va ular Rimdagidek, azob-uqubatga tashlanmagan edi.

Rim jamiyatida qulchilikning taraqqiy etib borishi bilan quldorlik xo'jaligi tizimi ham rivojlanib borgan. Aholini faqat urushlarda emas, tinchlik davrida ham qul qilib sotish yo'li bilan jamiyatni qullarga bo'lgan ehtiyoji ta'minlab turilgan. Yoki istilo qilingan viloyatlarga og'ir soliqlar solish, viloyat soliqlarini ulgurjisiga sotib yuborish yo'li bilan katta boylik to'plangan. Viloyatlar solig'ini sotib olib, uni yig'ib oluvchi ijaradorlar ("publikanlar") qatlami shakllangan. Ular soliq to'plashdan 200-400 % gacha daromad olganlar.

Quldorlik xo'jaligini boshqarish, uni yuritishni ham o'ziga xos tizimi yuzaga kelgan. Bu haqda Mark Katon (miloddan avvalgi 234-149) o'zining "Dehqonchilik" nomli asarida ma'lumotlar bergan.

Rim jamiyatida qullarning ozgina qismi o'z ahvolini yaxshilash yo'lini bilgan va xizmatlari evaziga ozodlik olishga erishgan. Bundaylarni "Libertinlar" deyilib, xo'jayinlariga ma'lum darajada qaram bo'lib qolaverganlar. Xo'jayinlar esa o'z xo'jaliklarini idora qilishni libertinlarga topshirganlar. Ularning biri ko'pchilik qismi hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar.

Italiyada quldorlikni rivojlanishi bilan Apennin yarim orolida erkin qishloq aholisining xonavayron bo'lishi jarayoni davom etgan. Bu jarayon Etruriya, Lasiya va Kampaniya viloyatlarida ancha kuchli bo'lgan, unga Sisiya va Afrikadan keltirilgan arzon bug'doy ham sabablardan biri edi.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Rim fuqaroligi asosan ikki ijtimoiy qatlama bo'lingan. Ularning biri yer-mulkidan ajralib xonavayron bo'lgan katta qatlam bo'lsa, ikkinchisi katta miqdordagi moddiy boyliklarni qo'lida to'plab, siyosiy hayotda hukmronlik qilayotgan nobillar va suvoriylar edi.

Miloddan avvalgi II asrning 30 yillariga kelib Rim respublikasi O'rta yer dengizi sohilining eng qudratli quldorlik davlatiga aylandi, quldorlik jamiyati o'z ijtimoiy taraqqiyotining to'laqonli darajasiga yetdi.

MA'RUZA № 14.

Mavzu: Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Rimning ichki siyosati

Reja:

1. Miloddan avvalgi II asrda Rimdagi ichki siyosat. Qullar qo'zg'olonlari.
2. Dehqonlarning ahvoli.
3. Grakxlarning islohotlari.

Adabiyotlar

1. История древнего мира. Расцвет древних обществ. Под. ред. И.М. Дьяконова М., 1989.
2. Егоров А.Б. Рим на грани эпох. Л., 1985.
3. Санчурский Н.В. Римские древности. М., 1995.
4. Штаерман Е.М. Расцвет рабовладельческих отношений в Римской Республике, М., 1964.
5. Бойназаров Ф. Антик дунё. Тошкент, 1989.
6. Словарь Античности. М., 1989.

Tayanch tushunchalar

Ichki siyosatda "tartib o'rnatish". Lasiyada qullar qo'zg'oloni. Etruriya qo'zg'oloni. Ssipion Emilian. Sisiliya qo'zg'oloni, Yevn va Kleon, "Yangi Suriya". Pergam. Aristonik. Dehqonlar ahvoli. Tiberiy Grakx. Gay Grakx islohotlari.

Rim quldorlik davlati Puni urushlardan so'ng qo'lga kiritilgan behisob boyliklar va qullar mehnati natijasida o'z taraqqiyotining klassik bosqichiga kirgan edi. Barcha xo'jalik sohalarida

qullar mehnatidan eng yuqori darajada foydalanilar, ularni eng ayovsiz jazolanar edi. Miloddan avvalgi II asrdagi Rim davlatining ichki siyosati asosan ikki yo`nalishga qaratilgan bo`lib bularning birinchisi istilo qilingan mamlakatlarni itoatda saqlash bo`lsa, ikkinchisi qullar qo`zg`olonlarini bostirishdan iborat bo`ldi. Qullar qo`zg`olonlari Rim jamiyatini larzaga solib, turar va ichki siyosatdagi asosiy muammo edi.

Rimda qullar miloddan avvalgi V asr oxiridayoq birinchi marta qo`zg`olon qilishga uringanlar.

Miloddan avvalgi 198 yilda Lasiyada qullar g`alayoni yuz bergan. Miloddan avvalgi 196 yilda Etruriyada qullar qo`zg`olon ko`targan bo`lsalar, miloddan avvalgi 185 yilda Apuliyada podachi qullar qo`zg`olon ko`tarishga uringan. Markaziy va Janubiy Italiyada, ayniqsa, Sisiliyada yirik qishloq xo`jaligida ishlovchi qullarning keskin ko`payishi natijasida miloddan avvalgi II asrning uchinchi choragida ularning harakati kuchaygan.

Miloddan avvalgi 138 yilda Yevn degan kishi Enna shahri hukmdoriga qarshi fitna uyushtirib, qo`zg`olon boshlangan. Yevn o`zini podsho deb e`lon qilib, davlatini "yangi Suriya" deb atagan (chunki Yevn miloddan avvalgi 130 yildagi Suriya qo`zg`olonini ishtirokchisi edi). Qullar ichidan podsho kengashi tanlab olingan.

Sisiliyaning g`arbiy qismida Kilikiyada tug`ilgan Kleon boshchiligida qo`zg`olon ko`tarilib, Yevnga qo`shilganlar, hamda uni podsho sifatida tan olganlar. Enna, Tavromeniya va boshqa bir qator shaharlarni qo`lga olib, Rim qo`shinlariga zarba berganlar. Qo`zg`olonchilar mayda erkin dehqonlarga tegmaganlar, hunarmandlarni esa o`zlariga qurol yasashga majbur qilganlar.

Sisiliya qo`zg`oloni boshqa joylarga ham ta`sir qilgan. Bundan tashvishga tushgan Rim senati konsul Rutiliy boshchiligida katta kuch yuborgan. Miloddan avvalgi 132 yilda qattiq janglardan keyin qo`zg`olonchilarning bosh istehkomi Tavromeniya egallangan.

Qo`zg`olon boshliqlaridan Kleon jangda o`ldi. Yevn esa asir olinib, qamoqxonada qiynab o`ldirildi. Qo`zg`olonchilardan qattiq o`ch olindi.

Miloddan avvalgi 133 yilda Pergamda Aristonik boshchiligida Rimga va qulchilikka qarshi qo`zg`olon ko`tarilib, qulchilik bo`lmaydigan "Geliopolis" ("Quyosh shahri") davlatini tuzishga harakat qilingan. Biroq bu harakat ham bostirilgan.

Rim quldorlik davlati bilan Italiyadagi boshqa qabilalar o`rtasidagi kurash dehqonchilikning rivojlanishiga yomon ta`sir ko`rsatgan. Gallar va Gannibal boshliq Karfagen qo`shinlari bilan rimliklarning uzoq vaqt davom etgan urushlari ham Italiya dehqonlarining ahvolini battar yomonlashtirgan. Ammo bu urushlar vaqtida Rim aslzodalari, harbiylari va savdogarlari yerli aholini talab juda boyib ketganlar. Italiyaning erkin dehqonlari Iberiya, Karfogen, Yunoniston va Kichik Osiyodagi urushlarga jalb qilingan edi. Jang vaqtida bu dehqonlarning aksariyati halok bo`lganlar. Bularning hammasi dehqon xo`jaliklarining ahvolini yomonlashtirib yuborgan. Italiyaga boshqa joylardan ko`plab kullarning keltirilishi dehqonlarning yanada xonavayron bo`lishiga olib kelgan. Bundan yersiz va kam yerli dehqonlar ko`proq jabr ko`rganlar.

Ilgari Italiya zamindorlari yersiz va kam yerli dehqonlarni ishlatar edilar. Endilikda yerga ishlov berib, dehqonchilik qilishda qullar mehnati arzon tushgan. Dehqonlar o`zlari yetishtirgan mahsulotlarni arzimagan bahoda sotishga majbur bo`lganlar. Tirikchilik og`irlashgan. Natijada dehqonlar o`z yerlarini arzon garovga sotib, boshqa shaharlarga ko`chib ketganlar. Biroq u yerlarda ham dehqonlarining ahvoli yaxshilanmagan. Bu hol qishloq va shaharlarda ishsiz, boshpanasiz va bechorahol odamlarning ko`payib ketishiga olib kelgan.

Italiyadagi erkin dehqonlarning boshiga tushgan kulfatlar mamlakatdagi ba`zi arboblarni tashvishga solib qo`ygan. Chunki erkin dehqonlar kamaysa, Rim legionlarida xizmat qiladigan jangchilar kamayib ketardi. Bu Rimning harbiy qudratiga ham putur yetkazardi. Erkin dehqonlarni joyida saqlab qolish uchun o`sha davrning ilg`or fikrli kishilari ayrim choralar izlaganlar.

Miloddan avvalgi 141 yilda Leliy, Tiberiy va boshqalar jamoat dalasidagi yerlarni ijaraga olish olish huquqini cheklash to`g`risidagi qonun loyihasini tayerladilar. Uni xalq majlisi va senat muhokamasiga qo`ymoqchi bo`ladilar. Ammo bu loyiha katta yer egalarning noroziligiga sabab bo`ladi. Leliy o`z qonun loyihasini qaytarib olishga majbur bo`ldi.

Yer islohotini o`tkazish tarafdorlaridan biri Tiberiy Grakx edi. U Rim aslzodalarining eng yuqori toifasiga mansub kishilaridan bo`lib, Karfagen urushning dongdor ishtirokchisi, Ispaniyadagi konsul, Mansinning bosh xazinachisi bo`lib ishlagan. Plutarxning yozishicha, u Ispaniyada Etruriya orqali o`tib borayotganida yerlarning qarovsizligidan, qo`shchi, podachi va yot o`lkalardan kelgan qullarning og`ir ahvollarini ko`rib, quldorlardan nafratlanar.

Tiberiy Grakx chet eldan qaytib kelgach, miloddan avvalgi 133 yilda xalq tribuni lavozimiga saylangan. U ham Leliy kabi jamoat yerlarini ijaraga olish huquqini cheklashni zarur deb hisoblagan. Tiberiy yer to'g'risidagi yangi qonunlarini taklif etgan. Qonunga qo'ra har bir Rim oilasi 250 yugerdan yerni ijaraga olish huquqiga ega deb hisoblangan. Grakx katta yer egalarining ortiqcha yerlarini davlat hisobiga o'tkazib, undan rimlik dehqonlarga bo'lib berishni ham taklif etgan. Tiberiy sotmaslik, ijaraga bermaslik va tortiq qilmaslik sharti bilan yersiz dehqonlarga 80 yugerdan yer bo'lib berishni ham taklif etgan. Grakx o'z loyihasini xalq majlisida tasdiqlatib olgan. Loyiha tasdiqlangach, uni amalga oshirish uchun komissiya tuzilgan. Ammo davlat yerini qonunsiz egallab turgan boy yer egallaridan iborat senat Grakx taklifini g'azab bilan kutib olgan va rad qilgan.

Tiberiy o'z loyihasini amalga oshirish uchun sabot bilan kurashgan. U Italiyaning turli tomonlaridan Rimga kelgan kambag'allar yig'inida alangali nutq so'zlab, taklif qilgan qonunlarning xalq uchun, davlat uchun muhim ekanligini isbotlab bergan. Yig'inda qizg'in tortishuvlar bo'lib, kambag'allar Tiberiyni qo'llab-quvvatlaganlar. Bu yig'inda uning qonun loyihasi qabul qilingan. Senat a'zolari xalq g'azabidan qo'rqib, yig'inning qaroriga qarshi chiqa olmaganlar. Tiberiy va boshqalardan tuzilgan komissiya ortiqcha yerlarni yersiz dehqonlarga bo'lib berishga kirishganlar. Tiberiyning dushmanlari esa zimdan ish ko'rib, uni obro'sizlantirishga uringanlar, podsho bo'lmoqchi deb, unga bo'htonlar yog'dirganlar. Senatorlar Rim konsulidan Tiberiyni sud qilishni talab qilganlar. Konsul ularning talabini rad etgan. Xalq majlisi borayotganda Tiberiyning dushmanlari unga va sheriklariga hujum qiladilar. Ashaddiy senatorlar qurolsiz Tiberiy va uning sheriklaridan 300 kishini so'yil va kaltaklar bilan urib o'ldirganlar. O'ldirilganlarning jasadini jinoyatchi sifatida Tibr daryosiga uloqtirganlar. Shunday qilib, kambag'allar uchun jon kuydirgan xalq tribuni Tiberiy Grakx ham o'z vazifasini bajarayotganida o'ldirilgan.

Rim senatining islohotiga qarshi guruhi Tiberiy Grakxning vafotidan keyin uning ukasi Gay Grakxni Sardiniya oroliga vaqtincha noib qilib yuborishga erishganlar. Grakx Sardiniyadan qaytib kelgach, miloddan avvalgi 123 yilda xalq tribuni bo'lish uchun o'z nomzodini qo'ygan va bu lavozimga saylangan. U akasi boshlagan ishni davom ettirish uchun sabot va matonat bilan kurashgan. U akasining islohotlarini oxiriga yetkazishga qasam ichgan.

Grakx o'z ishini sanoatda tarafdorlar to'plashdan boshlab, suvoriylarga tayanib ish ko'rgan. U shahar kambag'allarini o'ziga tortish uchun yangi yo'llar qurish to'g'risida senatdan qonun chiqartirib olgan. Bu bilan Rimdagi erkin aholining eng kambag'al qatlamini uzoq vaqt daromadli ish bilan ta'minlashga erishgan. U Rim aholisining eng kambag'al qismiga davlat zahiralari va omborlaridan arzon baho bilan don sotish to'g'risida ham qonun chiqartirgan. Shu yo'l bilan u Rim kambag'allarini o'z tomoniga ag'darib olgan. Shundan keyin u akasi davrida boshlanib, vafotidan keyin to'xtib qolgan yer islohoti komissiyasi ishini jonlantirib, akasining qotillarini jazolash to'g'risida qonun chiqartirib olgan. Grakx davrida juda ko'p kambag'allar yer olganlar. U senat hokimiyatini cheklashgan va kambag'allarning ham davlatni boshqarish ishlarida ishtirok etishlari uchun harakat qilgan.

Rim konsullari va senatorlar Grakxdan ancha qo'rqqanlar. Shuning uchun uni yersiz dehqonlarga koloniya tashkil qilish maqsadida Karfagenga yuborganlar. Ular Grakx va uning tarafdorlari bilan ataylab to'qnashuvlar o'tkazganlar. Bu to'qnashuv vaqtida yangi konsulning xizmatchisini o'ldirganlar. Konsul va senat Grakx va uning tarafdorlarini qotillikda ayblab sudga bergan. Sud ularni javobgarlikka tortgan. Grakx va uning tarafdorlari buni bo'hton deb, Rim xalqini senatga qarshi kurashga undaganlar. Kambag'allar va qullar Grakx tomonga o'tib, ular bir tepalikka joylashib olganlar. Italiya konsuli Lusiy Opimiy qo'zg'olonchilar ustiga qo'shin yuborgan. Senat esa Grakx boshini olib kelgan kishiga uning kallasi og'irligida oltin va'da qilgan. Konsul qo'shinlari qo'zg'olonchilarni qochishga majbur qilganlar. Harakat rahbarlaridan Fulviy Flakx qo'lga tushirilib, qatl etilgan. Grakx qochib ketayotib, konsul suvoriylari tomonidan ushlab olingan. Grakx dushmanlari qo'lida halok bo'lishni xohlamay, o'z quliga o'ldirishni buyurgan. Miloddan avvalgi 121 yili quli uni o'ldirgan. Shunday qilib, aka-uka Grakxlar boshchilik qilgan yer islohoti muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Mavzu: Miloddan avvalgi II-I asrlar bo'sag'asida Rimdagi ijtimoiy-siyosiy kurash

Reja:

1. Yugurta urushi va Gay Mariyning harbiy-siyosiy islohotlari
2. Miloddan avvalgi II-I asrlar bo'sag'asida ijtimoiy-siyosiy kurash
3. Ittifoqchilar urushi. Sulla diktaturasi

Adabiyotlar

1. Ботвинник М.Н. и др. Жизнеописания знаменитых греков и римлян. М., 1988.
2. История древнего мира. Под.ред. И.М. Дьяконова.. М., 1989.
3. Плутарх. Избранные жизнеописания. Т. I. М., 1987; Т. II. М., 1987 (Гай Марий, Сулла, Лукулл, Красс, Помпей)
4. Утченко С.Л. Древний Рим: События, люди, идеи. М., 1969.
5. Кадимги дунё тарихи. Тошкент, 1975. II-кисм.

Tayanch tushunchalar

Optimatlar, Spuriy Toriy, Numidiya podsholigi, Yugurta, Gay Mariy, Vatan otasi, Appuliy Saturnin, Ittifoqchilar urushi. Sulla diktaturasi.

Rim jamiyatida miloddan avvalgi 130-120 yillardagi agrar islohotlar natijasida yer va qullarni bir qo'lga to'planish jarayoni bir qadar sekinlashgan bo'lsa-da, miloddan avvalgi II asr oxirlariga kelib yana kuchaydi. Miloddan avvalgi III yilda **optimatlar** (yirik yer egalari) tashabbusi bilan xalq tribuni Spuriy Toriy o'tkazgan qonunga binoan Rim fuqarolarining egalik qilib turgan barcha yerlari ularning xususiy mulki bo'lib qolgan. Bu qonundan keyin mayda yer egalari o'z yerlarini yana sota boshlaganlar. «Senzlilar», ya'ni harbiy xizmat o'tashi lozim bo'lganlarning soni yana tez kamaya boshlagan. Natijada Rim armiyasi ham kamaya borib, Yugurta urushi davrida (miloddan avvalgi 111-105 yillar) uning salbiy oqibatlari sezilib qolgan.

Mil. avv. III yilda Numidiya podshosi o'lgandan keyin Rim suvorilarining talabi bilan mamlakat marhum podshoning uch nevarasiga bo'lib berilgan. Mamlakat aholisi va shahzodalardan biri Yugurta mamlakatni bo'linib ketishi va Rimning to'la hukmron bo'lishiga qarshi chiqqan. Yugurta numidiyaliklarga tayanib o'z qarindoshlari mulkiga hujum qilgan. Ulardan biri o'ldirilib, ikkinchisi Rimga qochib ktgan. Rim sudi Yugurtani sudga chaqirganda u borib, o'zini oqlashga erishgan. Biroq Senat Numidiyani yana bo'lgan. Endi ikkiga ajratib Yugurta va uning qarindoshiga bergan. Yugurta yana urush ochib Numidiya poytaxti Sitrani ishg'ol qilgan. Rim sudi Yugurtani Rim xalqining dushmani deb e'lon qilgan va urush harakatlari boshlangan. Rimliklar juda bo'sh harakat qilganlar.

Rim armiyasi rahbarlaridan biri Gay Mariy 107 yilda armiyani sog'lomlashtirish yuzasidan bir qator takliflarni qo'ygan. U shu yili konsul bo'lib saylangach mayda yer egalari va hunarmandlar ichidan rekrut to'plash o'rnida ko'ngillilardan legionlar tuzish tartibini joriy qilgan. Lyumpen-proletariat ham ko'ngilli bo'lib legionlarga kirishi mumkin bo'lgan. Har bir legion o'nta kogortaga bo'linib, o'z belgilariga ega bo'lgan. Legionlar qisqa irg'itma nayzalar (pilum) bilan qurollantirilgan. Ular o'zlari bilan to'siqlar olib yurib, mustaqamlangan lagerlar ham qurganlar. Mariy armiyasida qattiq intizom o'rnatilgan.

O'tkazilgan islohotlar natijasida Rim armiyasining jangovarlik qobiliyati keskin o'sib ketgan. Mil. avv. 105 yilda urush harakatlari tugab Rim g'alaba qilgan. Yugurta ushlanib Rim lageriga keltirilgan.

Mil. avv. 113 yildan boshlab O'rta Yevropa markazida yashaydigan **Kimvrlar** qabilalari ko'chib Shimoliy Apenninga joylasha boshlaganlar. Ularga hujum qilgan Rim konsuli Papiriy Karbon mag'lubiyatga uchragan. Mil. avv. 109 yilda Kimvrlar Tevtonlar bilan birlashib Rodon daryosining yuqori qismidagi yerlarga bostirib kirganlar. Ularga hujum qilgan boshqa bir legion

ham tor-mor qilingan. Mil. avv. 105 yilda Kimvrlar va Tevtonlarning birlashgan kuchlari Rodon daryosining quyi oqimida, Arauzion shahri yonida rimliklarning ikkita kuchli armiyasini ham tor-mor qilgan. Rim va Italiya yovvoyi gallarning bosqini xavfi ostida qolgan. Lekin g'oliblar kutilmaganda orqaga qaytib Galliyaning g'arbiy viloyatlari va Pireney yarim orolining shimoliy qismiga g'arab yo'l olganlar. Rim armiyasiga Gay Mariy qo'mondon qilib saylangan. Mil. avv. 102-101 yillarda Kimvr va Tevtonlar, miloddan avvalgi 104-101 yillardagi ikkinchi Sisiliyadagi qullar qo'zg'olonida qozonilgan g'alabalar Mariy obro'sini yanada oshirgan. Senat unga Vatan otasi va Rimning ikkinchi asoschisi degan unvon bergan.

Senatda yirik mulkdorlar guruhlar o'rtasida o'zaro kurashlar qizigan. Gay Mariy Saturnin va Glavsiy (bular populyarlar)lar bilan kelishib, optimatlarga qarshi chiqib, suvorilar va plebs manfaati uchun qator qonunlar chiqartirganlar.

Siyosiy kurashlar jarayonida miloddan avvalgi 92 yilda xalq tribuni qilib Mark Liviy Druz saylangan. Bu andishali siyosiy arbob boshlanib ketishi mumkin bo'lgan ijtimoiy kurashlarning oldini olish uchun bir qator islohotlar o'tkazish zarur deb hisoblagan. Jumladan viloyat noiblarining xiyonatlarini Senat sud komissiyasiga topshirish to'g'risida, arzon narx bilan don tarqatishni kengaytirish, Rimning barcha ittifoqchilariga Rim fuqaroligi huquqlarini berish to'g'risidagi takliflar bilan chiqqan. Ittifoqchilarning bir qator siyosiy arboblari Liviy Druz bilan maxfiy aloqa bog'laganlar.

Senatda Qonun loyihalari muhokama qilinayotgan paytda Liviy Druzning ittifoqchilar bilan aloqalari ma'lum bo'lib qolib, uning qabul qilingan qonun loyihalari bekor qilingan va uning o'zi o'ldirilgan. Bu voqealar ittifoqchilarning qattiq noroziligiga sabab bo'lib, ularni Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tarishlariga sabab bo'lgan. Bu urush tarixda Ittifoqchilar urushi yoki Marsiya urushi nomi bilan kirgan.

Harakat Avskul shahridan boshlanib, aholi Liviy Druz o'ldirilganligini eshitib shahar teatriga yig'ilgan. Bu yerga kelgan Rim pretorini haqoratli nutqiga qarshi bosh ko'tarib, uni jazolab, askarlarini ham kaltaklaganlar. Shundan so'ng boshqa ittifoqchilar ham qo'zg'olonga chaqirilgan. O'rta va janubiy Italiyaning katta qismida Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Yirik qurdorlik xo'jaliklari rivojlangan Umbriy va Etruriya viloyatlari, Apenin yarim orolidagi koloniyalar esa Rim tomonida turganlar.

Samniylar, lukanlar va O'rta Italiyadagi Marslar qo'zg'olonga faol ishtirok etganlar. Marslardan Kvint Silon va samniylardan Gay Papiy Mutil qo'zg'olonga boshchilik qilganlar.

Urush og'ir va keskin borgan. Dastlab Janubiy Italiyadagi bir necha shaharni egallab, Rim qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratganlar.

Qo'zg'olonchi italiklar davlat tashkilotlari tuzishga harakat qilganlar. Korfiniy shahrini ular poytaxt deb qilganlar va uning nomini Italiya qilib o'zgartirganlar. Senat tuzib, 500 senat a'zosi, ikkita konsul hamda 12 ta pretor saylangan. Tanga pullar zarb qilingan, unda Rim bo'risini, suzib yurgan italiy ho'kizining surati solingan.

Urushdagi jiddiy muvaffaqiyatsizliklar rimliklarni ittifoqchilarga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga majbur etgan. Mil. avv. 90 yilda Lusiy Yuliy Sezar Rimga sodiq bo'lgan ittifoqchilarga Rim fuqaroligi huquqlarini tortiq qilish to'g'risida Qonun chiqartirgan. Mil. avv. 89 yil boshlarida e'lon qilingan qonunga ko'ra esa ikki oy davomida qurolini tashlagan ittifoqchi qo'zg'olonchilarga ham Rim fuqaroligi va'da qilingan. Bu hol aholini yuqori tabaqalarini Rim tomonga o'tishiga sabab bo'lgan va ustunlik sekin-asta Rimga o'tgan. Samniylar, lukanlar va marslar kurashni davom ettirsalarda, miloddan avvalgi 89 yilda ularning poytaxti Korfiniy egallangan. Qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlari miloddan avvalgi 88 yilda tor-mor qilingan bo'lsa-da, ba'zi tog'lik rayonlarda urush harakatlari yana anchagacha davom etgan. Mag'lub bo'lishiga qaramay ittifoqchilarning ko'pchiligi Rim fuqaroligi huquqini olganlar. Bu esa ittifoqchilarning katta yutug'i edi.

Rim davlati ittifoqchilar bilan urushlar tugar-tugamas O'rta dengiz sharqidagi Pont podsholigi bilan uzoq va og'ir davom etgan urushga kirishga majbur bo'ldi. Pont podshosi Mitridat VI Yevpator qudratli armiya va katta flot barpo qilib, Armaniston podshosi Tihron II bilan ittifoq tuzib Rim davlatining sharqiy hududlariga Kappadokiya va Vifiniya davlatlarini bosib olgan. Pont podsholigining agentlari Rimning Osiyo viloyatlarida aholini qo'zg'olon ko'tarishga undaganlar. Yana ular bir qator Rim viloyatlariga ham bostirib kirganlar. Shular sabab bo'lib miloddan avvalgi 88 yilda Rim Pontga qarshi urush boshlagan. Urush harakatlarini olib borishni Sullaga topshirilgan. Senat qarorini o'zgartirib, harbiy yurish qilishdan Sulla legionlari chaqirib olingandan keyin esa

Sulla Rimga yurish qilib, uni ishg'ol qilgan. Mil. avv. 87 yilda Sharqdagi urush harakatlarini davom ettirgan. Bolqon yarim orolida urush harakatlari muvaffaqiyatli davom etgan, Makedoniya ishg'ol qilingan. Mil. avv. 86 yilda Xeroniya tog'i yonidagi jangda Mitridat armiyasini tor-mor qilgan. Mil. avv. 85 yilda Sulla va Mitridat o'rtasidagi sulh Dardan shaharchasida imzolangan. Shundan so'ng miloddan avvalgi 83 yilda Rimga kelib, raqiblari populyarlardan o'ch olib, Rimda o'z diktaturasini o'rnatgan. Dushmanlarni jazolash uchun **«proskripsiya»** joriy qildi. Proskripsiya – dushmanlar ro'yxatidir.

Sullaning siyosiy faoliyati miloddan avvalgi 79 yilgacha davom etib, miloddan avvalgi 78 yilda o'lgan. Sulla tartiblari, u o'rnatgan diktatura Rimning respublika tuzumiga qaqshatgich zarba berdi. Yana bu tartiblar Respublika tuzumini umri tugab borayotganligini ham ko'rsatar edi.

MA'RUZA № 16.

Mavzu: Respublika tuzumining inqirozi va ilk Rim imperiyasi davri

Reja:

1. Rimda harbiylar hokimiyatining kuchayishi. Uchlar ittifoqi.
2. Sezar diktaturasi.
3. Oktavian Avgust davrida Rim.

Adabiyetlar:

1. Шифман И.Ш. Цезарь Август. М., 1996
2. Утченко С.Л. Юлий Цезарь. М., 1976.
3. Машкин Н.А. Принципат Августа. М-Л., 1949.
4. Ботвинник М.Н. и др. Жизнеописание знаменитых греков и римлян М., 1988
5. Историки античности Т.П. М., 1989.
6. Гай Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати Цезарей. М., 1988.
7. Плутарх. Избранные жизнеописания. Т.П. М., 1987
8. Федорова Е.В. Императорский Рим в лицах. М., 1979.

Tayanch tushunchalar

Spartak qo'zg'oloni, Gney Pompey, Sezar Krass, uchlar ittifoqi, Sezar diktaturasi, fuqarolar urushi, Oktavian Avgust, ichqi va Tashqi siyosat.

Miloddan avvalgi I asrning birinchi choragida Rim davlatida hoqimiyat uchun kurashlar qizib bordi. Ayniqsa Sharqiy viloyatlarida Pont va Parfiya davlatlari bilan uzoq davom etgan urushlar xalqning tinka-madorini quritdi. Miloddan avvalgi 74-71 yillarda bo'lib o'tgan Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni natijasida ham mamlakatning katta qismi vayron bo'ldi.

Miloddan avvalgi 80-60 yillarda Rim yollanma qo'shining kuchayishi natijasida harbiylarning mavqei oshadi. Urush ko'rgan harbiy arboblarning senatining topshirig'iga binoan alohida-alohida legionlar tashkil qilganlar.

Gney Pompey o'z davrida Rimning eng mashhur siyosiy arboblardan biri bo'lib, o'zining harbiy mahorati bilan rimliklar orasida shuhrat qozongan edi. U senat topshirig'i bilan harbiy flot va quruqlikdagi qo'shinga qo'mondon etib tayinlanadi. O'sha vaqtlarda butun O'rta yer dengizda qaroqchilik kuchayib ketgan. Ular dengiz savdosi va kema qatnoviga katta zarar keltirmoqda edilar. Pompey dengiz qaroqchilarga qarshi kurash boshlab, uch oy ichida O'rta yer dengizi qaroqchilardan tozalagan. U qaroqchilarning 120 ta istehkomini egallab, 10 mingdan ortiq qaroqchilarni qirib toshlagan. Shunday qilib, O'rta yer dengiz havzasida osoyishtalik o'rnatgan.

Pompey Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya va boshqa joylaridagi urushlarda katta g'alabalar qozonib, miloddan avvalgi 62 yilda Rimga qaytib keladi. Miloddan avvalgi 60 yillarda uchta siyosiy asbob - Pompey, Krass va Yuliy Sezar Rimni birgalashib boshqarishga kelishib oldilar. Dastlab ular bir-birlarini quvvatlab ish olib borganlar. Bunday kelishuv I triumvirat deyilgan.

Miloddan avvalgi 59 yilda Sezar Krass va Pompeylarning qo'llab-quvvatlashi natijasida konsulikka saylangan. U konsulikka saylangach, Krass Suriya va unga qo'shi bo'lgan viloyatlarga, Pompey esa Ispaniyaning ikki viloyatiga noib etib tayinlangan. Sezarning o'zi esa Galliya va Illiriya noibi etib tayinlangan. Krass Suriya va Messopatamiyada urushlar olib borib, miloddan avvalgi 53 yilda partiyaliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi.

Sezar Rimda o'z mavqeini mustahkamlab olgach, o'ziga berilgan Galliyaga jo'nab ketadi. U miloddan avvalgi 58-56 yillarida Galliya tuprog'ida urushlar olib boradi. U Alp tog'lariyu Reyn daryosi sohillaridan Atlantika okeani hamda Pireney sohillarigacha bo'lgan yerlarni Rim hukmronligiga itoat ettiradi.

Miloddan avvalgi 55-54 yillarda u Britaniya oroliga ikki marta yurish qiladi. Sezar butun Galliyani bosib olgach, kuchli qo'shin tuzib, juda boyib ketadi.

Sezarning asosiy maqsadi Rimda hokimiyatni egallash edi. Miloddan avvalgi 49 yilda u o'z qo'shinlari bilan Galliyadan Rim tomon yuradi. Rim senati Sezarning butun Rimga hukmron bo'lishini xohlamas edi. Shu tufayli Rim senati qo'shin qo'mondonligiga Pompeyni tayinlab, Sezarga qarshi qo'yadi. Lekin Pompey Rim mudofaasini tashkil etolmay, Bolqon yarim oroliga ketishga majbur bo'ladi. Sezar qarshiliksiz Rimni va butun Italiyani ishg'ol qiladi. U Rimga kelgach, darhol o'zini diktator deb e'lon qiladi. U Rim diktatori bo'lib olgach, uning qo'shinlari miloddan avvalgi 48-45 yillarda Bolqon yarim orolida, Kichik Osiyoda, Suriyada va Misrda katta g'alabalarni qo'lga kiritadi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi Sezarga urushsiz taslim bo'ladilar. Sezar Bolqon yarim orolida Pompey qo'shinlarini tor-mor etadi. Pompey Misrga qochib ketadi. Boshpana izlab kelgan Pompey Misr podshosi tomonidan o'ldiriladi. Pompey o'ldirilgach, Sezar Misrdagi fuqarolar ishiga aralashib, Misr malikasi Kleopatrani qo'llab-quvvatlaydi va hokimiyatni unga olib beradi. Sezar Kichik Osiyoda ham qonli urushlar olib boradi. Pont podsholigini yengib uni o'z ta'siriga oladi. Afrikada olib borilgan urushlar ham Sezar foydasiga hal bo'lgan.

Shu davrda Pompeyning ikki o'g'li Ispaniyada Sezarga qarshi katta kuch to'plamoqda edi. Sezar Pompey o'g'illari ustiga qarshi qo'shin tortib ularni tor-mor keltiradi. Bu jang miloddan avvalgi 45 yil Ispaniyaning Mund degan joyida bo'ldi. Ulardan biri jangda halok bo'ladi, ikkinchisi Shimoliy Ispaniya tog'lariga qochib ketadi. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi nihoyasiga yetgan. Fuqarolar urushidan keyin Rimda Sezarning mavqei yanada kuchayib ketgan.

Sezar o'zining zafarli yurishlaridan qaytib kelgach, cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. U o'zini Rimning mutlaq hukmdori-diktatori deb e'lon qilgan. Endi Rim konsullari va senatorlari uning buyruqlarini so'zsiz bajarishlari lozim edi. Sezar imperator bo'lib olgach, saltanatini mustahkamlash uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. U birinchi navbatda Rim qo'shinlarini kuchaytirgan. Rimda birinchi marta oltin pul-dinorni zarb etgan. Tanga pullarga uning rasmi ham tushirilgan. U o'z nomidan Yuliy taqvimini ham joriy qilgan. Rimda respublika tuzumi bekor qilinib, Sezarning yakka hokimligi joriy qilingan. Senat uning yakka hokimligini tan olishga majbur bo'lgan va faxrli oltin taxtda-kursida o'tirishga ijozat bergan. Shunday qilib, Sezar katta Rim saltanatining mutlaq humdori bo'lib olgan. Sezarning qudratli imperator darajasiga ko'tarilishida uning lashkarboshilari va askarlari asosiy o'rin tutganlar. Shuning uchun u lashkarboshilari va askarlariga ko'plab qimmatbaho buyumlar va yerlar hadya qilgan. Sezar o'z davrining mohir lashkarboshisi va tadbirkor davlat arbobi bo'lgan. U mamlakatda qishloq xo'jaligini, hunarmandchilikni va savdo-sotiqni rivojlantirishga ham katta e'tibor bergan.

Sezar har qancha mashhur va har qancha ulug' bo'lmasin, uning dushmanlari ham ko'p edi. Uning siyosati va tanho hukmronligidan Rim aslzodalari va senatorlarning bir qismi norozi edi. Sirkdagi tomoshalarining birida Sezarga imperatorlik toji kiydiriladi. Bundan uning dushmanlari g'azabga keladilar. Rim aslzodalar, senat a'zolariga Sezarning tanho hokimligi kerak emas edi. Ular Rimda boshqariladigan respublikani saqlab qolish tarafdorlari edilar. Shuning uchun ular Sezarni o'ldirish payiga tushadilar. Sezarga ko'p marta suiqasd ham uyushtiriladi.

Miloddan avvalgi 44 yilda Sezar sharqqa harbiy yurish uyushtirishdan oldin Yupiter bayrami kuni senat majlisiga boradi. Shu majlisda Kassiy va Brut rahbarligidagi fitnachilar Sezarni o'rab olib, kiyimlari ostiga yashiringan xanjar bilan uni 23 joyidan yarador qiladilar. Butun yeri chavaqlangan Sezar shu yerning o'zida o'ladi. Qilmishlaridan qo'rqib ketgan fitnachilar vahimaga tushib, Rim qal'asi Kapitoliyga borib yashiringanlar. Shunday qilib Sezarning Rimda yakka hokimiyat o'rnatish uchun qilgan harakatlari qattiq qarshilikka uchraydi.

Sezar vafotidan keyin uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Ular Sezar chiqargan qarorlarni bekor qilib, uning jasadini Tibr

daryosiga tashlashni talab qilganlar. Siseron boshchilik qilgan ko'pchilik senatorlar esa Sezar chiqargan qarorlar, farmonlar va ko'rsatmalar o'z kuchida qolib, fitnachilar afv etilsin degan qarorga kelganlar.

Shundan keyin Sezarning jasadi forumda kuydirilgan. Shu yerda unga mehrob qo'yilib, uni ilohiy zot deb e'lon qilganlar. Rim aholisining ko'pchiligi fitnachilarni qo'llab-quvvatlamagan. Aksincha, ularning Rimdan ko'chib ketishini talab qilganlar. Rim senatida ikki oqim paydo bo'lgan. Biri Siseron boshliq respublikachilar bo'lsa, ikkinchisi – Sezarning sobiq yordamchisi Antoniy boshliq sezarchilar oqimi edi. Miloddan avvalgi 40-50-yillarda bu ikki oqim tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etgan. Bu esa mamlakatda fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'lgan. Sezar tarafdorlaridan biri Oktavian edi.

Miloddan avvalgi 43 yilda Oktavian, Mark Antoniy va Emiliy Lepidlardan iborat uch lashkarboshi ittifoq tuzganlar. Ular birgalashib, respublikachilarga qarshi kurash olib borish uchun kelishib olganlar.

Ittifoqchilar respublikachilarga qarshi kurashib, Sezarning qotillariga berilgan avfni bekor qilganlar. Miloddan avvalgi 40-yillar oxirida Italiyada respublikachilar va sezarchilar o'rtasidagi kurash kuchayib ketgan. Rim, Italiya va uning g'arbiy viloyatlarida hokimiyat sezarchilar qo'lga o'tgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda respublikachilar ustunlikka ega edilar. Mamlakat esa fuqarolar urushi girdobiga tortilgan.

Pompeyning o'g'li Sekot Pompey esa Sisiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib olgan. Uning floti Italiya qirg'oqlaridagi shaharlarni qamal qilib, Rimga oziq-ovqat keltirilishiga to'sqinlik qilgan. Miloddan avvalgi 42 yilda Makedoniya, Yunoniston, Kichik Osiyo va Suriya yerlarini bosib olgan Brut va Kassiyar sharq tomondan Rimga jiddiy xavf solganlar. Umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun Oktavian Antoniy bilan yarashib olgan. Shu yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari ular ustiga bostirib borib, Filipp shahri yaqinida bo'lgan jangda ularni tor-mor qilganlar. Kassiy o'z chodirida o'ldirilgan. Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'lgan. Filipp yonidagi jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etilgach, Rim saltanatining yerlari uchga taqsimlangan.

Antoniy O'rta yer dengizining sharqiy sohillaridagi boy va madaniy o'lkalarni olgan. Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga topshirilgan. Emiliy Lepidga esa Shimoliy Afrika taqdim etilgan. Italiya umumning boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda asosan Oktavian hukmronlik qilgan. Uchlar ittifoqi uzoqqa cho'zilmagan. Toj-taxt ularni bir-biriga qarshi qilib qo'ygan.

Antoniy O'rta yer dengizining sharqida katta bir davlat tuzishni ko'zda tutib, Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo u jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan, hatto u Misr malikasi Kleopatraga uylangan. Antoniyning bu xatti-harakati Oktavianga yoqmagan. Oktavian Kleopatra va Antoniyga qarshi urush e'lon qilgan.

Har ikki tomon urushga tayyorlanganlar. Antoniy o'z flotini Yunonistonning g'arbidagi Aksiya burni yoniga olib kelib, dengiz jangiga shay bo'lib turgan. Oktavian floti va qo'shinlari ham shu yerga kelgan. Miloddan avvalgi 31 yilda Aksiya burni yonida qattiq dengiz jangi bo'lib o'tgan. Dengiz jangida Oktavian floti porloq g'alabaga erishgan. Kleopatra bilan Antoniyning floti va qo'shinlari Iskandariyaga chekinishga majbur bo'lgan.

Miloddan avvalgi 31-30 yillarda Oktavian qo'shinlari qishni Italiyada o'tkazganlar. 30 yili Rim qo'shinlari qarshillika uchramay, Suriyani ishg'ol qilib, Falastinga bostirib kirganlar. Shundan keyin Rim qo'shinlari Misrga qarab yurganlar. Antoniy ularning bu harakatini qaytarmoqchi bo'lgan. Ammo rimliklar istehkomlarni yorib, Misrga intilganlar. Shu vaqtda kimdir Antoniyga: Kleopatra o'zini o'zi o'ldirdi, degan xabarni yetkazgan. Antoniy o'zini qilich tig'iga tashlab, og'ir jarohatlangan. Jarohatlangan Antoniy o'zini Kleopatra yoniga olib borishni buyurgan. Ammo malika o'lmagan edi. Shu yerda Antoniy o'lgan. Kleopatra Rimga zanjirband holda borishdan o'limni afzal ko'rib o'zini o'zi o'ldirgan. Shundan keyin Misr ham Rim viloyatiga aylantirilgan. Shu bilan Rim saltanatidagi fuqarolar urushi ham nihoyasiga yetgan. Shu vaqtdan boshlab Oktavian g'oyat katta Rim saltanatining tanho hukmdori bo'lgan.

Oktavian Misrni istilo qilgach, miloddan avvalgi 29 yilda Rimga qaytib kelgan va zafar bayramini o'tkazgan. Mil. avv. 27 yilda senat yig'ilishida imperator unvonini olgan. Rim davlatida miloddan avvalgi 27 yil Prinsipiat tartibini o'rnatgan vaqtidir. Prinseps – «birinchi kishi» demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo'lib, u yelarga o'ziga sodiq bo'lgan kishilardan noiblar tayinlagan. U senatni saqlagan holda davlat ishlarini o'z qo'lida tutib turgan. Oktavian qo'shinga alohida e'tibor

bergan. Harbiylarning maoshini oshirgan. Harbiy sarkardalar Oktavian tomonidan tayinlangan. Shu davrda Rim saltanatidagi qo'shinlarning soni 300 mingga yetgan. Oktavian dengiz qaroqchilariga qarshi ikkita harbiy eskadra tuzgan. Ular O'rta yer dengizida doimo nazorat ishlarini olib borganlar. Lekin Rim respublika deb atalavergan. Rimda senat faoliyat ko'rsatib turgan, ammo senat a'zolarining soni bir oz qisqartirilgan.

Senat hamma vaqt unga yoqadigan qarorlarni qabul qilgan. Senat Oktavianga Avgust – «Muqaddas kishi» degan faxriy nom bergan.

Oktavian Rim davlatini miloddan avvalgi 30 yildan 14 yilgacha mutlaq hokim sifatida boshqargan. U ehtiyotkor kishi sifatida fitnachilardan qo'rqardi, chunki uning qarindoshi Sezar fitnachilar qo'lida halok bo'lgan edi. Senatda u hamma vaqt o'ziga sodiq kishilar orasida bo'lib, kiyimi ichidan sovut kiyib yurardi.

Oktavian Avgust tuzgan davlatda respublika mansablari saqlanib qolgan bo'lsa ham Rimda monarxiya hukmron bo'lib, Rim «monarxiya imperiyasi» deb atalardi. Oktavian davrida Rim monarxiyasi O'rta yer dengizi havzasidagi eng kuchli davlat bo'lib qolgan.

Oktavian davlati quldorlik saltanati edi. U o'z faoliyati davomida ko'proq quldorlar manfaatini ko'zlab ish yuritgan. Shuning uchun qullarni asoratda saqlash va ular ustidan nazorat o'rnatishni kuchaytirgan. U tasodifan qul qilingan kishilarni ozod qilishga senat qarorini chiqartirgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Shu davrdan boshlab butun Apennin yarim oroli Italiya deb atala boshlagan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlaridagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqaroligi huquqi berilgan. Oktavian davrida qurilish, diniy va madaniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan. Rimda 82 ta ibodatxona qurilgan va tiklangan. Oktavian o'zining tashqi siyosatida Rim saltanati va zamonasining aslzodalari manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. U Italiyaning shimoli-sharqiy tomonidagi Italiya va Dunay daryosining boshlarida yashovchi qabilalarni o'ziga itoat ettirgan. Bu davrda Rim saltanatining yerlari Ispaniyadan Suriya va Misrgacha bo'lgan maydonlarni egallagan. Ammo joylardagi bu davlatlar va qabilalar Rimga qarshi ko'p marta qo'zg'olonlar qattiqqo'llik bilan bostirilgan. Oktavian qo'shinlari miloddan avvalgi 36 yilda Sekst Pompeyning Sisiliya, Sardiniya va Korsikadagi orol davlatini tor-mor keltirgan. Oktavian hukmronligining oxirlariga kelib Rim davlati asta-sekin zaiflashadi. Shimoldan german qabilalarning hujumi boshlangan. Endilikda Rimning istilochilik urushlariga qurbi yetmay qolgan. U o'zini-o'zi arang mudofaa qilib turgan.

14 yilda Oktavian Rim shahri yaqinidagi Nole shaharchasida vafot etgan. Imperator vafotidan so'ng saltanatdagi ahvol yanada og'irlashib ketgan. Koloniya va viloyatlarda katta-katta qo'zg'olonlar boshlangan. Imperatorlikka da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida qonli kurash boshlangan.

MA'RUZA № 17.

Mavzu: I- II asrlarda Rim saltanati

Reja:

1. I asr boshlaridagi inqirozli vaziyat. Yuliy-Klavdiylar sulolasi davri.
2. Flaviylar davrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy ahvoli.
3. Rim saltanatining «oltin davri».

Adabiyotlar

1. Плутарх. Избранные жизнеописания. Т. II. М., 1987
2. Федорова Е.В. Императорский Рим в лицах. М., 1979.

3. История Европы. Т.І. М., 1988.
4. Винничук Л. Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. М., 1988.
5. Словарь античности. М., 1989.
6. Кадимги дунё тарихи. II-кисм. Тошкент, 1975.

Tayanch tushunchalar

Oktavian Avgustdan keyingi vaziyat. Tiberiy, Kaligula, qulchilik, Klavdiy, Neron, toj-taxt uchun kurash, Vespasian, Tit Flaviy, Domisian, Nerva, Trayan, Adrian, Antoninlar sulolasi. Saltanatning «oltin davri» tushunchasi. Ziddiyatlar.

Oktavianning vafotidan keyin uning o'gay o'g'li Tiberiy imperator bo'lgan. Rimning boy aslzodalari davlat to'ntarishi qilmoqchi bo'lganlar. Ular imperatorlik taxtini Tiberiyning jiyani Germanikka olib bermoqchi bo'lganlar. Ammo Germanik ularning taklifini rad etgan. Fitnachilar harakati fosh bo'lib, tezda bostirilgan.

Tiberiy mamlakatni mustahkamlash uchun qo'shnlarni Rim atrofiga to'plagan. U viloyatlardagi aholi boshiga solinadigan soliqlarni oshirgan. Don, non ulashish va tomoshalar ko'rsatish kamaytirilgan. Bu hol Rim va viloyatlarda noroziliklarning yanada kuchayib ketishiga sabab bo'lgan. Joylarda qo'zg'olonlar boshlangan.

17-24 yillar orasida Shimoliy Afrika, Italiya, Galliya va Frakiyada katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Rim qo'shnlari bu qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirganlar. Rimdagi aslzodalarning bir qismi imperiyadagi bu ahvoldan foydalanib respublikani qayta tiklashga uringanlar. Rimda Tiberiyga qarshi kuchlar tbora orta borgan. Bu kurashlar uni ruhiy kasallikka duchor qilgan. U hayotining so'nggi yillarini Kapri orolida o'tkazib, 37 yili o'sha yerda vafot etgan.

Tiberiy vafotidan keyin senat Germanikning o'g'li Gay Sezarni imperator deb e'lon qilgan. Yoshligidanoq Kaliguli deb nom olgan Gay Sesar imperiyani 37-41 yillarda idora qilgan. U xalq orasida obro' qozonish uchun dabdabali tomoshalar uyushtirgan. Italiyaning jangchilari va kambag'al tabaqalariga Rim fuqarosi huquqini bergan. U imperiya xazinasini behuda narsalarga sarf qilgan. Kaliguli ko'p mamlakatlarga harbiy yurishlar qilgan, keraksiz inshootlar qurdirgan. O'zicha yangi soliqlar joriy qilgan. U o'zini yerdagi xudo darajasiga ko'targan. Qarshilik ko'rsatgan senatorlarni jazolab, ba'zilarni qatl qildirgan. U qullarga o'z quldorlari ustidan shikoyat qilish huquqini ham bergan. Bu hol Rim aslzodalari, senat va harbiylar orasida norozilik keltirib chiqargan. Ular Kaliguliga nisbatan fitna tayyorlaganlar.

41 yilda imperator sirkdan saroyga qaytib kelayotganida Palatin tepaligida qatl etilgan. Senat mamlakatni respublika deb e'lon qilishga uringan. Lekin Rim harbiylari bunga qarshi chiqqanlar. Harbiylar Germanikning ukasi Klavdiyni imperator deb e'lon qilganlar. Shundan keyin senatorlar respublikani tiklash to'g'risidagi fikrlaridan qaytganlar.

Klavdiy imperator bo'lib olgach, ozod qilingan qullardan iborat yaqin kishilari va harbiylarga tayanib ish ko'rgan. Ular senat ichidagi fitnachilarga qarshi kurash olib borganlar. Klavdiy oddiy xalqni, viloyatlardagi aslzoda va harbiylarni o'z tomoniga og'dirib olish uchun talay tadbirlar ko'rgan. U ko'proq tomoshalar tashkil etgan, kambag'allarga don ulashgan, idoralarning ishini yaxshilagan. Klavdiy davrida Mavritaniya, Britaniya, Frakiya va Dunay bo'ylari Rim tarkibiga kiritilgan. Klavdiy podsholigining oxirlarida Bospor podsholigi ham Rimga itoat ettirilgan. Bu davrda Rim qo'shnlari Parfiya bilan ham urush olib borgan. Biroq bu urush natijasiz tugagan.

Imperator Klavdiy oilasida va saroyda fisq-fasodlar, fitnalar avj olgan. Natijada malika Messalina imperatorga suiqasd qilinishda ayblanib qatl qilingan. Shundan so'ng o'zining jiyani, Germanikni qizi bo'lgan Agrippina Kichkinaga uylangan. Bu malika orqasidan kelgan o'g'li Neronni taxt vorisi qilishga Klavdiyni ko'ndirgan. Birmuncha vaqt o'tib, imperator bu qaroridan pushaymonligini aytgach, miloddan avvalgi 54 yilda Agrippina tomonidan zaharlab o'ldirilgan. 17 yoshlik Neron imperator deb e'lon qilingan. Saroyda kurash qizib, Neron o'z onasi, xotini va Britanik degan ugay akasini (Klavdiyni o'g'li) o'ldirtirib yuborgan. Mamlakatda Neron boshqargan yillarda ahvol og'irlashib borgan. 64 yilda Rimda yong'in chiqib, shaharning 14 rayonidan 3 tasi batamom yonib kul bo'lgan. 67 yilda esa Rimda yuqumli kasallik tarqalgan. 68 yilda vaziyat yanada

og'irlashib, Rimda ham viloyatlarda ham ahvol murakkablashgan. Neronga qarshi qo'zg'olon boshlangan. Imperator o'zini-o'zi o'ldirishga majbur bo'lgan.

Rim davlatining taxti uchun Galba, Otton, Vitelliy o'zaro kurash olib borib, 68-69 yillarda qisqa-qisqa imperatorlik qilib, taqdirlari fitna va o'ldirilish bilan tugagan. Imperiyada 68-70 yillarda fuqarolar urushi davom etib, Vespasianning imperator deb e'lon qilingan (69 yil 1 iyul). Shundan boshlab Rim tarixida Flaviylar sulolasi (69-96 yillarda) hukmronligi boshlangan.

73 yili Vespasian sensor lavozimini olib, Rim senatining butun tarkibini ko'rib chiqqan. Qatl qilishlar, surgunlar natijasida senatda aslzodalar kamayib qolgan. U Ispaniya va Galliyadagi eng taniqli, tadbirkor aslzodalardan mingtasini Rimga ko'chirib keltirgan. Ular kamayib qolgan senat a'zolari sonini to'ldirganlar. Uning bu tadbiri katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Vespasian saltanatning moliyaviy qudratini mustaqkamlash uchun soliqlar miqdorini oshirgan. U Neronning Yunoniston aholisiga bergan ozodlik imtiyozini ham bekor qilgan. Vespasian sovg'a, mukofotlar tarqatishda rejali ish tutgan. Faxriylarni yer-mulk bilan ta'minlagan. Rimda yangi uy solishni istaganlarga yer ajratib bergan. Necha o'n minglab odam sig'adigan katta Kolizey amfiteatri uning zamonida qurilgan. Fuqarolar urushi davrida kuyib ketgan Kapitoliy saroyi qayta tiklangan.

79 yilda Vespasian vafot etgach, uning o'g'li Tit Flaviy imperator bo'lib (79-81 yillar), otasining ishini davom ettirgan, senat bilan hamkorlikda ishlagan. Tit davrida Rim Kolizeyi qurib bitkazildi.

79 yilning avgust oyida Vyozuviy vulqoni otilib chiqqan. Undan chiqqan tutun, kul va bulut Rimgacha yetib kelgan. Vulqondan otilib chiqqan lava Pompey, Gerkulanum, Staviy kabi shaharlarni, atrofdagi qishloq va ekinzorlarni bosib ketgan.

81 yilda Tit vafot etgach, Vespasianning ikkinchi o'g'li Domisian imperator deb e'lon qilingan. U otasi va akasi izidan bormay, senat bilan hisoblashmay ish tutgan. Domisian o'z atrofiga chaqimchi va fitnachilarni yig'ib olgan. U odamlarga ko'plab sovg'alar tarqatib davlat xazinasiga katta zarar yetkazgan. G'aznani to'ldirish uchun boy senatorlar mulkini musodara qilgan. Ayni paytda dehqonlardan don ekishni talab qilib, tokzorlarni kengaytirishni man qilgan.

Bu davrda Rim qo'shinlari Reyn va Dunay daryolarining yuqori qismini, Germaniyaning janubi-g'arbiy qismini bosib olganlar. Ammo Rim qo'shinlari quyi Dunayda yashagan qabilalardan qattiq zarba yeganlar. Jangda u goh u tomon, goh bu tomon g'alaba qilgan.

89 yilda Domisian daklar sardori Desebal bilan sulh tuzgan. Sulhga ko'ra daklar Rim chegaralarini tinch qo'yishini o'z zimmalariga olganlar. Buning evaziga Rim imperatorlari ularga pul bilan katta «sovg'a»lar berib turishi lozim bo'lgan. Bu sulh Rim aslzodalari va senatni g'azabga keltirgan. Rimliklar Britaniyada ham og'ir kurash olib borganlar. Domisian qo'shinlari Kichik Osiyo, Kavkaz orti va Kaspiy bo'ylarida muvaffaqiyatsiz urushlar olib borganlar.

Bularning barchasi saltanatning obro'siga katta putur yetkazgan. 96 yili unga qarshi fitna uyushtirilgan. Imperator Domisian o'z saroyida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Keksa senator Nerva (96-98 yillar) davrida harbiylar qattiq norozi bo'lganlar. Natijada Nerva harbiy sarkardalardan biri Trayanni o'ziga hokimdosh deb e'lon qilgan (96 yilda). Imperator o'lgach davlatni boshqarish Trayan ixtiyoriga o'tgan (98-117 yillar). Bu imperator senat bilan samimiy munosabatda bo'lgan, erkin fikr aytish imkonini bergan.

101 yilda Trayan Dakiyaga urush ochgan. Shiddatli janglardan keyin rim qo'shinlari Dakiya shohi Desebalni taslim bo'lishga majbul qilganlar. Trayan Desebal bilan sulh tuzgan. Dakiyaning ba'zi joylarida Rim qo'shinlari joylashtirilgan. Keyinchalik Desebal sulh shartlarini buzib, Rim istehkomlariga hujum qilgan.

106-107 yillarda Trayanch daklar ustiga qo'shin tortib, ularni tor-mor etgan. Dakiya shohi Desebal o'zini o'ldirgan. Trayan Dakiyani bosib olib, u yerda yangi koloniyalar ochgan va u yerga Italiyadan odamlarni ko'chirgan. Trayan Dakiyani zabr etganidan keyin, Parfiya urushiga tayyorgarlik ko'rgan.

114 yili Trayan Armanistonga bostirib kirib, uni ishg'ol qilgan. Keyingi yili u Parfiyaga hujum qilib, uning poytaxti Ktezifon shahrini egallagan. Rimliklar Fors qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni egallab, ikki daryo oralig'ini Rim viloyati deb e'lon qilganlar.

Ammo 116-117 yillarda sharqiy viloyatlarda ommaviy qo'zg'olon boshlanib ketgan. Parfiyaliklar va qo'zg'olonchilar rimliklarni qirib tashlaganlar. Trayan qo'shinlari asta-sekin mag'lubiyatga uchray boshlagan. Trayan qaytadan kuch to'plash uchun 117 yili Rimga qaytayotib, Kichik Osiyodagi Kilikiyada kasallanib o'lgan.

Trayan vafotidan keyin saltanat taxtiga uning asrandi o'g'li Andrian o'tirgan. U parfiyaliklar bilan yarashishni afzal ko'rgan. Andrian bosqinchilik urushlarini to'xtatib, har qanday janjalli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga harakat qilgan. U saltanat chegaralarini mustahkamlab, qo'shni davlatlar bilan tinch munosabatda bo'lgan. Andrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytirgan. U viloyatlardagi o'lpon va soliqlar to'plash huquqini bekor qilgan. Juda ko'p eski soliqlar, qarzdorlar va boqimandalar kechib yuborilgan. Andrian xo'jayinlarning o'z qullarini o'zlari jazolashni ham bekor qilgan. Qulni faqat sud hukmi bilan jazolash tartibi o'rnatilgan. U saltanat qo'shinini viloyatlardan olingan jangchilar bilan to'ldirib turgan.

132-135 yillarda Yahudiya Simon boshchiligidagi qo'zg'olon Rim qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Aholisining ko'pchiligi qul qilib sotilgan. Iyerusalim o'rnida rimliklarning koloniyasi tuzilgan.

Andrian saltanatning juda ko'p viloyatlariga, xususan Afinaga, Misrga ham sayohat qilgan. Uning davrida Afinada yangi Zevs ibodatxonasi qurilib, Afina akropoli qaytadan tiklangan. Frakiyada esa Andrianopol shahri bino qilingan.

Andrian 138 yilda vafot etgan. Uning jasadida katta maqbaraga dafn etilgan.

Imperator Andrianning farzandlari bo'lmagan. U o'limi oldidan galliyalik Tit Avreliy Antoninni o'ziga voris deb e'lon qilgan. Uning vafotidan keyin Tit Avreliy imperator qilib saylangan. Unga Antonin Piy deb nom berganlar.

U 138-161 yillar orasida Rim saltanatida hukmdorlik qilgan. Antonin Piy davrida Rim qo'shinlari Britaniyada, Mavritaniyada istilochilik urushlari olib borganlar. Rimliklar daklar qo'zg'olonini bostirib, chegaradagi alan va german qo'shinlarining hujumini qaytarib turganlar.

152 yili Misr, Falastin, Rimning boshqa viloyatlarida g'alayonlar boshlangan. Antonin bu qo'zg'olonlarni kuch bilan bostirgan. Aholining kambag'al qatlamiga oziq-ovqat va sharob tarqatilgan. U Parfiya va Bosfor podsholigi bilan tinch-totuv yashagan.

161 yili Antoniniy vafot etgach, taxtga uning o'gay o'g'illari Mark Avreliy va Lusiy Verlar o'tirganlar. Lusiy Ver vafot etgach, Mark Avreliy tanho imperator bo'lib qolgan.

Mark Avreliy davrida imperiya og'ir qiyinchilik ikki boshdan kechirgan. Mamlakat ichkarisida iqtisodiy vaziyat og'irlashib, oddiy aholi qashshoqlashib qolgan.

Parfi podshosi Vologaz III Armanistonni ishg'ol qilgan. Bu jangda rimlik legionlar mag'lubiyatga uchraganlar. Parfiya podshosi Suriyani ham bosib olgan.

Rimliklar kuch to'plab, parfiyaliklarni Armanistondan surib chiqarganlar. Ular o'z hujumlarini davom ettirib, Shimoliy Mesopotamiyani ishg'ol qilib, Ktezifon bilan Salavkiyagacha borib yetganlar. Ikki daryo oralig'idan yuqumli kasallik tarqalib, Rim qo'shinining bir qismi o'lib ketgan. Rimliklar sulh tuzib Italiyaga qaytganlar. Bu kasallik Italiyaga ham yoyilib, ko'p kishilarning yostig'ini quritgan.

167 yildan boshlab Dunay ortidagi qabilalar Rim istehkomlariga tez-tez hujumlar qilib turganlar.

172 yili esa Misrda qo'zg'olon boshlangan. Rimliklar katta qiyinchiliklar bilan bu qo'zg'olonni bostirganlar. Shu vaqtda Rimning Suriyadagi noibi Avidiy Kassiy imperatorlik da'vosi bilan chiqqan. Mark Avreliy Avidiy ustiga qo'shin tortib borgan. Qo'shinlar to'qnashmasdan Avidiy o'ldirilgan.

180 yili Rim qo'shinlari va aholi ichida yana yuqumli kasallik kelib chiqqan. Kasallik juda ko'p odamlarning, shu jumladan imperatorni ham o'lim girdobiga tortgan. Mark Avreliy vafotidan so'ng imperiyani uning o'g'li Kommod idora qila boshlagan. U qo'pol, shafqatsiz kishi bo'lib, imperatorlikka layoqatsiz edi. Kommod o'yin, kulgi, tomoshalarga berilib ketgan. U aholiga bepul oziq-ovqat ulashgan va davlat xazinasini ko'kka sovurgan. Ko'p o'tmay, imperiyada va Rimda oziq-ovqat tanqisligi boshlangan. Bu esa aholining barcha tabaqalari orasida norozilik keltirib chiqargan.

192 yilda Kommod fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Shundan keyin II asrning oxiridan boshlab, Rim saltanatida tushkunlik alomatlari ko'rina boshlagan.

MA'RUZA № 18.

Mavzu: III–IV asrlarda Rim davlati Xristianlik inqirozi

Reja:

1. Quldorlik tizimining inqirozi.
2. Rim imperatorlarning ichki va tashqi siyosat.
3. Xristianlikning vujudga kelishi.

Adabiyetlar

1. Гай Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати Цезарей. М., 1988.
2. Утченко С.Л. Кризис и падение Римской республики. М., 1965.
3. Корсунский А.А. Юнтер Р. Упадок и гибель западной Римской империи и возникновение германских королевств. М., 1984.
4. Санчурский Н.В. Римские древности. М., 1995.
5. Кузищин В.И. Античное классическое рабство как экономическая система М., 1990.
6. Кадимчи дунё тарихи. II-кисм. Тошкент, 1975
7. Амусин И.Д. Кумранская община. М., 1983.

Tayanch tushunchalar

Quldorlik xo`jaligi, kolonlar, sevarlar sulolasi, siyosiy tushkunlik, parokandalik, bagaudlar harakati. Xristianlik, Iso payg`ambar haqidagi rivoyatlar.

III-IV asrlar Rim saltanati xo`jaligida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelingan, quldorlik xo`jaligining inqirozi, erkin ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo`lishi davridir.

Rimda qulchilik boshqa mamlakatlarga nisbatan juda rivojlangan edi. U yerda qullar soni ko`p bo`lib, dastlab ularning mehnatidan keng foydalanilgan. Bora-bora kullar mehnatining unumdorligi kamayib ketgan. Chunki qullar mehnati evaziga olingan hosilning asosiy qismi quldorlarga tegar edi. Quldorlar ularni uy-joy, oziq-ovkat va oddiy kiyim-bosh bilan ta'minlar edilar, xolos. Ularga qo`shimcha mahsulot berilmas, haq to`lanmas edi. Shuning uchun qullar mumkin qadar kamroq va yemonroq ishlardilar. Qullar o`z xo`jayinlarga nafrat bilan qarar, mehnat qurollarini sindirar va ish, chorva mollarni o`ldirar yoki mayib qilardilar.

Ilk qulchilik quldorlik jamiyatining rivojlanishida katta o`rin tutgan. Ammo keyinchilik qullar mehnatining samarasi pasayib, texnikaning rivojlanishiga to`squinlik qila boshlagan. Rim ixtirochilari yer haydashda tuproqni ag`darib beradigan tishli so`qa va ho`kiz qo`shib ishlatiladigan o`roq aravalar yasaganlar. Erkin dehqonlar va ijaracha korondalar ixtiro qilingan yangi qurollar bilan yerga ishlov berib yuqori hosil olganlar. O`roq aravalar yordamida g`allani o`rib olganlar, chunki ular o`z mehnatidan manfaatdor edilar. Quldorlar esa yangi mehnat qurollarini qullarga ishonib topshirolmasdilar. Ularga eski oddiy qurollar berilgan.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikda asosiy mehnatning qullar zimmasiga yuklanishi xo`jalikning orqaga ketishiga olib kelgan. Shu tariqa qullar mehnati quldorlar uchun foydasiz bo`lib qolgan. Ayni paytda ko`p qulga egalik qilish ham juda xavfli edi.

Imperator hokimning kuchsizlangani sari qullarning g`alayoni quldor uchun dahshatli kuch bo`lgan.

Qullar mehnatining samarasizligini qo`rgan ko`pgina yer egalari o`z xo`jaliklaridagi yerlarni kichik-kichik qismlarga bo`lganlar. Ular bu yerlarni yersiz erkin kambag`allarga ijaraga berganlar. Kichik –kichik yerlarni ijaraga olgan kishilar Rimda kolonlar deb atalgan.

Kolov yerdan chiqqan hosilning ma`lum qismini xo`jayinga berib, qolganini o`zi olib qolgan. O`z mehnatidan mafaatdor bo`lgan kolon qulga qaraganda bir necha bor yaxshiroq va

unumliroq ishlagan, chunki u erkin mehnat qilgan. Ularni nazorat qilish ham kerak emas edi. Ayni paytda kolonlar chorva mollari, yer va mehnat kurollarga ehtiyotkorlik bilan qaraganlar.

Ko'p hollarda yer egasi kolonlari urug'lik, ish hayvoni va mehnat kurollari bilan ta'minlangan. Agar kolonlar yer egasidan qarzdor bo'lib qolsa, u xo'jayin yeridan hech qayeqqa keta olmas edi. Yer egalari bundan foydalanib, ijara haqini oshirar edilar.

Italiyada Yunonistonga nisbatan serunum yerlar va sersuv daryolar ko'p edi. Shuning uchun astoydil mehnat qilgan dehqonlar yerdan mo'l-ko'l hosil olishlari mumkin bo'lgan. Italiyada yaylovlar keng maydonlarni egallab yotgan. Shu boisdan Italiyada chorvachilik ham ancha rivojlangan. Quldorlar qullarga yer, chorva, mehnat qurollari va boshqa anjomlar berib, mustaqil ish yuritishga imkoniyat yaratganlar. Bunday sharoitda qullar oilali bo'lib ancha erkin yashaganlar. Bunday qullar kulbali yeki uy-joyli qullar deb atalgan.

Ular bola-chaqalari bilan barcha astoydil mehnat qilib, yerdan mo'l-ko'l hosil olganlar. Hosilning bir qismi xo'jayinga berilsa, kolgan qismi qulning o'z ixtiyorida qolgan. Bundan har ikki tomon manfaat ko'rgan. Ayni paytda bu qullar boshqa yoqlarga ketmas, mehnat qurollari va ish hayvonlariga zarar keltirmasdilar.

Kulbali qullarning ahvoli oddiy qullarning ahvoliga nisbatan ancha yaxshilana boshlagan. Ammo qullarining taqdiri avvalgidek, o'z xo'jayinlarining qo'lida bo'lgan.

Shaharlardagi quldorlarning bir qismi o'z qullariga ustoxonalar ochib, hunarmandchilik bilan shug'ullanishga ham ruxsat berganlar. Ba'zi qullar kichik do'konchalar ochib, tijorat ishlari bilan ham shug'ullanganlar. Mehnatlari evaziga boyib olgan qullar pul, mol-mulk evaziga o'z ozodliklarini sotib olib, erkin kishilarga aylanganlar.

Shunday qilib xo'jalik hayotida feodal munosabatlarning ko'rinishlari yuzaga kelib, kechagi qullar endi qaram dehqon, chorvador va hunarmandga aylanib borganlar.

II asr oxirlarida Rim saltanati taxtini severlar sulolasi egallagan. Sulolaning asoschisi Septimiy Sever 193-211 yillarda imperatorlik qilgan. U o'z qo'shinini Frakiya, Reyn va Dunay bo'yi qabilalaridan oligan jangchilar hisobiga ko'paytirgan. Bu viloyatlardagi boy aslozodalar Rim qo'shini va idoralarida oliy lavozimlarni egallaganlar. Ular Rim fuqarosi huquqini ham olganlar. Ular qo'shinga tayanib imperator hokimiyatini mustahkamlaganlar. Septimiy va uning o'g'illari davrida senat va senatorlarning obro'si tushib ketgan. Mamlakatda ichki ziddiyat nihoyat darajada kuchaygan. Imperatorlar qo'shin qo'mondonlaridan juda qo'rqr edilar. Severlar sulolasining ko'p namoyandalari jangchilar tomonidan o'ldirilgan. Sulolaning so'nggi vakili Aleksandr (222-235) saltanatning ichki ahvolini yaxshilash uchun qator tadbirlar ko'rgan. U shaharlariga alohida e'tibor berib, ularga homiylik qilgan. Rimdagi toifalar tafovutini yo'q qilib katta yer egalari yana imtiyozlar bergan. Bu hol harbiylar orasida norozilik keltirib chiqargan. U ham fitna oqibatida harbiylar tomonidan o'ldirilgan.

Aleksandr o'ldirilgandan so'ng lashkarboshilardan Maksim degan kishi imperator bo'lgan. Rim aslzodalari va senat uning ishidan norozi bo'lgan. Ko'p o'tmay Maksim ham o'zaro urushlar davrida halok bo'lgan. Shundan keyin Rim aslzodalari orasida toj-taxt uchun kurash qizib ketgan. 235 yildan 284 yilgacha Rim taxtiga 19 imperator va 30 dan oshiq hukmdor kelib ketgan. Rimdagi siyosiy tushkunlik Rim qo'shinlarining kuchsizlanishiga olib kelgan.

Saltanat chekkasidagi qo'shni davlatlar ham Rimni mensimay qo'yanlar. Sharqda Eron qo'shinlari Messopotamiya, Suriya va Kichik Osiyodagi shahar va qishloqlarni talon-taroj qilganlar. Yaqinginda Rim qo'l ostida bo'lgan Armaniston uning ta'siridan chiqib ketgan. Antioxiya qo'ldan ketgan. Bir necha janglarida so'ng Eron qo'shinlari rimliklarni tor-mor qilganlar. Shimolidan frank, german va dunay qabilalarining tazyiqi kuchaygan. Shimoliy Afrikadagi qabilalar ham Rimga qarshi bosh ko'targanlar. 253-268 yillarida imperatorlik qilgan Gallilen Rim saltanatini tushkunlikdan qutqarishga urinib ko'rgan. Ammo uning harakatlari behuda ketgan. III asr o'rgalarida Rim saltanatida ajralish yuz bergan. G'arbda Ispaniya, Galliya va Britaniyani o'z ichiga, olgan Galliya saltanati tashkil topgan. Uning markaziy shahri Trir bo'lgan. III asrning ikkinchi yarmiga kelib Sharqda Misr va Palmira davlatlari ajralib chiqqan. Shu tariqa bir vaqtda qudratli bo'lgan Rim saltanati parchalanib keta boshlagan.

Saltanatdagi og'ir vaziyat Rimning hukmron tabaqalarini sarosimaga solib qo'yan. Ular imperatorlar bilan murosqa qilib o'z mavqelarini tiklab olmoqchi bo'ladilar. 270-275 yillarda imperatorlik qilgan Avrelian aslzoda va mahalliy aholidan qo'shini to'plab, xalq harakatlarini bostirib, saltanat birligini tiklashga harakat qilgan. Uning qo'shinlari totlarni Dunay bo'yidan haydab yuborgan. Italiyaga bostirib kirishga urinayotgan qabilalarning hujumi ham qaytarilgan.

Avrelian Rimni dushmanlardan himoya qilish maqsadida shaharni qalin mudofaa devori bilan o'rattirgan.

273 yili Avrelian qo'shinlari Palmira shahrini ishgol qilib, uni vayron etganlar. Galliya hokimi Tetrik ham bagauzlar harakatining kengayib ketishidan qo'rqib Avrelianga itoat etgan. Avrelian saltanat birligini saqlash maqsadida «Yengilmas quyosh» degan yangi din joriy qilgan. Unga hammaning sig'inishi talab etilgan. Bu dinga e'tiqod qilishdan bosh tortgan kishilar fitnachi hisoblangan. Xristianlar ham ta'kib qilinganlar. Shu tufayli Avrelian o'ziga ko'p dushman orttirgan va 275 yili fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Uning ishini Prob (276–282) davom ettirgan. U Rim saltanatining chegaralarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Lekin u qo'shni orasidagi tartibsizlikni yenga olmagan. U jangchilar orasida qattiq intizom o'rnatishga harakat qilgan Prob faoliyatidan norozi bo'lgan harbiy boshliqlar uni ham o'ldirganlar.

III asr ohirlaridagi og'ir siyosiyvaziyat 284 yilda hokimiyat tepasiga kelgan Diokletian davrida dominat tartibining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu masala xususidagi fikrlar kelgusi ma'ruzada davom ettiriladi.

Miloddan avvalgi I asr boshlarida Rim va unga qarashli joylarda zulm kuchayib ketgan. Zulmga qarshi qullar, kolonlar va kambag'allarning ommaviy qo'zg'oloni boshlangan. Ammo bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Qo'zg'olonchilar Rim legionlariga qarshi kurashib, ularni yenga olmasliklariga iqror bo'lganlar. Italiyadagi qashshoq va mazlumlar yaxshi yashash va ozodlikka erishish uchun o'z xudolariga asrlar mobaynida iltijo qilib kelganlar. Lekin bu iltijolar ularning ahvolini yaxshilamagan. Bora-bora mazlumlar orasida eski ma'bud, ma'buda va xudolarga ishonchsizlik kuchaya borgan.

Rim imperatorlari va zolimlarga qarshi kurashda ojiz bo'lgan mazlumlar orasida o'zlariga ozodlik keltiradigan, zolimlarni jazolaydigan qudratli xudoga ishonish vujudga kela boshlaydi. Mazlumlar qudratli xudo va uning marhamatli payg'ambarlarini toqatsizlik bilan kutganlar. Bu xudo va uning dastlabki payg'ambari Iso edi. Iso payg'ambar nomi musulmon dunyosining ulug' kitobi «Qur'on»da ham bor.

Sharq yilnomalariga qaraganda, milod boshlarida Bibi Maryamdan bir chaqaloq tug'iladi. Unga Iso deb nom qo'yadilar. U o'sib, ulg'ayib, payg'ambarlik darajasiga erishadi. U qishloqma-qishloq yurib, yakka xudoga e'tiqod qilishni targ'ib qiladi. Rivoyat qilishlaricha, Iso murdalarni tiriltirar, suvni sharobga aylantirar, har turli mo'jizalar qilishga qodir ekan. U aslzodalarni, boylarni va mulkdorlarni insof, adolatga, kambag'al va beva-bechoralarga shafqat qilishga chaqirgan.

U budparastlik va ko'p xudoliklarni qoralagan. Bunga qarshi rimliklar uni but yog'ochiga tortib, oyoq va qo'llaridan mixlab tashlaganlar. Garchi u payg'ambar bo'lsa ham, barcha azob-uqubatlarga mardonavor bardosh bergan va o'lgan. U uch kun davomida but yog'ochida qolib, so'ng tirilgan va arshi a'loga chiqib ketgan.

Ammo u ketishi oldidan yana yerga qaytib tushishini aytib ketgan. Iso xristianlikni targ'ib qilgan kishi sifatida mashhur bo'lgan. I asr oxiri II asrda Iso haqidagi bu rivoyat yozib olingan. Bu rivoyatlar yunoncha «yevangeliye» – «xushxabar» deb atalgan.

Bu rivoyatlarda Iso va uning hayoti haqida ko'pgina ma'lumotlar bor. Unda atoatsiz boy aslzodalar, xasis mulkdorlar qoralanadi, ularning albatta do'zaxga tushishlari aytiladi. Ular orasida kambag'al odamlar manfaatlarini ifoda etuvchi fikrlar ham talaygina. Mazlum xalqqa shu narsa kerak edi. Mazlumlarning Iso e'tiqodiga sig'inishi ham shu boisdandir.

Yevangeliyeda xalqning quyi tabaqasi manfaatlarini ifoda etuvchi gaplar ko'p bo'lgan. Shuning uchun bu ta'limotga qullar va kambag'allar ko'proq erishganlar. Ular o'z azob-uqubatlarining munosib taqdirlanishi, zulmkorlarning jazolanishiga chin dildan ishonganlar. Iso haqidagi rivoyatlarga ishongan va bu ta'limotni qabul qilgan kishilar o'zlarini xristianlar deb atashgan. Ular o'z dinlari va e'tiqodlarini xristianlik deb ataganlar. Xristian tarqibotchilari bu ta'limotni O'rta yer dengizining sharqidagi mamlakatlar bo'ylab targ'ib qilganlar. Keyinchalik xristian dini Rim saltanati bo'ylab keng tarqala boshlagan. Xristianlar orasida yahudiylar, arablar, yunonlar, misrliklar, Kichik Osiyoliklar, gallar va boshqa xalqlarning vakillari bo'lgan.

Xristianlar jamoalarga birlashib ibodat qilganlar, yevangeliyelarni o'qiganlar. Ularning o'z bayramlari bo'lib, o'z vaqtida nishonlangan. Masalan, Isoning tug'ilgan kuni 25 dekabrda nishonlangan. Xristianlar xudo dunyoni 6 kunda yaratgan, degan rivoyatni qabul qilganlar. Ular bir xudolikni tan olib targ'ib qilganlar. Ular imperatorlariga sajda qilishdan bosh tortganlar. Shu boisdan Rim imperatorlari va ma'murlari ularning yig'ilishlarini taqiqlaganlar. Lekin xristian jamoalari yerto'la va tashlandiq tosh konlarida to'plaganlar. Imperatorlardan Diokletian

xristianlikka qarshi chiqib, xristian dini a'zolarini ta'qib ostiga olgan. U o'zini xudo Yupiterning o'g'li deb e'lon qilgan.

II asrdagi Rim saltanatining notinch vaziyati boy-badavlat kishilarni tashvishga solib qo'ygan. Xristian targ'ibotchilari kishilarni sabr-qanoatli va itoatli bo'lishga chaqirganlar. Ular: «Qullar, xudodan qo'rqing, har sohada xo'jayinlaringizga itoatda bo'ling», - deb ta'lim berganlar. Bu badavlat kishilarga ham ma'qul tushgan. Ular ham xristianlikni qabul qilganlar. Chunonchi, imperatorlardan Konstantinning o'zi xristianlikka kirib, uni hukmron dinga aylantirishga harakat qilgan. U 313 yilda xristianlarning oshkora to'planishiga ijozat bergan. Ayni paytda Konstantinning o'zi va boylar xristian cherkovlarini qurishishlariga katta mablag' ham berganlar. Shu davrda Rimning turli joylarida katta ibodatxonalar va cherkovlar qurilgan. Shunday qilib, xristian dini qul va kambag'allar dinidan umumdavlat diniga aylangan.

Xristianlik o'ziga xos diniy tashkilot edi. Xristianlarning o'z ichki tartiblari bo'lgan. Joylardagi xristian jamoalariga yepiskop-nozir rahbarlik qilgan. Yepiskop saylab qo'yilgan va u diniy ishlarga rahbarlik qilgan. Har bir viloyat va shaharning o'z yepiskopi bo'lgan. Yepiskoplar bir-birlari bilan aloqa qilib turganlar. Xristianlarning minglab jamoalarini birlashtirib turgan o'z tashkiloti ham bo'lgan. U xristianlar cherkovi deb atalgan. U butun saltanat aholisi o'rtasida g'oyat katta nufuzga ega bo'lgan. Barcha yepiskoplar unga itoat etganlar. Hozir ham Yevropa, Amerika aholisining katta qismi, osiyoliklarning bir qismi xristian diniga e'tiqod qiladilar.

MA'RUZA №19.

Mavzu: Dominat davri. G'arbiy Rim saltanatining qulashi

Reja:

1. Dominat tartibining yuzaga kelishi.
2. IV asrda Rim saltanati. Rim saltanatining qulashi.
3. G'arbiy Rim saltanatining qulashi.

Adabiyotlar

1. Утченко С.Л. Кризис и падение Римской республики. М., 1965.
2. Корсунский А.Р. Юнтер Р. Упадок и гибель западной Римской империи и возникновение германских королевств. М., 1984.
3. Свенцицкая И.С. От общины к церкви. М., 1985.
4. Штаерман Е.М. Социальные основы религии Древнего Рима. М.1987.
5. Бойназаров Ф. Антик дунё. Тошкент, 1989.
6. История Европы. Т.I. М., 1988.

Tayanch tushunchalar

Diokletian, dominat, Konstantin, xristianlik, Konstantinopol, bagaudlar, gotlar, Feodosiy, xunlar, vandallar, Saltanatning qulashi.

Rim saltanatida III asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqurlashib ketgan inqirozli vaziyat xo'jalik hayotiga, siyosiy tizimga kuchli ta'sir qilib, keng xalq ommasining noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada esa shimol tomondan german qabilalarining hujumlari kuchaydi. Italiya harbiylari va quldorlari saltanatni saqlab qolish choralari izlar edilar.

284 yilda jangchilar tomonidan taxtga o'tqazilgan Diokletian imperator obro'sini mustahkamlash uchun saroyda dabdabali qabul marosimlari o'tkazgan. Imperator bilan salomlashganda uning etagini o'pib, dominus – uy egasi, xo'jayin deb murojaat qilish tartibi yuzaga keltirilgan. Shu atamadan olinib, Rim tarixining 284-476 yillar davri Dominat deb ataldi.

Diokletian aslida ozod qilingan qulning o'g'li bo'lib, dastlab oddiy jangchi sifatida xizmat qilgan.

Xizmat yuzasidan o`zini ko`rsatib, imperator soqchilarining boshlig`i qilib tayinlangan. U juda aqlli va ajoyib iste'dod egasi bo`lgan. U davlatni o`zi tayinlagan amaldorlar orqali boshqarib, saltanatda saqlanib kelayotgan respublikaga xos mansablarni tugatgan. Imperatorning aytgani hamma uchun qonun hisoblangan. «Sinchkovlar» deb atalgan ko`plab josuslar Italiyada va saltanat viloyatlarida norozi odamlarga ko`z-quloq bo`lib yurardilar. Diokletian o`zini Yupiterning o`g`li deb e`lon qilgan. Ibadatxonalarga uning haykallari o`rnatilgan. Hamma, hatto aslzodalar ham unga yer o`pib ta'zim qilishlari kerak edi. U qo`shinni ko`paytirish va isyonchilarga qarshi kurashish maqsadida varvar qabilalaridan yollanma jangchilar tuzgan. Katta armiyani boqish uchun aholidan olinadigan soliqlar oshirilgan. Imperator isyonchi jangchilarni shafqatsizlik bilan jazolab, qo`shin ichida intizomni bir oz mustahkamlagan. U saltanatni boshqarishda o`zi tayinlagan hokimlarga tayanib ish ko`rgan. Diokletian davrida senat o`z ahamiyatini yo`qotgan, ammo ular aholining eng nufuzli toifasi bo`lib qolavergan. U shahar hayotini tiklash va jonlantirish ishiga ham alohida e'tibor bergan.

Diokletian saltanatni mustahkamlashni ko`zlab bir necha islohotlar o`tkazgan. U saltanatni 12 o`lkaga, ularning har birini esa 114 viloyatga bo`lib chiqqan. O`lka va viloyatlarga ishonchli noiblar belgilangan. U soliq solishni ham tartibga keltirmoqchi bo`lgan. Jon boshiga solinadigan soliqlar qayta ko`rib chiqilgan. Ayni paytda yer solig`ining yangi tartibi joriy qilingan. Bu soliqning hajmini belgilashda yer, ish kuchi va hayvonlarning soni hisobga olingan. Mamlakatda narx-navoning oshuvi munosabati bilan moliyaviy islohot o`tkazilgan. Biroq moliyaviy islohot narx-navoning oshishini to`xtata olmagan. Diokletianning manixeychilik va xristianlikni ta'qiqlashdagi barcha harakatlari ham behuda ketgan. Imperator saltanat boshiga tushgan inqirozni hal eta olmay hokimiyatdan voz kechishga majbur bo`lgan.

Diokletian hokimiyatdan voz kechgach, imperator hokimiyatini egallash uchun yana qonli kurashlar boshlanib ketgan. Bu kurashda shafqatsiz lashkarboshilardan biri Konstantin g`alaba qilgan (306-337). U sharqiy viloyatlardagi aslzodalar va harbiylarga tayanib ish ko`rgan. Konstantin hokimiyatni bosib olish va qo`lda saqlab qolish uchun hech narsadan qaytmagan, ichgan qasamini buzgan, o`z ittifoqchilarini xiyonatkorona o`ldirgan. Hatto «o`g`lim mening taxtimni egallamoqchi» deb, uni ham o`limga buyurgan.

Konstantin mehnat ahli, qullarga va kolonlarga nisbatan o`ta shafqatsiz edi. U katta yer egalari ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun qullar va kolonlarning ular yeridan ketishlarini ta'qiqlab qo`ygan. Qochib ketgan kolon ulab olinsa, kishanga solinib xo`jayin ixtiyoriga qaytarilgan. O` xo`jayinidan qochib ketgan qul tutib olinsa, u qamchi, darra bilan o`lasi qilib kaltaklangan va kishanga solingan. Imperator ustaxona, korxona va konlarda ishlovchi xizmatchilar badaniga qullar singari tamg`a bosishni buyurgan. Konstantin va uning amaldorlari, harbiy boshliqlar dabdabali hayot kechirganlar. Imperator qo`l ostida juda katta qo`shin va josuslar bo`lgan. Ularni boqish uchun juda katta mablag` kerak edi. Bu mablag`lar xalqdan yig`ilgan. Konstantin davrida soliqlarning turi va miqdori oshirilgan. soliq tulashdan bosh tortgan, uni to`lashga qurbi yetmagan kishilar kaltaklangan. Fuqarolarning u shahardan bu shaharga ko`chishi taqiqlangan. Har bir kishi o`z kasb-kori bilan shug`ullanib, uni o`z bolalariga o`rgatishi zarur edi.

313 yilda Konstantin xristianlarning oshkora to`planishlari va ibodatxona qurishlariga ijozat bergan. Shundan boshlab imperator va boshqa quldorlar xristian cherkoviga saxiylik bilan yer, pul va qimmatbaho narsalar hadya qilgan. Saltanat shahar va qishloqlarida ko`plab ibodatxonalar qurilib, xristian dinining muxlislari orta borgan. Ularning qo`lida juda ko`p boylik to`plangan. Konstantin xristian dinining homiysiga aylanib, cherkov uni avliyo deb e`lon qilgan.

Konstantin Bosfor bo`g`ozi sohilida bir shahar qurdirgan. Qadimda bu joyda yunonlarning Vizantiy degan koloniyasi bo`lgan edi. Imperator bu shaharni o`z nomi bilan Konstantin shahri – Konstantinopol deb atagan. Shahar 10 yil ichida bitkazilgan. 330 yilda saltanat poytaxti Rimdan Konstantinopol shahriga ko`chirilgan. Poytaxtning sharqqa ko`chirilishi katta siyosiy ahamiyatga ega bo`lgan.

Imperatorlarnig qo`llab-quvvatlashi natijasida xristianlik keng yoyilib kuchga kirgan. Shundan boshlab ular saltanat aholisi e'tiqod qilgan boshqa dinlarni ta'qib qila boshlagan. Ular ibodatxonalarni vayron qilib, undagi qadimgi xudolarning haykallarini sindirib tashlaganlar. Buzilmay qolgan ibodatxonalarga esa xristian cherkovlari joylashtirilgan. Ana shu ur-yigitlar davrida juda ko`p san'at obidalari yer bilan yakson qilingan. IV asr oxirlariga kelib esa Zevsga bag`ishlangan Olimpiya o`yinlarini o`tkazish ta'qiqlangan.

Xristianlar ilm-fanga qarshi kurash boshlaganlar. Ular Iskandariyadagi mashhur kutubxonaning juda ko'p qo'lyozma asarlarini yondirib tashlaganlar, boshqa shaharlardagi ilmiy asarlar va kitoblarni ham yo'q qilib tashlaganlar. O'sha davrning ko'pgina mashhur olimlari sazoyi qilingan, ba'zilar o'z vatanlaridan surgun qilingan. Iskandariya ko'chalarida xristianlar olomoni mashhur olima Ipatiyani chavaqlab, burda-burda qilib tashlaganlar. Ipatiya ilm-fan yo'lida jafodan chekkan va xristianlar qo'lida vahshiyona o'ldirilgan dastlabki ayollardan biri edi.

Rim aslzodalari va harbiy boshliqlaridan jabr-zulm chekkan kambag'al dehqonlar, kolonlar va qullar g'azabga kelib bosh ko'targanlar. Bunday harakatlar faqat Rimda yoki Italiyada emas, balki chekka o'lkalarda ham sodir bo'lgan. IV asrning 30-40-yillarida Numibiyada, 70-yillarda esa Mavritaniyada juda katta quzg'olonlar bo'lib o'tgan. Bu quzg'olonlar Rim legionlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Ayni paytda Galliyadagi bagaudlar harakati dahshatli tus olgan. Bu harakat III asrda boshlanib, V asrgacha, qariyb 200 yil davom etgan. Bu harakat Ispaniyaga ham yoyilgan. Rimning yollangan qo'shinlari bu harakatlarni og'ir qiyinchilik bilan bostirganlar.

IV asrning ikkinchi yarmida Rim, Konstantinopol, Antioxiya, Iskandariya va saltanatning boshqa shaharlarida tez-tez g'alayonlar bo'lib turgan. IV asrning 60-70-yillarida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari – Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli va Konstantinopol shahrida ham ommaviy harakatlar keng quloch yoygan. Bu harakatlarning barchasi rahmsizlik bilan bostirilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harakatlarning bir qismi Rim saltanatiga qarshi milliy ozodlik urushi bo'lgan. Bunday harakatlarda mahalliy aslzodalar ham faol ishtirok etganlar. Ommaviy harakatlar Rim saltanatining inqirozidan nishona edi.

IV asrning o'rtalaridan boshlab, Rim saltanatida ahvol yomonlashgan. Toj-taxt uchun kurash kuchayib, poraxo'rlik, davlat mulkini talash avjiga chiqqan. Rim qo'shinlarida intizom bo'shashgan. Bu hol tashqaridan bo'ladigan hujumlardan saltanatni himoya qilish ishiga katta zarar keltirgan. Bu davrda eronliklar saltanatning sharqiy viloyatlariga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talay boshlaganlar. Shimoliy Afrikadagi Mavr, G'arbiy Yevropaning Reyn ortidagi frank va boshqa qabilalar ham saltanatga qarshi hujum boshlaganlar. Ayni paytda Italiyaning o'zida ham mehnatkashlar va qullarning noroziligi tobora kuchayib, saltanat chor atrofdan siqib kelayotgan dushmanlar halqasi girdobiga tushib qolgan.

Shimol va shimoli-sharqdagi varvar qabilalari ittifoq bo'lib Rim saltanatining chegara istehkomlariga tez-tez hujumlar uyushtirganlar. Imperatorlar esa varvarlarning tajovuzlaridan qutulish uchun ularga ko'p miqdorda oltin va qimmatbaho buyumlar berishgan. Yoki katta pul evaziga boshqa jangovar qabilalar jangchilarni yollab o'z chegaralarini mudofaa qilishga majbur bo'lganlar. Imperatorlar bu mablag'larni mehnatkash aholidan undirganlar. Bu hol saltanatda mehnatkash xalq ommasini va qullarning ahvolini og'irlashtirib yuborgan.

IV asrning ikkinchi yarmida ichki Osiyo va Kaspiybo'yi dashtlarida ko'chmanchi xunn qabilalari Volgani kesib o'tib Yevropaga bostirib kirganlar. Xunnlar bu yerga bostirib kirmasdan 100 yilcha ilgari gotlar nomi bilan mashhur bo'lgan german qabilalari Skandaviyadan Qora dengizning shimolidagi yerlarga kelib joylashgan edilar. Xunnlar yo'lida keta turib, gotlarning ostgotlar deb atalgan sharqiy qismini o'zlariga bo'sundirganlar. Gotlarning vestgotlar deb atalgan g'arbiy qismi xunnlarning shiddatli zarbalariga bardosh bera olmay Dunay daryosi bo'ylariga chekinishga majbur bo'lganlar. Vestgotlar Rim imperatori Valentdan Meziya va Frakiyaga o'tib joylashishga ijozat so'raganlar. O'n minglab gotlar xotin, bola-chaqalari bilan qayiq va sollarda Dunay daryosining o'ng sohiliga o'ta boshlaganlar. Daryodan o'tish davrida juda ko'p kishi g'arq bo'lib o'lgan. Gotlar daryodan o'tib Meziya va Frakiya bo'ylab joylashganlar. Imperator odamlari gotlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni o'z zimmlariga olganlar. Lekin ular va'dalarini bajarmaganlar.

Gotlar orasida ocharchilik boshlangan. Rim amaldorlari bundan foydalanib gotlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yuqori bahoda sotganlar, yoki ularni qimmatbaho buyumlarga, qullarga va hatto bolalarga ayirbosh qilganlar. Bu xo'rlikka chiday olmagan gotlar quzg'olon ko'tarib, Konstantinopol tomon yo'l olganlar. Imperator Valent saralangan qo'shin bilan gotlar ustiga bostirib borgan. 378 yilda Andrianopol shahri yonida gotlar bilan Rim qo'shinlari o'rtasida og'ir jang bo'lgan. Jangda gotlar g'olib chiqib, Rim imperatori Valent va uning sarkardalari halok bo'lgan. Gotlar, xunn va alanlar bilan ittifoq bo'lib Konstantinopolga hujum boshlaganlar. Yangi imperator Feodosiy (379-395) gotlar bilan sulh tuzib, Italiya kaliti bo'lgan Illiriyaning ularga berishga majbur bo'lgan. Gotlar rimliklar qo'shini xizmat qilish majburiyatini olganlar. Gotlarning Illiriyada joylashuvi saltanat uchun ham juda xavfli edi. IV asr oxirida boshqa varvar qabilalari ham Rim

chegaralariga yaqinlashib, ularga tahdid sola boshlaganlar. Rimliklar katta boylik berish evaziga ular bilan shartnoma tuzib, ulardan yollanma qo'shin sifatida foydalanganlar. Ko'p o'tmay imperator saroyi va qo'shinidagi nufuzli o'rinlarni varvar zodagonlari va harbiylari egallay ola boshlaganlar.

Varvarlar istilosi Rim saltanatining bo'linib ketishini tezlashtirgan. Imperator Feodosiy o'limi oldidan (479 yil) saltanatni ikki qismga ajratib tashlagan. Bolqon yarim oroli, Misr va Kichik Osiyodagi yerlar Sharqiy qismga kirib, unga imperatorning katta o'g'li Arkadiy imperator etib tayinlangan. Italiya, Yevropa va Afrikadagi viloyatlar esa G'arbiy qismga kirib, unga imperatorning kichik o'g'li Gonoriy imperator bo'lib qolgan. Saltanatning bo'linib ketishi uni yanada zaiflashtirib yuborgan. Shu munosabat bilan G'arbiy saltanatning har ikki qismida har varvar aslzodalari va harbiylarning ta'siri kuchayib borgan.

Gotlar G'arbiy saltanatning zaifligidan foydalanib Italiyaga uch marta hujum qilganlar. Ularning Italiyaga birinchi hujumi 402 yilda bo'lgan. Ammo vandal sarkardasi Stilixon boshchiligidagi Rim qo'shinlari gotlarning hujumini qaytarganlar. Tez orada Stilixon o'ldirilgan.

408 yili gotlar Alarix boshchiligida Rimga yana bostirib kirib, uni talab qaytganlar. 410 yili Alarix o'z qo'shinlari bilan Italiyaga uchinchi marta bostirib kiradi. Gotlar Rimni bosib olib uch kun talaydilar, so'ng Italiya janubiga yo'l oladilar. Ular o'rta va janubiy Italiy shaharlarini talab vayron qilganlar. Alarix vafot etgach, gotlar Ataulf boshchiligida Rimga qaytib kelib, uni yana talaganlar. Shundan keyin ular Rimni tark etib, Galliya va Ispaniya yerlariga borib o'mashganlar. 418 yili Ispaniyada vestgotlar podsholigini tashkil etganlar. G'arbiy Rim saltanati qo'l ostidagi o'lkalar birin-ketin uning ta'siridan chiqib ketgan.

V asr o'rtalarida Attila boshliq xunlar boshqa qabilalar bilan birgalikda Yevropaga bostirib irganlar. Sharqiy saltanat hokimi Attilaga ko'p miqdorda oltin berib, xunlar hujumidan saqlanib qolgan. Shundan keyin xunlar Galliy tuprog'igacha bostirib kirganlar. Galliyadagi qabilalar rimliklar bilan birlashib, ittifoq tuzib Attila qo'shinariga qarshi otlanganlar. 451 yili Katalaun degan joyda ittifoqchilar bilan xunlar o'rtasida shiddatli, vahshiyona va qattiq jang bo'lgan. Xunlar jang maydonini tashlab o'z qarorgohlariga chekinishga majbur bo'lganlar. Galliya qabilalarining ittifoqi tarqalib ketgach, Attila qo'shinlari 452 yili Italiyaga bostirib kirib, uning shimoliy shaharlarini talab, Dunay daryosining orqasiga qaytib ketganlar. 458 yilda Attila o'lgach, unga tobe qabilalar qo'zg'olon ko'targanlar. Shu tariqa xunlar ittifoqi ham bahram topgan. Xunlar mahalliy aholiga qo'shilib singib ketganlar.

429 yilda Ispaniyani egallagan vandallar va alanlar Gibraltar orqali Shimoliy Afrikaga ko'chib o'tgan edilar. 439 yilda esa ular poytaxti Karfagen bo'lgan Alan-Vandal podsholigini tuzganlar. 455 yili vandallar Italiyaga bostirib kirib, Rimni vayron qilganlar va uning butun boyliklarini talaganlar. Shaharni talash ikki hafta davom etgan. Ular haykallarni sindirganlar, kitoblarni yo'q qilib, yondirib tashlaganlar. Ajoyib binolar, ibodatxonalarga va uylarga o't qo'yib, aholini qirg'in qilganlar. Tarixchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, vandallar hujumidan keyin Rimda atigi yetti ming odam qolgan ekan. Rim o'z tarixida bunchalik vayronaga aylanmagan edi. Vandallarining Rimni vayron qilishi natijasida vujudga kelgan «vandalizm» so'zi insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni buzish va yo'q qilish ma'nosini bildiradi.

476 yili german qabilalarining Rimdagi yollangan qo'shini sarkardasi Odoakr G'arbiy Rim saltanatining so'nggi imperatori 15 shli Romul Avgustulni taxtdan ag'darib tashlagan. Germanlar o'z lashkarboshilari Odoakrni imperator deb e'lon qilganlar. Ular imperator unvoni nishonini sharqiy saltanat poytaxti Konstantinopolga yuborganlar. Shu tariqa V asr oxirlariga kelib, G'arbiy Rim saltanati qulagan. Ilgari unga tobe bo'lgan o'lkalar, viloyatlarda mustaqil podsholiklar va davlatlar qaror topgan. G'arbiy Rim saltanati ichidagi qarama-qarshiliklar - qullar va mehnatkashlarning qo'zg'olonlari va varvar qabilalarining to'xtovsiz, vayronalik keltiruvchi hujumlari saltanatni halokatga olib kelgan. G'arbiy Rim saltanatining halokati qadimgi dunyo tarixining oxiri hisoblanadi.

MA'RUZA №20.
Mavzu: Qadimgi Rim madaniyati

Reja:

1. Ilmiy bilimlar sohasidagi yutuqlar.
2. Qadimgi Rim san'ati.
3. Qadimgi diniy e'tiqodlar.

Adabiyotlar

1. Винничук Л. Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. М., 1988.
2. Ботвинник М.Н. и др. Жизнеописания знаменитых греков и римлян. М., 1988.
3. Куманецкий К. История культуры Древней Греции и Рима. М., 1990.
4. Античная цивилизация. Под. ред. В.Д. Блаватского. М., 1973.
5. Культура Древнего Рима. Т. I-II. М., 1985.
6. +адимги дунё тарихи. Ю.С. Крушкол таърири остида. II =исм. Тошкент, 1975.

Tayanch tushunchalar

Qadimgi yozuvlar, Lukresiy, Vergiliy Eney, Tit Liviy, Tasit, Rim tibbiyoti, San'at, Panteon, termalar, Kolizey amfiteatri, haykaltaroshlik, rassomlik, qadimgi e'tiqodlar.

Qadimgi Italiyada va butun Rim saltanatida madaniyat sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Yozuv ilmiy bilimlarning eng muhim ko'rinishi sifatida miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan boshlab yuzaga kelgan. Uni dastlabki ixtirochilari etrusklar va lotinlar edi.

Keyinchalik Italiya qabilalari Finikiya yozuvi asosida tuzilgan yunon alifbosini qabul qilganlar va foydalanganlar. Bu yozuv keyinchalik lotin alifbosi nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Qadimgi italiyaliklar o'z yozuvlari asosida kitoblar yaratganlar.

Rimliklar yunonlar singari fizika, matematika, dengizda suzish, astronomiya, gidrotexnika va agronomiya fanlariga juda qiziqqanlar. Ular me'morchilik, gidrotexnika va agronomiyadan dastlabki qo'llanmalar yaratganlar. Rimliklar quyosh va suv soatlaridan juda erta foydalanganlar. Ilgari ma'lum bo'lgan taqvimlarni aniqroq qilib qayta ishlaganlar.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimda flasafiy asarlar ham yaratilgan. Ular orasida Lukresiy Karning (miloddan avvalgi 98-54 yillar) asarlari diqqatga sazovordir. Uning ajoyib asarlaridan biri «Buyumlar xislati haqida»gi dostonidir. Buyuk olim dunyo, odamlar va narsalarning paydo bo'lishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan.

Lukresiy Kar mashhur yunon faylasuflari Demokrit va Epikurlarning izidan borib, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalarning atom zarrachalaridan tashkil topganligini ta'kidlagan. Lukresiy kishilarning uzoq o'tmishi bilan qiziqib, uni tosh, jez va temir davrlariga bo'lgan.

Odamlar momaqaldiroq, yer tebranishi, ulkan dengiz to'lqinlari, qattiq bo'ronlar, vulqon otilishi va sel-sovurlardan dahshatga tushib qo'rqqanlar. Odamlardagi qo'rquv va nodonlik, deydi Lukresiy, xilma-xil xudolarga e'tiqod qilishni vujudga keltirgan. Odamlar kashf etgan olov, ma'dan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, san'at, yozuv va boshqa narsalar xudolarning in'omi emas, balki inson mehnatining samarasidir. Lukresiy diniy e'tiqodlarni inson tafakkurini jilovlab qo'yadigan yuganga o'xshatgan. U tabiat, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo'ladigan voqealarning sabablarini ilmiy asosda tushuntirib berishga harakat qilgan. U o'z fikrlarini odamlarga yetkazish uchun asarini sodda til bilan she'riy uslubda yozgan.

Italiyada yozma adabiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi miloddan avvalgi VI-V asrlarga borib taqaladi. O'sha davr Rim-Italiya adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari Andronik, Enney, Plavt, Katull va boshqalardir.

Miloddan avvalgi I asrlar Rim-Italiya adabiyotining «oltin davri» hisoblanadi. Bu davrda Vergiliy, Gorasiy, Tibull, Sekot, Propersi va Ovidiy Nazon kabi mashhur shoirlar ijod etganlar. Sezarning do'sti, o'z zamonasining ma'rifatparvar kishisi Mesanat bu shoirlarni qo'llab-quvvatlab, ularga homiylik qilgan.

Shulardan eng mashhuri Vergiliy bo'lib, u dehqonchilik to'g'risida «Georgiklar» nomli she'riy doston yaratgan. Uning Gomer dostonlari mavzusida yaratilgan «Eneyda» dostoni alohida ahamiyatga egadir. Vergiliy yunon va Rim afsonalarini puxta o'rganib, dostonni yozishga kirishgan. U doston ustida o'n il ishlab oxiriga yetkaza olmay o'lib ketadi.

Dostonda Troya shahrining afsonavi himoyachilaridan biri ma'budning o'g'li Eney haqida hikoya qilinadi. Afsonaga ko'ra qamal ichida qolgan Troya shahri lovullab yonayotgan edi. Eney yonayotgan shahardan keksayib qolgan otasini yelkasida ko'tarib olib chiqadi. Ular Troyani tark etib, ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarni boshlaridan kechirib Italiyaga kelib qoladilar.

Miloddan avvalgi I asrda yashagan atoqli shoirlardan biri Ovidiydir. U o'zining «Ishq san'ati», «Dard-alamlar» va «Pontdan maktublar» nomli asarlarida Avgust davridagi aslzodalar turmushini tanqid ostiga olib, Avgust g'azabiga uchragan. U o'zining boshqa asarlarida o'z qayg'u-alamini va mehnatkashlarning og'ir turmushini aks ettirgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, Rim adabiyotining namoyandaridan bir guruhi imperator va aslzodalarni tanqid qilib, mehnatkashlar hayotiga achinish bilan qaraganlar. Boshqalari esa imperatorlar va aslzodalar turmushini maqtab, ularni ko'klarga ko'targanlar.

Qadimgi Rimning o'tmishi bilan shug'ullangan mashhur tarixchilar qatoriga Tit Liviy, Polibiy, Sallyustiy, Yuliy Sezar, Galikarnass Dionisiy, Yusuf Flaviy, Korneliy Tasit, Plutarx, Appian, Don Kassiy, Katton, Varron va boshqalarni kiritish mumkin.

Avgust davrining tarixchisi Tit Liviy 142 jildidan iborat «Rimning ta'sis qilingandan buyongi tarixi»ni yozgan. Miloddan avvalgi I asrda yashagan Galikarnass Dionisiy «Qadimgi Rim yodgorliklari» degan kitob yozgan. I asrning ikkinchi yarmida yashagan Kata Pliniy ham ko'p asarlar yozgan. Ammo uning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Korneliy Tasitning «Tarix» kitobida 68-69 yillardagi fuqarolar urushi va Flaviy zamoni tarixi bayon qilingan. Uning «Yilnomalar» nomli asarida Avgust o'limi bilan Neron o'limi orasidagi voqealar yozilgan. 155-235 yillarda yashagan Don Kassiy «Rim tarixi»ni yozib, unda o'ziga yaqin va zamonasida bo'lgan tarixiy voqealarni ancha mufassal bayon etgan. Sezar ham «Gall urushlari haqidagi yozmalar» va «Fuqarolar urushi haqidagi yozmalar» nomli tarixiy kitoblar yozib qoldirgan. Rim tarixchilarining asarlari Italiya-Rim saltanati tarixini o'rganishda qimmatli manbadir.

Rimda markazlashgan saltanatning vujudga kelishi tibbiyot fanining rivjlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Birinchidan, aslzodalar o'z salomatliklarini saqlashga katta e'tibor bilan qaraganlar. Ikkinchidan, Rimga mamlakatni mudofaa qilish va o'zga yerlarni bosib olish uchun jangovar holatdagi sog'lom qo'shin kerak edi.

Qullar va xalq qo'zg'olonlari hamda boshqa jangu-jadallar vaqtida ko'p jangchilar yarador bo'lganlar. Ularning sog'lig'ini saqlash uchun tabiblar kerak edi. Shu maqsadda Rimda qo'shin va flot uchun alohida harbiy tabiblar xizmati joriy qilingan edi. Har bir legion va qo'shinda harbiy qarorgoh tashkil etilib, tabiblar jarohatlangan va bemor askarlarni davolaganlar.

Rimda tibbiyot ishlari bilan qullar, oddiy kishilar, Kichik Osiyo, Misr va Yunonistondan kelgan kishilar shug'ullanishgan.

Aslzodalar tibbiyot ishlari bilan shug'ullanishni o'zlari uchun uyat deb bilganlar. Rimda yashab, ishlagan mashhur tabiblardan biri Asklepiad (miloddan avvalgi 131-56 yillar) edi. U asli yunonistonlik bo'lib, Afina va Iskandariyada ta'lim olgan. Asklepiad miloddan avvalgi 95 yilda Rimga ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan. U bemorlarni tez va azob bermaydigan usullar bilan davolagan. U yaxshi jarroh ham edi. Asklepiad bemorlarni davolashda toza havo, uqalash va jismoniy chiniqtirish usullarini keng qo'llagan.

Rimda yashagan mashhur tabiblardan yana biri Korneliy Sels edi. U 70 jildlik «Arteo» («San'at») nomli asarini yozgan. Bu asarning 8 jildi tibbiyotga bag'ishlangan bo'lib, u «Tibbiyot haqida» deb nomlangan. Bu asarda Sels o'zidan ilgari o'tgan mashhur tabiblarning asarlarini to'plab tartibga solgan, uni o'z tajribalari bilan boyitgan. Korneliy o'z asarida jarrohlik, turli kasalliklar va ularni davolash usullariga alohida e'tibor bergan.

Qadimgi dunyoning eng mashhur tabiblaridan biri Klavdiy Galen edi. U 131 yili Pergamda tug'ilib, 201 yilda vafot etgan. U o'ta zehqli bola bo'lib, 17 yoshida Asklepiton deb ataluvchi shifoxona va tibbiy maktabga qatnab, tibbiyot ilmini o'rganadi, chuqur ilmiy tabib bo'lib yetishadi. Dastlab u gladiatorlik maktabida ishlab, so'ng Rim imperatorlarining saroylarida tabiblik qilgan.

Klavdiy bemorlarni davolashda shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dorilardan keng foydalangan. U 400 dan ortiq asar yozgan. Uning «Tabiblik san'ati», «Davo usullari», «Dorilarning

tartibi haqida» degan asarlari alohida ahamiyatga egadir. Galenning ko'p asarlari Rimga o't tushgan vaqtda kuyib ketgan. Galen asarlari o'rta asrlarda arab tillariga ko'p marta tarjima qilingan. Uning asarlaridan bobokalonimiz Ibn Sino ham foydalangan. Qadimgi Rimda tabiblar yetishtirib chiqariladigan maxsus tibbiy bilim yurtlari bo'lgan.

Qadimgi rimliklar me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik va san'atning boshqa sohalarida katta yutuqlarga erishganlar. Bu sohada ular dastlab etrusklar, keyinchalik esa yunonlardan ko'p narsalarni o'rganganlar.

Rim saltanatida va Italiyada Rim, Kapuya, Andrianopol, Ravenna va Karfagen kabi yirik shaharlar ko'p bo'lgan. Ayniqsa saltanat poytaxti Rim katta shahar edi. Saltanatdagi, ayniqsa Rim shahridagi me'moriy binolar o'zining kattaligi, hashamatliligi va go'zalligi bilan kishilarni hayratga solgan. Bu binolar saltanatning kuch-qudrati va boyligini boshqa mamlakatlarga namoyish qilib turgan. Rimliklar yunon me'morchiligining yutuqlaridan samarali foydalanganlar. Ayni vaqtda o'zlari ham binokorlik san'atida ko'pgina yangiliklar yaratganlar.

Rimliklar beton ixtiro qilib, undan bino qurilishida, ayniqsa ark va gumbazlarni ishlab chiqishda foydalanganlar.

Ark – yoy shaklidagi bostirmadir. U lotincha – arkus – kamalak so'zidan kelib chiqqan. Ustalar Rim shaharlarining maydon va ko'chalarida imperatorlar sharafiga zafar arkleri qurganlar. Ko'priklar, suv quvurlari qurilishida arkler keng suratda qo'llanilgan. Rim ustalari tog'lardagi buloqlardan pastga qarab bir tekisda ozgina nishab qilib, suv tarmoqlari o'tkazganlar. Bunday nishablikni hosil qilish uchun pastlik joylarda arkli ko'priklar qurilgan. Ularning ustiga suv oqib o'tadigan tarnovlar o'rnatilgan. O'ndan ortiq suv quvuri tarmoqlari Rimga tog' buloqlaridan suv yetkazib bergan.

Gumbaz yoysimon inshoot bo'lib, to'ng'ri bo'ylangan katta qozonni eslatadi. Rimdagi Panteon, ya'ni «Barcha xudolar ibodatxonasi» gumbazli binolar qurilishining ajoyib namunasi. Bu ibodatxona binosi hozirgacha saqlanib qolgan. Ibodatxonaning yuqorisida doira shaklida katta deraza bo'lib, undan tushadigan yorug'dik Panteon ichkarisini ravshan ko'rsatib turadi.

Rim ustalari imperator uchun muhtasham saroylar, qasrlar, ma'muriy binolar qurishgan. Rimdagi imperator termalari ham me'morchilikning nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Termalar issiq va sovuq suvlari bo'lgan hammomlardir. Rimning erkin kishilari bo'sh vaqtlarini termalarda o'tkazganlar. Termalarda dam olish xonalari, oshxona va kutubxonalar bo'lgan.

Milodning birinchi asrida rimlik ustalar gladiatorlarning janglari uchun Kolizey amfiteatri binosini qurganlar. Bu amfiteatr o'zining ulkanligi bilan kishini hayratga soladi. Amfiteatr arenalariga 11 ming yirtqich chiqarilgan, 10 ming gladiator bir-biri bilan jang qilgan va yirtqich hayvonlar bilan olishgan.

I asrda Rimda 50 ming tomoshabin joylashadigan Kolizey amfiteatri qurilgan. Imperator Trayan tomonidan o'tkazilgan bayram tantanasi 123 kun davom etgan.

Haykaltaroshlik tasviriy san'atning bir turi bo'lib, u Rimda ham Yunonistondagi singari ancha qadimda rivojlangan. Ammo rimliklar haykaltaroshlikning sirlarini yunonlardan o'rganganlar. Lekin Rim haykaltaroshlari portretlar yaratishda Yunoniston haykaltaroshlaridan o'zib ketganlar. Rimda ishlangan portretlar odam qiyofasining tashqi ko'rinishini aniq ifodalash bilan birga uning xususiyatlarini, xulq-atvorini, aqlini, irodasini, qahramonligini, johilligini va ochko'zligini ko'rsatib turardi.

Bu jihatdan Spesion, Gannibal, Sezar, Pompey, imperatorlar Avgust, Trayan va boshqalarning haykallari diqqatga sazovordir. Rim haykaltaroshligi o'zining badiiy jihatdan boyligi va xilma-xilligi bilan ham ajralib turardi.

Rassomchilik ham tasviriy san'atning bir turidir. Qadimgi rimliklar rassomchiligining asoslari etrusklar davriga borib taqaladi. Qadimgi etrusk rassomlari erkak va ayollarning rasmlarini ishlashda mohir bo'lganlar. Qadimgi Rimdagi rassomlik devoriy rasmlarda ham o'z aksini topgan. Imperatorlar, aslzodalar va boy amaldorlarning saroylari, ularning devorlariga har xil naqshiy rasmlar chizilgan.

Qadim zamonlarda Italiya aholisi ham yunonlar singari ko'p xudolik bo'lib turli narsalarga sig'inganlar. Ular osmon, suv xudolarini va ma'budalarini juda hurmat qilganlar. Italiyaning atrofi suv bilan o'rab olingan edi. Italiya qabilalari, xususan etrusklar dengizda suzish natijasida dahshatli bo'ronlarni, bo'ronlar natijasida hosil bo'lgan ajal keltiruvchi dengiz to'lqinlarini ko'p marta kuzatganlar. Tabiatdagi ko'p narsa va hodisalarning sabablari, sir-asrorlari rimliklarga ma'lum

bo'lmagan. Shu tufayli ular bu narsalarda qandaydir ilohiy kuch bor, deb o'sha narsalarga sig'inib talpinganlar. Rimliklarning ilk e'tiqodida ibtidoiy din shakllari uzoq davom etgan.

Etrusklar e'tiqodiga ko'ra, ularda Yupiter, Yunona, Minerva, Mars kabi o'z xudolari bo'lgan. Bosh xudo Yupiter bo'lib, Minerva donishmandlik, Mars esa Rim homiysi va urush xudosi hisoblangan.

Italiyada yunon xudolariga sig'inish keng quloch yoygan edi. Chunki miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridayoq yunonlar Sisiliya va Janubiy Italiyaga kelib o'rnatish boshlaganlar. Shundan boshlab yunon madaniyati va dini Italiya madaniyati va diniga kuchli ta'sir etgan. Shu boisdan Italiyada yunon xudolariga sig'inish juda kuchli bo'lgan.

Italiyaliklar yunon xudolarini o'zlarining qadimgi xudolariga qiyos qilganlar. Ular Yupiterni Zevsga, Yunonani Geraga, Venerani Afroditaga, Dianani Artemidaga, Minervani Afinaga va Vulkanni Gefestga o'xshatganlar. Rim saltanati kuchaygan vaqtda uning mulklari shimolda butun G'arbiy Yevropani, Britaniyagacha, janubda Shimoliy Afrika, sharqda Makedoniya, Yunoniston, Parfiyagacha bo'lgan yerlarga cho'zilgan edi. Bu joylarda turli qabilalar va elatlar yashaganlar. Ularning diniy e'tiqodi har xil bo'lganki, saltanatda ko'p xudolik e'tiqodining mavjudligi shundandir.

MUNDARIJA

MA'RUZA № 1. Mavzu: Yunon-Eron urushlari	2
MA'RUZA № 2. Mavzu: Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi	5
MA'RUZA № 3. Mavzu: Afina quldorlik demokratiyasi	7
MA'RUZA № 4. Mavzu: Peloponnes urushi. Polis tizimining inqirozi	9
MA'RUZA № 5. Mavzu: Shimoliy Qora dengiz bo`ylaridagi Yunon shahar-davlatlari	12
MA'RUZA № 6. Mavzu: Klassik davrdagi Yunon madaniyati	14
MA'RUZA № 7. Mavzu: Makedoniyalik Aleksandr davlatining vujudga kelishi va parchalanishi.	18
MA'RUZA № 8. Mavzu: Ellin davlatlari.....	21
MA'RUZA № 9. Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga muqaddima. Tarixiy manbalar	23
MA'RUZA № 10. Mavzu: Miloddan avvalgi VIII-III asrlarda Rim va Italiya	26
MA'RUZA № 11. Mavzu: Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Rimning davlat tuzumi	29
MA'RUZA № 12. Mavzu: Puni urushlari	32
MA'RUZA № 13. Mavzu: Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi.....	35
MA'RUZA № 14. Mavzu: Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Rimning ichki siyosati	37
MA'RUZA № 15. Mavzu: Miloddan avvalgi II-I asrlar bo`lag`asida Rimdagi ijtimoiy-siyosiy kurash	40
MA'RUZA № 16. Mavzu: Respublika tuzumining inqirozi va ilk Rim imperiyasi davri	42
MA'RUZA № 17. Mavzu: I- II asrlarda Rim saltanati	45
MA'RUZA № 18. Mavzu: III–IV asrlarda Rim davlati Xristianlik inqirozi	49
MA'RUZA №19. Mavzu: Dominat davri. G`arbiy Rim saltanatining qulashi	52
MA'RUZA №20. Mavzu: Qadimgi Rim madaniyati	56

108,1,106,3,104,5,102,7,100,9,98,11,96,13,94,15,92,17,90,19,88,21,86,23,84,25,82,27,80,2
9,78,31,76,33,74,35,72,37,70,39,68,41,66,43,64,45,62,47,60,49,58,51,56,53

54,55,52,57,50,59,48,61,46,63,44,65,42,67,40,69,38,71,36,73,34,75,32,77,30,79,28,81,26,8
3,24,85,22,87,20,89,18,91,16,93,14,95,12,97,10,99,8,101,6,103,4,105,2,107

